



ZUHRIDDIN  
ALIMOV

**TOSHKENT VOHASI TARIXIY  
GEOGRAFIYASINING ARAB  
TILLI MANBALARDAGI  
TAVSIFI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**ZUHRIDDIN ALIMOV**

**TOSHKENT VOHASI  
TARIXIY GEOGRAFIYASINING  
ARAB TILLI MANBALARDAGI  
TAVSIFI**

**Toshkent — 2021**

**Alimov Z.I.** Toshkent vohasi tarixiy geografiyasining arab tilli manbalardagi tavsifi. – T., 2021. – 180 b.

Ushbu monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot rejasi asosida bajarilgan bo'lib, unda IX-XIII asr arab tilidagi yozma manbalarga murojaat etish orqali Toshkent vohasi tarixiy geografiyasini tavsif etilgan. Shuningdek vohaning gidronimlari va toponimlari tasniflangan hamda arxeologik obyektlar bilan muvofiqlashtirilgan. Kitobdan Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi va tarixiy manbashunoslik bilan qiziquvchi talabalar, magistrlar va tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

**Mas'ul muharrir:**  
*tarix fanlari doktori, professor M. Is'hoqov*

**Taqrizchilar:**  
*tarix fanlari nomzodi, professor  
Z. Saidboboyev*  
*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
R. Xudayberganov*

Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Kengashining 2021-yil 25-noyabrdagi  
4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Markaziy Osiyo hududini Sharq renessansining yirik markazlaridan biri sifatida o'rganish dunyo tarixshunosligining keyingi yillardagi muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Bugungi notinch va tahlikali zamonda taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda buyuk ajdodlarimizdan insoniyatning ma'naviy boyligi sifatida yetib kelgan beba ho merosni o'rganishning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'rta Osiyoning tarixiy davrlardagi siyosiy kartasi, hunarmandchilik va savdo-sotiqlar, iqtisodiy va madaniy tarixiy geografiyasi zamonlar o'tishi bilan yozma manbalarining mazmunan boyib borishiga olib kelgan. Bu hol tarixiy geografik tadqiqotlarga jiddiy talab va ehtiyojni yuzaga keltirmoqda.

Zamonaviy tarixshunoslikdagi arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlari Markaziy Osiyo, xususan, Toshkent (Choch) o'lkasining tarixiy geografiyasini o'rganish uchun boy materiallar beradi. Markaziy Osiyo mintaqasi uzoq o'tmishdan boshlab ko'plab elatlarning muqaddas zamini sifatida xalqlarning xo'jaligi, tarixiy-madaniy xususiyatlari va diniy munosabatlarda qator o'xshashlik va mushtarak xususiyatlар mavjud. Shularni e'tiborga olgan holda Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasini kompleks o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, mazkur mintaqa ulkan hududlarni birlashtirgani tufayli uni ayrim yo'nalishlar, kichik tarkibiy bo'linmalar bo'yicha o'rganish maqsadga muvofiq. Shu jihatdan shu kunga qadar Toshkent (Choch) o'lkasi tarixiy geografiyasi alohida o'rganilmagan. IX-XIII asr arab tilidagi yozma manbalar asosida Toshkent vohasi tarixiy geografiyasingning fanga noma'lum qirralarini asoslash va yangi talqinini yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning hozirgi pal-lasida barcha fanlarni puxta o'zlashtirish, ayniqsa, xalqimizning ming yillar bilan bo'ylashadigan yozma merosi masalarini chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qo'lyozma manbalarni tahlil etish va ularni ilmiy muoma-

laga kiritish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" alohida qayd etilgan bo'lib, 4.4-bandida<sup>1</sup> yozma manbalarni o'rganishda hozirgi zamon ilm-fani oldida turgan muhim vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 17 fevraldag'i PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy huj-jatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografik tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi IX-XIII asr arab tilidagi yozma manbalarga murojaat etish orqali Toshkent vohasi tarixiy geografiyasini to'liq tavsif etish, gidronimlar va toponim-larni tasniflash hamda mazkur vohadagi arxeologik obyektlar bilan muvofiqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari Toshkent vohasi haqida ma'lumotlarni o'zida jam etgan IX-XIII asrlarda yaratilgan arab tilidagi tarixiy, geografik asarlarni tadqiq etish. Movaroun-nahr tarkibidagi alohida tarixiy-madaniy viloyat sifatida Toshkent vohasi haqidagi tarixiy, geografik ma'lumotlarni aniqlash va tizimli tahlilga tayyorlash;

Geografik janr asarlarida Toshkent vohasi haqidagi ma'lumotlar matnlarini taqqoslash, farqli va umumiyl jihatlarini belgilash, original va kompilyativ jihatlarini asoslash;

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда.

tarixiy Toshkent viloyatini qamrab olgan geografik mintaqalarda, xususan, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi havzasi, Shosh vohasining janubiy va shimoliy karvon yo'lidagi shaharlari, tog'li yo'llardagi shaharlar, Iloq vodiysining Chirchiq va Iloq daryolari oralig'idagi shaharlar, Binkat va Tunkat oralig'idagi shaharlar va ularga tutash hududlarda yuzaga kelgan keng etnik va madaniy jarayonlar mohiyatini yoritish, ularning asosiy omillarini, shu davrlar uchun mushtarak xususiyatlarini kompleks yoritish;

hududlarning tarixiy-geografik o'ziga xosliklarini, o'zaro uyg'unligini isbotlash;

Toshkent vohasining shahar va manzilgohlarini Buyuk ipak yo'li bo'ylab tarixiy geografiyasini kompleks tadqiq etish.

Monografiyada ilk bor IX-XIII asr boshlari Toshkent vohasi tarixiy geografiyasiga oid arab manbalarida qayd etilgan aholi yashash joylari, gidronimlar va toponimlarning tasnifi ishlab chiqilgan.

Toshkent viloyatini qamrab olgan geografik mintaqalarda, xususan, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi havzasi, Shosh vohasining Janubiy va Shimoliy karvon yo'lidagi shaharlari, tog'li yo'llardagi shaharlar, Iloq vodiysining Chirchiq va Iloq daryolari oralig'idagi shaharlar, Binkat va Tunkat oralig'idagi shaharlar va ularga tutash hududlarda yuzaga kelgan etnik va madaniy jarayonlar mohiyati yoritilgan.

Yozma manbalarda tilga olingan o'rta asr toponimlari konkret arxeologik obyektlar bilan muvofiq ekani isbotlangan.

O'rta asrlar Toshkent vohasining shahar va manzilgohlarini Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashuvi va ularning tarixiy geografiyasini bo'yicha *Shosh*, *Iloq*, *Chirchiq*, *Binkat* va *Tunkat* singari joy nomlarining yangi tavsiflari ishlab chiqilgan.

"Kitab g'arayib al-funun va mulax al-uyun" hamda as Sam'oniyning "Mo"jam ash shuyux" asarlarining qo'lyozma manbalariga asoslanib Toshkent tarixiy geografiyasining diaxron tavsifi asoslangan.

## **TADQIQOTNING TARIXNAVISLIGI VA MANBALARI**

### **Mavzuning o‘rganilish holati va muammolari**

Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda tarix fanining muhim bir tarmog‘i bo‘lmish tarixiy-geografiyaning muhim o‘rin tutadi.

Tarixiy-geografiyaning tarix fanidagi ahamiyati shundaki, uning yordamida tariximizning hozirgacha noma’lum bo‘lib qolayotgan yoki munozarali bo‘lib kelayotgan bir necha masalalarini hal etish mumkin. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi, shu jumladan O‘zbekiston hududining ilk aholi manzilgohlari, ularning etnik mansubligi, xo‘jalik tarzi, mada-niy hayoti kabi tarixiy voqeliklarni tarix fanining ushbu tarmog‘i vositasida yoritish imkoniyati yaratiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston tarixiy geografiyasi shu paytgacha yaxlit holda tadqiq etilmagan. Shu bois tariximizning muayyan davrida mavjud bo‘lib, keyinchalik ma’lum o‘zgarishlarga uchragan aholi manzillari, shaharlar o‘rni qayerda bo‘lganligi masalasi ko‘pchilik tadqiqtchilar uchun tariximizni o‘rganishida qiyinchilik tug‘dirib keladi.

Markaziy Osyoning qadimdan o‘troq xo‘jalik turmush tarzi hukmron geografik regionlari bo‘lmish Sirdaryo va Amudaryo oralig‘i va unga tutash hududlar; Choch (Shosh), Farg‘ona vodiysi, Sug‘d kabi viloyatlarning eng qadimgi tarixiy joy nomlarini, arab tilidagi manbalardagi qadimgi davr va o‘rta asrlarda foydali qazilmalarni ishlab chiqarish va metallurgiya tarixiga oid ma’lumotlarni tadqiq qilish, xitoy tilidagi manbalardagi Farg‘ona (Davan) davlatining poytaxtini aniqlash masalasiga va qadimgi Choch davlatining tarixiga oid bo‘lgan ma’lumotlarni tadqiq qilish, tarixiy xaritalardagi toponimik materiallarni to‘plash va tadqiq qilish, sug‘d tilidagi manbalardagi Markaziy Sug‘d vohasining qadimgi va o‘rta asr tarixiy joy nomlari, shuningdek, Markaziy Sug‘d vohasining landshafti, suv tarmoqlari, foydali qazilmalari, metallurgiyasi oid tarixiy ma’lumotlarni tadqiq etish, Choch vohasidagi

qadimgi va o'rta asr tarixiy joy nomlari, numizmatik materiallar, foydali qazilmalari va metallurgiyasi tarixiga oid ma'lumotlarni tadqiq qilish orqali mamlakatimiz tarixini yoritishga muhim hissa qo'shish mumkin.

Chirchiq vodiysining serunum va obod markaziy qismida joylashgan hozirgi Toshkent O'rta Osiyoda qad ko'targan qadimi shaharlardan biri bo'lib, u ikki ming yillik tarixiga ega. O'zining yigirma asrlik o'tmishi davomida bu ko'hna shahrimiz tashqi bosqinchilarga qarshi olib borilgan ne-ne jangu jadallarni va ne-ne o'zaro qonli urushlar- natijasida necha bor vayron bo'lib, necha bor tiklanib qolmay, uning nomi ham bir necha marta o'zgardi.

Xo'sh, bu ko'hna shaharning ilk bor binolari hozirgi Toshkentning qaysi qismida qad ko'tardi va u qachondan boshlab Toshkent nomi bilan shuhrat topdi? Bu yerda shaharsozlik madaniyatining shakllanib, uning rivojlanishi bois nimada?

Afsuski bunday savollarga yozma manbalarda aniqroq javob topish bir muncha mushkul. Chunki Toshkentning uzoq o'tmishi va shakllangan qadimgi Choch yoki Shosh viloyati haqidagi ma'lumotlar manbalarida juda xilma-xil hamda uzuq- yuluq tarzda qayd etilib, bir -biriga ziddir.

Masalan, otashparastlarning qadimi muqaddas kitobi «Avesto»da Sirdaryo havzasidagi viloyat «Turon», aholisi esa «tur» lar deb yuritilgan.

Bu o'lkada tur qavmlari urug' va qabila oqsoqollarining diniy va siyosiy qarorgohi Qang'xa (Qang'a) shahri borligini tilga olinadi. Qadimgi fors kitobalarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Sirdaryodan shimolda «sak» nomi bilan shuhrat topgan jangovor qabilalardan hisoblangan «Sak Xau-mavarka» ya'ni – zardushtiylarning muqaddas taomi «xauma» tayyorlab iste'mol qiluvchi – saklar yashaganlar.

Bunday ma'lumotlarga qarama – qarshi o'laroq, qadimgi dunyo mualliflari Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida yashagan sak qabilalari to'qayzor va tog' ularning diyorida shaharlarni mavjud emasligi haqida qayd etishgan. Xatto qadimgi Yunon va Rim

tarixchilari Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab dastlabki shaharlarning qad ko'tarishini ellinlarning shaharsozlik faoliyati bilan bog'laydilar. Rim tarixchisi Pliniyning xabar berishicha, salavkiylar lashkarboshisi Miletlik Demodam (miloddan avvalgi III asr) uzoq shimoli- sharqda, Sirdayoning o'rta oqimiga tomon harbiy yurish qilib, o'z qo'shinlari bilan Sirdaryo sohillariga yetgan va daryodan o'tib, o'ng qirg'oqda shahar barpo qildirgan ekan.

Salavkiylar podshohi Antiox I Soter nomini ulug'lash maqsadida bu shaharga Yaksart orti Antioxiyasi nomidagi Antioxiya shahri degan nom berilgan. Pliniyning bu ma'lumotiga suyanib fikr yuritilsa, Toshkent vohasida eng qadimgi shaharlardan biri dastavval miloddan avvalgi III asrda qad ko'tarib ko'tarib, uning nomi Yaksart orti Antioxiyasi bo'lgan deyish mumkin. Ammo ellinlar asos solgan bu ko'hna shaharning Sirdaryo havzasining qaysi yerida joylashgani tarixda hali ham aniq ma'lum emas. Shu boisdan bo'lsa kerak, Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab qidiruv va qizish ishlari olib borgan tadqiqotchilar tomonidan bu afsonaviy ko'hna ellinlar shahrining hozirgacha izlari qayd etilmagan.

Hozirgi Toshkent vohasida qadimgi shaharsozlik madaniyatining vujudga kelib, bu o'lkada ilk bor katta – kichik shaharlarning barpo bo'lishi tarixi yozma manbalar ko'ra Toshkent hududida qad ko'targan qadimgi shaharlarning xaroblari hisoblangan tepalar qa'rida to'laroq va aniqroq saqlangan.

Shuning uchun ham Toshkentning qadimgi tarixi sahifalarini tiklashda bizning davrimizgacha tepe shaklida saqlanib qolgan arxeologik obidalar asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki bunday yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar olib borish bilan faqat shaharning qadimiy qiyofasidagina emas, balki Toshkentga asos solgan qadimgi shaharliklarning turmush tarzi, xo'jaligi, madaniyat hamda diniy e'tiqodlari ham ashyoviy topilmalar vositasida aniqlanmoqda.

Markaziy Osiyo, xususan Toshkent vohasi tarixiy geografiyasi masalalarini o'rganish zamonaviy fan nuqtai nazaridan asosan XIX asrda boshlandi va hozirgacha davom

etmoqda. Tadqiqotlarning xususiyatidan va nashr qilinish darajasidan kelib chiqib, mavzuning o'rganilishi quyidagi xronologik davrlarga bo'lib chiqildi: 1) XIX asrning oxiri — XX asr boshlari; 2) XX asrning 20-80- yillari; 3) Mustaqillik davrida mavzuning o'rganilishi; 4) Xorij tarixshunosligida muammoning talqini.

1. XIX asr oxiri — XX asr boshlari tarixshunosligi. O'rta Osiyo mintaqasi va tarixiy viloyat shaharlarini tarixiy-geografik aspektda o'rganish dastlab Rossiya tarixshunosligida boshlandi. O'rta Osiyoga tashrif buyurgan turli elchilik missiyalari a'zolari, savdogarlar, sayohatchilar, harbiylar va boshqalar mahalliy shahar, shaharcha va qishloqlarga hamda ularni bog'lab turuvchi yo'llarga katta e'tibor qaratgan. O'rta Osiyo Rossiya mustamlakasiga aylantirilgandan keyin rus hokimiyati mintaqani, ayniqsa, harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan Toshkent vohasi hududlarini va bu yerdagi aloqa yo'llari tizimini bat afsil o'rganishga kirishdi. XIX asr oxiri — XX asr boshlariga oid rus manbalarida mintaqaning viloyatlari, shaharlari va karvon yo'llari haqida muhim ma'lumotlar mavjud.

2. XX asrning 20-80-yillari tarixshunosligi. XX asrning 20-80 yillarida tarixiy-arxeologik tadqiqotlar natijalari va yozma manbalar ma'lumotlari tahlili asosida ko'plab monografiyalar, risolalar va maqolalar nashr etildi. Ular ichida V.V.Bartold<sup>1</sup>, M.E.Masson<sup>2</sup>, E.V.Rtveladze<sup>1</sup>,

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Иран. Исторический обзор // Сочинения в 9 томах. Т. 7. М.: Наука, 1971; Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана // Сочинения в 9 томах. Т. 2. Часть 1. М., 1963; Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана // Сочинения в 9 томах. Т. 3. М.: Наука, 1965; Бартольд В.В. История турецко-монгольских народов // Сочинения в 9 томах. Т. 5. М., 1968.

<sup>2</sup> Массон В.М. Формирование древних цивилизаций в Средней Азии и Индостане // Древние культуры Средней Азии и Индии. Л., 1984; Массон М.Е. К вопросу о северных границах государства «Великих Кушан» // Центральная Азия в кушанскую эпоху. Труды Международной конференции по истории, археологии и культуре Центральной Азии в кушанскую эпоху. В 2-х томах. М., 1974 – 1975.

B.Yu.Buryakov<sup>2</sup>, R.G.Mukminova<sup>3</sup> S.K.Karaev<sup>4</sup> va boshqa tadqiqotchilarning O'rta Osiyo qadimgi davr va o'rta asrlarga oid shaharlari ko'rib o'tilgan asarlarini qayd qilib o'tish mumkin.

Shu tariqa, bu davrda mintaqaning tarixiy-geografiyasi yangi asosda, yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlardan foydalanib o'rganila boshlandi, shahar markazlari ning evolyutsiyasi masalasini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bordi. Bu davrda ko'rib chiqilayotgan mavzuga tegishli ilmiy bilimlar ancha oshdi. Bu ko'rib chiqilayotgan masalani o'rganishda oldingi davrga nisbatan katta yutuq edi.

### 3. Mustaqillik davri tarixshunosligi.

Toshkent tarixiy viloyatining tarixiy geografiyasi ayrim sharqshunos-tarixchi va arxeologlar ishlarida o'rganilgan. Bu tadqiqotlar odatda ayrim katta bo'lмаган hududlarni o'z ichiga olib, manbalarda keng qamrovda foydalilmagan.

---

<sup>1</sup> Ртвеладзе Э.В. Легенды об основании среднеазиатских городов и археологическая действительность // Культура юга Узбекистана в древности и средневековье. Ташкент, 1987; Ртвеладзе Э.В., Исхаков М. Два средневековых чаганианских селения // ИМКУ, Вып. 15. Ташкент, 1979; Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А. Памятники минувших веков. Ташкент: Узбекистан, 1986.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Ист.-археол. Очерк Чача и Илака). Тошкент, "Фан". 1975; Буряков Ю.Ф. и др. Древняя и средневековая культура Чача. Тошкент, "Фан". 1979; Буряков Ю.Ф. По древним караванным путям Ташкентского оазиса. Тошкент, "Фан". 1978; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Т., 1984.

<sup>3</sup> Мукминова Р.Г., Филанович М.И. Ташкент на перекрестке истории (Очерки древней и средневековой истории города). Ташкент, 2001.

<sup>4</sup> Караев С.К. Древнетюркские названия Средней Азии // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV – XIX вв. Ташкент, 1987; Караев С.К. Топонимия Узбекистана (Социолингвистический аспект). Ташкент: Фан, 1991.

Shu o'rinda Toshkent vohasiga qo'shni bo'lgan hududlar tarixiy geografiyasi nisbatan yaxshi o'rganilganini aytib o'tish lozim. Xususan, bu borada Sh.S.Kamoliddin<sup>1</sup> tomonidan nashr etilgan "Janubiy So'g'd va Toxaristonning tarixi geografiyasi IX-XIII asr boshiga taalluqli arab manbalari asosida"<sup>2</sup> nomli monografiyasi diqqatga sazovor. Shu bilan birga B.Yu.Buryakov<sup>3</sup>, A.Muhammadjonov<sup>4</sup>, M.Filanovich<sup>5</sup>,

---

<sup>1</sup> Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006; Камолиддин Ш.С. О градостроительной культуре у древних тюрков // Урбанизация и номадизм в Центральной Азии: история и проблемы. Материалы международной конференции. Алматы, 2004; Камолиддин Ш.С. О горнорудном деле и металлургии у древних тюрков // Археология и история Центральной Азии. К 70 летию Ю.Ф.Бурякова. Самарканд, 2004; Камолиддин Ш.С. Заметки по древней и средневековой истории Чача. Тошкент. 2009; Камолиддин Ш.С. Вокруг заметок по древней и средневековой истории Чача. Тошкент. 2009; Камолиддин Ш.С. О северных границах средневековой области Аш-Шаш. Тошкент. 2009; Камолиддин Ш.С. Сведения источников о Чаче как владении доисламских предков Саманидов. Тошкент. 2009.

<sup>2</sup> Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана поарабоязычным источникам IX – начала XIII вв. Т., 1996.

<sup>3</sup> Буряков Ю.Ф. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра. Тошкент, "Фан". 1990; Буряков Ю.Ф. Чоч топилмалари. Тошкент. 1991; Буряков Ю.Ф. Канка и Шахрухия. Древние города Чача и Илака на Великом шелковом пути. Ташкент, 2011.

<sup>4</sup> Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент: Тарихий ва археологик лавҳалар. Тошкент, "Фан". 1988; Муҳаммаджонов А. Қанғ — қадимги Тошкент ва тошкентликлар. Тошкент, "Шарқ". 2009.

<sup>5</sup> Филанович М. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. Тошкент, "Узбекистан". 2010; Филанович М. Тошкент: зарождение и развитие города и гор. Культуры. Тошкент, "Фан". 1983. Филанович М. Государство Кангюй // Очерки по истории государственности Узбекистана. Тошкент, 2001; Филанович М., Алимова Д. Тошкент тарихи. Қадимги даврлардан бугунги кунгача. Тошкент, "Art Flex". 2009; Филанович М. Шош — Тошкент ва Ислом "Ренесанс"и (IX-XII

O.Bo'riev<sup>1</sup>, Z.Saidboboyev<sup>2</sup>, K.A.Kraxmal<sup>3</sup> va boshqa tadqiqotchilarning O'rta Osiyo va xususan Toshkent vohasining o'rta asrlarga oid shaharlari ko'rib o'tilgan asarlarini qayd qilib o'tish mumkin.

Toshkentda hozirgacha saqlanib kelayotgan arxeologik yodgorliklarni o'rganish XIX asr 2-yarmida boshlangan edi. Toshkent shahri va uning atrof tumanlarida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti arxeologiya kafedrasи, O'zR FA Tarix va Arxeologiya institutlari hamda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi olimlari tomonidan muntazam arxeologik kuzatuv, qidiruv va qazishma ishlari olib borildi. Toshkentning arxeologik obidalarini tadqiq qilib, uning qadimgi tarixi sahifalarini tiklashda, ayniqsa M. Ye. Masson, A. I. Terenojkin, G. V.

Grigorev, T. Mirg'iyosov, Ya. G'. G'ulomov, V. A. Shishkin, G. V. Parfenov, V. A. Bulatova, U. Islomov, M. I. Filanovich, Yu. F. Buryakov, D. G. Zilfer, G. Dadaboyev, S. B. Lunina, Z. Usmanova, D. P. Varxotova, L. G. Brusenko, M. Aminjonova, M. S. Merzhevskiy N. I. Krasheninnikova, A. Kabirov X. Duke va boshqalarining hissasi katta bo'ldi. Ayniqsa, Toshkent vohasining qadimiy shahar xarobalarida arxeologik qazishmalar olib borgan holda ularning qadimgagi qaysi shahar va qishloqlarga to'g'ri kelishini aniqlashda Yu. F. Buryakov boshchiligida ish olib borgan arxeologik ekspeditsiya guruhining xizmatlari beqiyosdir.

Toshkent shahri hududida bevosa olib borilgan arxeologik tadqiqtolar ayniqsa 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng keng ko'lam kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademii-

---

асрлар): (Хунармандчилик ва савдо, жамоатчилик, маънавий ва маданий ҳаётнинг ривожланиши). Тошкент. 2008.

<sup>1</sup> Бўриев О. Темурйлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. Тошкент, "Ўзбекистон". 1997; Бўриев О. Марказий Осиё тарихий географиясидан лавҳалар. Тошкент, "Тафаккур". 2015.

<sup>2</sup> Сайдбобоев З.А. Тарихий география. – Тошкент, "Ношир", 2008.

<sup>3</sup> Крахмаль К.А., Хасanova С.М., Аметова Ф.И. Древнейшая история народов долины Сырдарьи. Ташкент, "Тамаддун". 2013.

yasining haqiqiy a'zosi Ya. G'. Gulomov tashabbusi bilan maxsus «Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi» tashkil etildi. Hozirgi vaqtga qadarli iste'dodli arxeolog—olima Margarita Ivanovna Filanovichrahbarligi ostida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademysi Arxeologiya institutining maxsus ekspeditsiyasi Toshkentda qizg'in arxeologik qazish ishlarini davom ettirmoqda.

Ko'p yillik arxeologik tadqiqotlar natijasida avvalo shunday voqelik aniqlandiki, Sirdaryo havzasini hududlarida yashagan qadimgi sak qabilalarining hammasi ham ko'chmanchi chorvador bo'limgan. Chunonchi, Ohangaron va Chirchiq daryolarining irmoqlari bo'ylab juda keng maydonda bundan 3000 yilcha muqaddam dehqonchilik xo'jaliklari shakllanib, qadimgi saklarning bir qismi daryo irmoqlarining toshqin suvlaridan hosil bo'lgan tabiiy zaxob yerlar va ko'lmaq hamda loyqalardan foydalanib o'troq dehqonchilik bilan kun kechirgan.

Shu asosda ko'plab dastlabki o'troq manzilgohu qishloqlar va keyinchalik ilk shaharlar ham vujudga kelgan. Ma'lum bo'lishicha, hozirgi Toshkentning janubiy qismi o'sha qadimgi ibtidoiy dehqonchilik madaniyatini tashkil topgan vohaning o'rni-da ekan. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida xuddi shu hudud dan ibtidoiy dehqonchilik madaniyatiga mansub yodgorliklar hamda ilk shahar madaniyatini izlari topilib o'r ganilmoqda.

Toshkentning qadimgi tarixi to'g'risidagi lavhalar bayon etilar ekan, avvalo shuni aytish kerakki, o'lkada ilk shahar sozlik madaniyatining shakllanib, shaharning qad ko'tarishi shu o'lkada yashagan qadimgi chorvador va dehqon aholisining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo'lib, bu jarayon shubhasiz o'lkanning o'zlashtirilib obod etilishi, ayniqsa unda chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklarini tashkil topishi hamda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanish tarixi bilan uzviy bog'lanib ketadi. Toshkent vohasida chorvachilik ayniqsa dehqonchilik madaniyatining shakllanishining chuqur ildizlari esa o'z navbatida, bu o'lkada juda qadim zamonlardan beri yashab

kelgan aholining hayotiga va u yaratgan ibtidoiy madaniyatga borib taqaladi.

Ilk o'rta asrlarda Choch vohasi o'zining geografik joylasuviga ko'ra o'troq va ko'chmanchi hayot kechiruvchi etnoslar orasida aloqalar jadal kechgan o'lka sifatida gavdalanadi. Shu bois Markaziy Osiyodagi urbanistik jarayonlarni o'rganishda Choch vohasi tarixini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Vohaning ilk o'rta asrlar tarixini yoritish uchun o'sha paytda bu yerda mavjud bo'lgan joy nomlarini alohida o'rinn tutadi. Bu o'z navbatida o'sha davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti haqida tarixiy tasavvurlar berish bilan birga Choch vohasida qanday etnoslar yashaganligini aniqlashga yordam beradi.

Voha toponimikasi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular orasida V.V. Bartold, M.E. Masson, H. Hasanov, S. Qoraevlarning ishlari alohida ajralib turadi. Ayniqsa, Chochning qadimgi va ilk o'rta asrlardagi shahar hamda qishloqlarining o'rnini aniqlashda arxeolog Yu.F. Buryakovning tadqiqotlari alohida diqqatga sazovor.

Choch toponimlari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar tomonidan bu sohada samarali ishlar amalga oshirilgan va vohada mavjud joy nomlarining aksariyati ilmiy jihatdan izohlab berilgan. Tadqiqotchilarining e'tirof etishicha, vohadagi joy nomlarining salmoqli qismini turkiy va sug'diy nomlar tashkil etadi.

Choch vohasining ilk o'rta asrlardagi tarixi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular orasida fransuz xitoysunosi E. Shavann, rus olimlaridan V.A. Livshis, O.I. Smirnova, S.G. Klyashtorniy, o'zbekistonlik tarixchilar Yu.F. Buryakov, E.V. Rtveladze, M.I. Filanovichlar, A. Muhammaddinovning ishlari alohida ajralib turadi<sup>1</sup>. Ayniqsa, Yu.F.

---

<sup>1</sup> Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue (Turks) occidentaux. St.Pbg., 1903; Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.,1970; Лившиц В.А., Ртвеладзе Э.В. О монетных чеканах раннесредневекового Чача//У истоков древней культуры Ташкента. Ташкент, 1982; Кляшторний

Buryakovning tadqiqotlari o‘zining salmog‘i bilan diqqatga sazovor. Biroq, shu paytgacha Choch vohasining Turk xoqonligi davridagi tarixi alohida olinib, keng yorituvchi maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan.

Choch vohasining ilk o‘rta asrlar tarixiga doir ma’lumotlar asosan xitoy manbalaridan Bey-shi, Suy-shu (VII asr) va Tan-shu (X asr) yilnomalarida, qisman esa A-14 raqamli Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatida hamda arab-fors manbalaridan Balozuriy, Tabariy (IX asr), Istaxriy, Muqaddasiy, Ibn Havqal (X asr) kabi tarixchi va geograflar asarlarda saqlanib qolgan. Shuningdek, Choch vohasidan topilayotgan ilk o‘rta asrlarga taalluqli numizmatik materiallar ham vohaning bu davr tarixini yoritishga xizmat qiladi.

Ushbu manbalardagi ma’lumotlardan ma’lum bo‘lishicha, ilk o‘rta asrlarda Choch hozirgi Toshkent vohasidan tashqari Isfijob (Sayram), Nucheket (Chimkent), Tarband (O’tror) va Taroz shaharlarini o‘z ichiga olgan alohida hukmdorlik bo‘lgan. Bu davrda vohaning Choch shahri (Mingo‘rik xarobasi) iqtisodiy-madaniy, Tarband esa harbiy-siyosiy markazi bo‘lgan<sup>1</sup>.

VII asr boshlaridagi voqealar bayonida Bey-shi va Suy-shu yilnomalarida Shi (Choch) hukmdor Shi deb yuritilishi, hukmdorining ismi Nye ekanligi, Shi hukmdorlarining Turk xoqonligi hukmdorlaridan Sheguyxon (Jig xoqon<sup>2</sup>, Tarduning

---

С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. М., 1964; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Т., 1982; Ртвеладзе Э.В. Нумизматические данные к истории Чача//ОНУ, №6, Ташкент, 1982; Rtveladze E.V. Pre-Muslim Coins of Chach//Silk Road Art and Archaeology, 5, Kamakura 1997/98, P. 307-328; Мукминова Р.Г., Филанович М.И. Ташкент на перекрёстке истории (Очерки древний и средневековой истории города). Т., 2001; Мухаммаджонов А. Қадимги Тошкент. Т., 2002

<sup>1</sup> Гоибов Г. Ранние походы арабов в Среднюю Азию., Душанбе, 1989, с. 51

<sup>2</sup> Harmatta J. and Litvinsky B.A. Toharistan and Gandhara under Western Turk rule// History of Civilizations of Central Asia. Vol. III, Paris 1996, p. 369.

nevarasi; 610-618) bilan mojaroga borganligi va mag‘lu-biyatga uchratilganligi, oqibatda Sheguyxon bu yerning boshqaruviga Dele Tyanchji (Tegin Tyannji)ni tayinlanganligi, 609 yilda ushbu tegin Xitoya elchi yuborganligi qayd etiladi<sup>1</sup>. Tan-shu yilnomasida esa bu voqealar biroz boshqacharoq keltiriladi. Ya’ni, hukmdor Shi deb yuritilishi qayd qilinsa-da, uning ismi keltirilmaydi. Shuningdek, g‘arb turklarining 605 yilda bu yerning hukmdorini o’ldirib, boshqaruvga Dele Fuchji (Tegin Fuchji) tayinlagani zikr qilinadi<sup>2</sup>. Shu bilan birgalikda, ushbu yilnomaning boshqa joyida Kan (Sug‘d) hukmdorlari ham mansub bo‘lgan Chjaovu<sup>3</sup> xonadoni to‘qqizta hukmdorlik

---

<sup>1</sup> Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2, МЛ., 1950, с. 272-273, 282; Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. Тексты и исследование. Новосибирск, 1989, с. 166, 270, к. 638

<sup>2</sup> Бичурин Н.Я. Собрание сведений.., Т. 2-, с. 313; Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue.., р. 141.

<sup>3</sup> Чжаову хонадони ҳақида бир қанча фикрлар айтилган. Г. Гибб, Чжаову атамасига икки дарё оралиғида хукмронлик қилган сулола номи сифатида қараб, ушбу сулолани қадимдан эронийлашган, деб ҳисоблайди (Gibb H. Orta Asya’da Arap fütuhatı. İstanbul, 1930, s. 7). Баъзи тарихчилар эса Чжаовуни **ябғу** унвони билан тенглаштириб, юечжилардан қолган сўз тариқасида изоҳлайдилар (Смирнова О.И. Очерки из истории Согда., с. 30, 36). Кўпчилик тарихчилар бўлса, мазкур атаманинг Тан хонадони давридаги хитойча ўқилиши t’siämü bülganligiga асосланиб, уни мусулмон манбаларида Мовароуннаҳрнинг аслзодалари тарзида зикр қилинган «Жамук» тоифаси билан бир, деб қарайдилар (Смирнова О.И. Каталог монет с городища Пенджикент. М., 1963, с. 26; Peter B. Golden. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. Wiesbaden, 1992, р. 189). З.В. Тўғон фикрича, Жамук атамасининг асли туркий Чамук ёки Чумак бўлиб, хитой йилномаларида у чумугун шаклида Кўк Туркларнинг беш Дулу уруғининг бошида келган уруғ сифатида қайд қилингандир (Togan Z.V. Umumi Türk Tarihine Giriş. İstanbul, 1981, с. 51, 428). Табарий “Тарих ар-расул ва-л-мулук” асарида жамуклардан «улар эса туркларнинг улуғларидан» дея баҳс юритади («История» ат-Табари». Избрание отрывки (Перевод с арабского В.И. Беляева.

tarmog'iga bo'linganligi qayd etilib, ular quyidagicha keltiriladi; An (Buxoro), Sao (Ustrushona), Shi (Choch), Mi (Maymurg'), Xe (Kushoniya), Xosyun (Xorazm), Maodi (Vardona), Shi (Kesh)<sup>1</sup>. Bundan ko'rindiki, Turk xoqonligi ikki daryo oralig'ini va unga tutash hududlarni qo'lga kiritgan dastlabki paytlarda bu yerdag'i boshqa hukmdorlik singari Choch hukmdorlari ham Chjaovu xonadoniga mansub bo'lganlar.

Yuqorida keltirilgan uchala xitoy yilnomasidan ham ma'lum bo'ladiki, VII asr boshlarida Chochdagi ma halliy sulolaga bar ham berilib, uning o'rnida xoqonlik bilan bevosita aloqali boshqaruv joriy qilingan. Yu.F. Buryakov fikricha, shu paytdan boshlab vohadagi hokimiyat Turk xoqonligiga asos solgan Ashina urug'iga mansub noib qo'liga o'tadi<sup>2</sup>. Mazkur noib Dele Tyanchji ismining birinchi qismi Dele (Tegin)dan ham ko'rindiki, u xoqonlik hukmdor xonadoniga mansub bo'lgan. Ma'lumki, Turk xoqonligida shahzodalar «tegin» deb atalgan.

### **Tadqiqot manbalarining umumiyligi tavsifi va xos jihatlari**

Mavzuni yoritishda asosan arab hamda qisman fors va qadimgi turkiy manbalar va arxeologik manbalarga tayanildi. Tadqiqotda qo'llanilgan manbalar uch guruhga bo'lindi. Birinchi va ikkinchi guruhga yozma manbalar xronologik jihatdan turkumlashtiribdi. Uchinchi guruhni esa arxeologik materiallar tashkil qildi.

**Birinchi guruhni** arab tilidagi geografik asarlar tashkil qiladi. Ushbu asarlarni qo'llashda manbaning asl matni bilan

---

Дополнения к переводу О.Г. Большакова и А.Б. Халидова). Т. 1987, с. 253). Шуни таъкидлаш жоизки, чжаову атамаси бўйича бир қанча фикрлар билдирилган бўлишига қарамай ҳалигача ўз ечимини топмаган.

<sup>1</sup> Бичурин Н.Я. Собрание сведений.., Т. II-, с. 310; Chavannes E. Documents sur les Tou-Kiue., р. 134

<sup>2</sup> Буряков Ю. К истории раннесредневекового Чача//O'zbekiston tarihi, №3, 2002, с. 12

birgalikda rus, ingliz, nemis hamda turkiy tillarga qilingan tarjimalardan ham foydalanildi.

Quyida arab tilidagi geografik manbalar xronologik ketma-ketlikda izohlab o'tilgan.

### ***IX asr:***

- al-Xorazmiyning "Kitab surat al-ard" ("Erning surati") asari. Mazkur asar al-Xorazmiy tomonidan yaratilgan bo'lib, yunon olimi Ptolomiyning jug'rofiyaga oid kitobini arab tiliga tarjima qilgan va uni o'zining yangi ma'lumotlari bilan boyitgan<sup>1</sup>. "Kitobi surat al-ard" ("Er tasviri kitobi") asarida Kaspiy dengizi yoki Xorazm dengizi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Ushbu tarixiy jug'rofiyaga oid asardagi O'rta Osiyoga oid ma'lumotlar katta ilmiy ahamiyatga ega<sup>2</sup>. Kitobning 937 milodiy, hijriy 428 yili ko'chirilgan qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan, unga turli xaritalar chizib ilova qilingan. Ushbu qo'lyozma matni 1926 yili sharqshunos H.M.Mjik tomonidan Leypsigda nashr qilingan<sup>3</sup>. Kitobni o'zbek tiliga A.Ahmedov tarjima qilib, ilmiy sharhlar bilan 1983 yili chop etgan.

- Ibn Xurdadbehning "Kitab al-masalik va-l-mamalik" ("Mamlakatlar va yo'llar haqidagi kitob") asari.

Ushbu asar muallifi Ibn Xurdadbeh yoki Abulqosim Ubaydulloh Xurdadbeh (820 tax 913 y.) asli eronlik bo'lgan, u oliy martabali mansabdor xonardoniga mansub edi. Otasi IX asr boshlarida Tabariston hokimi bo'lib, Daylam viloyatini bo'ysundirib, xalifaning diqqat e'tiborini qozongan. Ibn Xurdadbeh Bag'dodda tahsil olgan va yuqori saviyada ta'lim olgan. U xalifa Mo'tamid (870-892 y.) davrida yuksak davlat lavozimlarini egallab turgan, dastlab

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 512.

<sup>2</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 62-б.

<sup>3</sup> Сираждинов С.Х., Матвиевская Г.П. Ал-Хорезми выдающийся математик и астроном средневековья. Москва, «Просвещение», 1983, с. 58.

Nadim, so'ng Eronning g'arbiy-shimoliy tarafida joylashgan Jibal viloyatida sohib barid va-l-xabar (pochta boshlig'i) lavozimida faoliyat olib borgan. Ibn Xurdadbeh turli mavzuda, adab, tarix, geografichga oid o'nga yaqin asar bitgan bo'lib, ulardan eng muhimi "Kitab masolik ul-mamolik" ("Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob") nomli asari bo'lib, u 846 yili yozib bitkazilgan<sup>1</sup>.

Asarning qisqartirilgan tahriri bizgacha yetib kelgan va M. de Gue tarafidan 1889 yili nashr qilingan. Rus tiliga tarjimasi (tarjimon Noila Velixanova) 1986 yili Bokuda nashr qilingan.

Kitob arab xalifaligi qo'l ostidagi mamlakatlar, shaharlar, ularga boriladigan yo'llar, shaharlar va mamlakatlar orasidagi masofa, aholidan undiriladigan soliq va jarimalarning miqdori haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, qadimiy So'g'd shaharlaridan Kushoniya (Samarqand atrofida joylashgan), Samarqand, Ustrushana, Shahriston (Ustrushana shaharlaridan), qadimgi Shosh, Isfijob (Sayram) shaharlarida aholi o'rtasida muomalada bo'lgan pul birligi, Nuh ibn Asad (vaf. 842 y.) va Ahmad ibn Asad (819-846 y.) davrida So'g'd va Farg'onaning umumiyligi ahvoli, Movarounnahr va Farg'onada IX asrda istiqomat qilgan turkiy xalqlar haqidagi ma'lumotlar benihoya ahamiyatga sazovor<sup>2</sup>.

- al-Yaqubiyning "Kitab al-Buldan"<sup>3</sup> "(Mamlakatlar haqida kitob") asari.

Asar ijodkori al-Ya'qubiy IX asrda o'tgan yirik geograf tarixchi olimdir. Ismi Abulabbos Ahmad ibn Abu Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vadih al-Kotib al-Abbosiy bo'lib, u yirik mansabdor xonadoniga mansubdir. Al-Ya'qubiy Bag'dodda tug'ildi, lekin umrining ko'p qismini Armaniston, Xuroson,

---

<sup>1</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 65-б.

<sup>2</sup> Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. IV-том. Москва-Ленинград, 1957, с. 147.

<sup>3</sup> ياقوت الحموي، "معجم البلدان"، دار صادر، بيروت، 1977 م.

Falastin, Misr va Mag'ribda o'tkazdi. Al-Ya'qubiyning ikki yirik va muhim asari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Biri "Kitab al-buldon" ("Mamlakatlar haqida kitob"), ikkinchisi esa "Tarix" nomi bilan shuhrat qozongan. "Kitob al-buldon" (taxminan 891 yilda yozilgan) to'rt qismdan iborat. Asarda arablar qo'l ostidagi mamlakatlarning geografik holati, yirik shaharlar va qal'alari, aholisi va uning asosiy mashg'uloti, urf-odatlari, o'sha mamlakatdan olinadigan xirojning umumiy miqdori haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ushbu asarning ikki noyob qo'lyozmasi Germaniya kutubxonalarida saqlanmoqda<sup>1</sup>. Kitobning arabcha matni gollandiyalik mashhur sharqshunos M.de Gue (1836-1909 y.) tomonidan 1892 yili Leydenda chop etilgan. Al-Ya'qubiyning ikkinchi asari "Tarix" umumiy tarix tipida yozilgan bo'lib, Sharq mamlakatlari, shuningdek O'rta Osiyoning VII-IX asrlardagi tarixi bo'yicha muhim manballardan biri hisoblanadi. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, Odam Atodan islomgacha bo'lgan va musulmon mamlakatlari tarixlari, ya'ni o'sha mamlakatlarda 873 yilgacha sodir bo'lgan voqealar bayon etilgan. "Tarix"ning arabcha matni 1883 yili gollandiyalik olim M.T.Xautsma (1851-1943 y.) tomonidan nashr etilgan<sup>2</sup>.

### X asr:

- Ibn al-Faqihning "Kitab axbor ul-buldon" ("Mamlakatlar haqida xabarlar") asari.

Ibn al-Faqih "Kitab axbor ul-buldon"<sup>3</sup> ("Mamlakatlar haqida xabarlar") asari bilan mashhur bo'lgan tarixchi ulamolardan biridir. Uning to'la ismi Abubakr Ahmad ibn Muhammad al-Hamadoniydir. Ushbu asaridan (taxminan 903 yili yozilgan) ma'lum bo'lishicha, u xalifalardan al-

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 490.

<sup>2</sup> Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 63-б.

<sup>3</sup> ابن الفقيه، "البلدان"، عالم الكتب، بيروت، 1996 م.

Mo'tadid (892-902 y.) va al-Muqtafiy (902-908 y.)lar bilan zamondosh bo'lgan. "Kitab al-fihrist" muallifining so'zlariga qaraganda, Ibn al-Faqih o'z zamonasining atoqli adiblaridan bo'lib, naql-rivoyat va adabiyotni yaxshi bilgan. "Kitob axbor ul-buldon" asari siyosat, tarix va madaniy hayotga oid materiallarga boydir<sup>1</sup>. Ibn al-Faqihning ayniqsa yirik shaharlar, Balx, Samarqand va boshqalar haqida keltirgan ma'lumotlari nihoyatda ahamiyatga molik. "Kitab axbor ul-buldon"ning Ali ibn Ja'far ash-Shayzoriy tarafidan bajarilgan (1022 y.) qisqa tahriri de Gue tomonidan 1885 yili Leydenda chop etilgan<sup>2</sup>. Ushbu asarning noyob qo'lyozmasi, aniqrog'i uning ikkinchi qismi, 1923 yili Mashhaddagi (Eron) Imom Rizo masjidi kutubxonasidan topildi. Unda Eron hamda Movarounnahrning iqtisodiy va tarixiy geografiyasiga oid diqqatga sazovor axborotlar bor.

- Ibn Rustanining "Kitab al-a'lak an-nafisa" ("Qimmatbaho toshlar haqida kitob") asari.

- Qudama ibn Ja'farning "Kitab al-xaraj va san'at al-kitaba"<sup>3</sup> ("Xiroj va kotiblik san'ati haqidagi kitob") asari.

Asar muallifi Abulfaraj Qudama, filolog va geograf olimdir. Uning to'la ismi Abulfaraj ibn Ja'far Qudama al-Basriy al-Bag'dodiy. U aslzoda bo'lib, avval nasroniy bo'lgan, saroy xizmatiga qabul qilingandan keyin xalifa al-Muqtafiyning ta'siri ostida islom dinini qabul qilgan<sup>4</sup>. Dastlab ma'muriy mahkamalardan birida (majlis az-zimam) xizmat qilgan, umrining so'ngida esa aloqalar devoniga (devoni sohib barid) boshchilik qilgan.

Abulfaraj Qudama 928 yili "Kitab ul-xiroj va san'at al-kitoba" ("Xiroj undirish va maktublar yozish san'ati haqida

<sup>1</sup> Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. IV-том. Москва-Ленинград, 1957, с. 156.

<sup>2</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 64-б.

<sup>3</sup> قدامة بن جعفر، "الخراج و صناعة الكتابة"، دار الرشيد للنشر، بغداد، 1981 م.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 157.

kitob") nomli ikki jildlik (8 qismdan iborat) asar yozgan. Mazkur asar arab xalifaligining ma'muriy bo'linishi, xalifa-likka tobe bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi aloqa xizmati, soliq va moliya tizimining umumiyligi ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi.

"Kitab ul-xiroj va san'at al-kitoba" asarida Movaroun-nahrning geografik holati va uning turkiy aholisi haqida ham muhim daliliy ma'lumotlarni uchratamiz. Kitobning faqat ikkinchi jildigina saqlanib qolgan. Uning ayrim parchalari fransuzcha tarjimasi bilan M.Ya. de Gue tarafidan 1889 yili nashretilgan<sup>1</sup>.

- al-Mas'udiyning "Kitab at-tanbix va-l-ishraf" asari.

Bu kitob al-Mas'udiy yoki Abulhasan Ali ibn al-Mas'udiy (vaf.956 y. Qohira) X asrning ko'zga ko'ringan geograf va tarixshunos olimi asaridir. Muallif IX asr oxirlarida Bag'dodda amaldor oilasida dunyoga kelgan. Juda ko'p (915-945 y.) sayohatlar uyushtirgan, turli o'lkalarda bo'lib, adabiyot, san'at, falsafa, fiqh, hadisshunoslik, jug'rofiya va tarix ilmlari bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lib, xususan Movarounnahrda bo'lganda shahrlar va aholi haqida qimmatli ma'lumotlar jamlagan.

Al-Mas'udiy ilmning turli sohalariga oid "Kitab axbor uz-zamon va ajoyib ul-buldon"<sup>2</sup> ("Davr xabarlari va mamlakatlarning ajoyibotlari haqida kitob"), "Kitab ul-avsat" ("O'rtacha kitob"), "Kitob at-tavorix fi axbor al-umum min arab va-l-ajam" ("Arab va Ajam xalqlari tarixi"), "Xazoin ul-muluk va sirr al-olamayn" ("Podshohlarning xazinalari va ikki olam sirlari"), "Kitob ar-rasoil" ("Risolalar to'plami"), "Kitob at-tanbih, va-l-ishraf" ("Ogohlantirish va ishontirish haqida kitob") kabi 20 dan ziyod asar yozib qoldirgan<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 68-б.

<sup>2</sup> المسعودي، "أخبار الزمان"، مطبعة عبد الحميد احمد حنفى، دمشق، 1938 .م

<sup>3</sup> Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. IV-том. Москва-Ленинград, 1957, с. 174.

Al-Mas'udiyning asarlari arab xalifaligi, Mavaroun-nahrning IX-X asrlar tarixini o'rganishda zo'r ahamiyatga ega. Ular o'ziga xos geografik qomus bo'lib, jahon xalqlari va turkiy xalqlarning tarixi, ijtimoiy-siyosiy ahvoli, urf-odatlari haqida boy ma'lumotga ega.

Tarixchining yana "Muruj az-zahab va ma'dan al-javohir"<sup>1</sup> ("Oltin tozalagich va qimmatbaho toshlar koni") nomli asari ham bor. Bu kitobning arabcha matni fransuzcha tarjimasi bilan birga, 1861-1877 yillari Parijda to'qqiz jilda nashr etilgan<sup>2</sup>.

- Istanriyning "Kitab al-masalik va-l-mamalik"<sup>3</sup> ("Mamlakatlar va yo'llar haqidagi kitob") asari.

Ushbu asar muallifi Istanriy yoki Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy (850-934) nomi bilan mashhur bo'lgan sayyoh va geograf olimdir. U 915 yildan boshlab Eron, Mavarounnahr, Suriya, Misr va Mag'rib kabi o'lkalarda sayohat qilgan. Mana shu sayohatlari davomida jamlangan boy daliliy material va zamondoshi Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al-Balxiyning (850-934 y.) "Suvar al-aqolim" ("Iqlimlar surati") asari asosida 930-933 yillari o'zining "Kitab masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga boriladigan yo'llar haqida kitob") nomli beqiyos asarini yaratgan.

Asar yigirma bobdan iborat. Unda musulmon mamlakatlari Arabiston, Mag'rib, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Mavaroun-nahr), shuningdek, Hindistonning chegaralari, iqlimi, ma'muriy bo'linishi, mashhur shaharlari, ularga olib boriladigan yo'llar, aholisi va uning mashg'uloti, atoqli kishilari, savdo-sotiq va boshqa masalalar bayon etilgan.

"Kitob masolik ul-mamolik" asarining asl matni uch marta 1870, 1927 va 1967 yillari Leydenda chop etilgan. U

<sup>1</sup> المسعودى، "مروج الذهب و معادن الجوهر"، المكتبة العصرية، بيروت، 2005 م.

<sup>2</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 68-б.

<sup>3</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. – قاهرة، 1961.

Abulmahosin Muhammad ibn Sa'd ibn Muhammad an-Naxchivoniy tarafidan XVI asrning ikkinchi yarmida fors tiliga tarjima qilingan, qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg va Toshkentda saqlanmoqda<sup>1</sup>.

- Ibn Havqalning "Kitab surat al-ard"<sup>2</sup> ("Erning surati") asari.

Ushbu asarning muallifi Ibn Havqal (vaf. 976 y.)dir. U o'z davrining ko'zga ko'ringan yirik geograf olimi va sayyohidir. Muallifning to'la ismi Abulqosim ibn Havqal an-Nasibiy bo'lib, Shimoliy Mesopotamiyada joylashgan Nisibin shahridan kelib chiqqan.

Ibn Havqal 943 yildan boshlab savdogarlik maqsadida turli yurtlar, ya'ni Markaziy Afrika, Ispaniya, Italiya, Eron, Hindiston bo'y lab sayohatlarda bo'lgan. U Istaxriy bilan shaxsan uchrashgan. Uchrashuv vaqtida Istaxriy go'yoki undan o'z asaridagi xato va chalkashliklarni xalos qilish va qaytadan ishlashni taklif etgan.

"Men uning kitobidagi bir emas, bir necha xaritalarni tuzatdim, yangiladim, so'ng ushbu o'z kitobimni yozishga qaror qildim. Istaxriy kitobida uchragan xatolarni tuzatdim, asarimga bir nechta (yangi) xaritalarni qo'shdim va ularni izohlab berdim" — deb yozadi Ibn Havqal<sup>3</sup>.

Ibn Havqalning asari "Kitab ul-masolik va-l-mamolik" ("Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob") yoki qisqacha "Kitab surat al-arz" ("Erning surati") nomi bilan mashhur bo'lib, Hamadoniylardan Sayfulla Ali I ga (945-967 y.) bag'ishlab yozilgan. Uni yozishda muallif sayohatlari davomida jamlagan, savdogarlardan so'rab-surishtirib jamlagan ma'lumotlaridan hamda Ibn Xurdodbeh, al-Jayhoniy, Qudama asarlaridan foydalangan. Kitobda tavsiflangan har bitta yurt

---

<sup>1</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 69-б.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م.

<sup>3</sup> Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. IV-том. Москва-Ленинград, 1957, с. 198.

va viloyatning xaritasi ham keltirilgan. Masalan, Movaroun-nahr qismiga ilova etilgan xaritada Jayhun (Amudaryo), Buxoro, Samarqand, Usrushana (O'ratega), Ispijob (Sayram), shosh va Xorazm shaharlari va viloyatlari tasvirlangan<sup>1</sup>. Asarda turkiy va g'uzzlar, ularning mashg'ulotlari, shuningdek, Movarounnahr shaharlari, aholisi haqida keltirilgan ma'lumotlari nihoyatda qimmatlidir.

"Kitab ul-masolik va-l-mamolik" asarining arab tilidagi matni 2 marta M.Ya. de Gue (1878) hamda Kramers tomonlaridan (1938-1939) nashr etilgan. Kramers tanqidiy nashri (u 1086 yili ko'chirilgan va hozir Istambulda saqlanayotgan qo'lyozmaga asoslangan) birmuncha qimmatli nashr sifatida qadrlanadi<sup>2</sup>.

- al-Muqaddasiyning "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim" ("Iqlimlarni o'rganishda taqsimotning afzali") asari.

"Ahsan at-taqosim" yoki "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim"<sup>3</sup> ("Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma") nomli asar muallifi X asrning yirik geograf olimi al-Muqaddasiy hisoblanadi. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abubakr al-Muqaddasiydir. Olim 947 yili Quddusda tug'ilgan, butun dunyo musulmon davlatlari bo'ylab sayohat qilgan va 1000 yili vafot etgan.

Al-Muqaddasiy sayohat davomida jamlagan hamda boshqa manbalardan olingan aniq materiallar asosida 985 yili o'zining qimmatli asarini yozib qoldirgan<sup>4</sup>. Kitobning ikkita nashri mavjud. Birinchi tahriri 986 yilda amalga oshirilgan bo'lib Somoniylarga, 989 yilgi ikkinchisi esa Fotimiylarga bag'ishlab yaratilgan.

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 520.

<sup>2</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 70-б.

<sup>3</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبلوى، القاهرة، 1991 م.

<sup>4</sup> Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. IV-том. Москва-Ленинград, 1957, с. 211.

Asar muqaddima va ikki qismdan iborat. Muqaddimada muallif asarning yozilish tartibini bayon etgan va o'zidan avval o'tgan geograf olimlarning asarlariga to'xtalib o'tgan.

Birinchi qismda arab mamlakatlari, Arabiston yarim orolida joylashgan mamlakatlar Iroq, Mesopotamiya, Suriya, Misr, Mag'rib hamda Kichik Osiyoning geografik holati, mashhur shaharlari, osori atiqalari, aholisi va uning mashg'uloti, e'tiqodi hamda urf-odatlari, aholidan to'plana-digan soliq va jarimalar va ularning umumiy hajmi, shuning-dek, har bir mamlakat va viloyatning ma'muriy tuzilishi hamda mashhur kishilari haqida ma'lumot berilgan.

Ikkinci qismda Ajam mamlakatlari Xuroson, Seiston va Mavarounnahr tavsiflangan<sup>1</sup>.

"Ahsan at-taqosim" ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy hamda madaniy hayotga oid qimmatli aniq ma'lumotlari bilan boshqa geografik asarlardan ajralib turadi va arab mamlakatlari, shuningdek, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tarixini o'rganishda muhim manba bo'ladi.

Asarning arabcha matni de Gue tomnidan 1877 yili chop etilgan edi. U yana 1906 va 1967 yillarda ham qayta nashr etilgan.

### **XI asr:**

- Beruniyning "al-Qanun al-Mas'udiy"<sup>2</sup> ("Mas'ud qonuni"), "Geodeziya" va "Hindiston" asarlari.

Ushbu benazir asarlar muallifi qomusiy olim Abu Rayhon Beruniydir (973-1048). U tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha 150 dan ziyod kitoblar yozib, asosan tabiiy fanlar sohasida ulkan kashfiyotlarga va muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy fan, ayniqsa tarix to'g'risidagi chuqur bilimlarini "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") hamda "Hindiston" yoki "Kitab tahqiq molil-Hind min manqula fi-l-

---

<sup>1</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 70-б.

<sup>2</sup> ابو الريحان البيرونی، "القانون المسعودي"، مجل (3)، بيروت، 1954 م.

aql va-l-marzuma” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarining tadqiq etish”) va “Kitab ul-musammara fi axbori Xvarazm” (“Xorazm haqidagi axborotlar haqida suhbatlar”) nomli asarlari bilan tarix va madaniyat tarixiga katta hissa qo’shgan<sup>1</sup>.

Asar 1000 yili Jurjon shahrida yozib bitkazilgan. Unda qadimgi O’rta Osiyo, Yunon, Eron, Hind, nasroniy, yahudiy va boshqa elatlarning islomgacha bo’lgan tarixi, urf-odatlari, bayramlari va asosan vaqtini hisoblash taqvim-xronologiya to‘g’risida mukammal axborot bergen. Ushbu asarning XIV asrda yozilgan qimmatli qo’lyozmasiga nodir asarlar ishlangan va bu noyob san’at obidasi Shotlandiya poytaxti Edinburg shahri Universiteti kutubxonasida 161 raqam bilan saqlanmoqda.

“Osor ul-boqiya”ning ruscha va o’zbekcha nashrlari Toshkentda 1957 va 1968 yillari nashr etilgan. Kitob Yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhurdir.

Beruniyning Xorazm tarixiga bag‘ishlangan asari yuqorida zikr etilgan nomdan tashqari, yana “Tarixi Xorazm” va “Mashohiri Xorazm” (“Xorazmning mashhur kishilari”) nomlari bilan ham shuxrat qozongan bo‘lib, uning ayrim lavhalari – parchalari Abulfazl Bayhaqiyning 1056 yili yozib bitkazilgan “Tarixi Bayhaq” va Yoqut Hamaviyning “Mo”jam ul-buldon” asarlarida saqlanib qolgan<sup>2</sup>.

Beruniyning “Kitob fi axborot al-mubayyizot val-karomita” (“Oq kiyimlilar va karmatlarning xabarlari haqida kitob”) asari ham tarix ilmi uchun alohida qiymatga ega. Unda o’sha zamondarda O’rta Osiyoda keng tarqalgan ijtimoiy harakat – karmatlar harakati haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar bor. Beruniyning asarlarida tarix ilmi uchun ma’lumotlar juda ko‘p uchraydi, ammo ulardan

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 510.

<sup>2</sup> Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 81-б.

tashqari nomi zikr qilingan asari uning yirik tarixchi olim, etnograf bo'lganligini ko'rsatadi.

- al-Bakriyning "Kitab mu'jam ma istajam"<sup>1</sup> ("Arab bo'limganlar haqidagi kitob") va "Kitab al-masalik va-l-mamalik"<sup>2</sup> ("Mamlakatlar va yo'llar haqidagi kitob") asarlari.

- noma'lum muallif qalamiga mansub "Kitab g'arayib al-funun va mulax al-uyun" ("Fanning g'aroyibotlari va mo'jizalari haqidagi kitob") asari.

Mana shu davrda yaratilgan "Kitab g'arayib al-funun va mulax al-uyun" كتاب غرائب الفنون و ملح العيون asari O'rta asrlar Sharq tarixi, tarixiy geografiyasi hamda xaritashunosligini o'rganish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarning muallifi noma'lum va hozirgi kunga qadar aniqlanmagan. Qo'lyozma qator qadimgi xaritalar va astronomik diagrammalarni o'z ichiga oladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu xarita va diagrammalarning aksariyati hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan yunon, lotin va boshqa arab manbalarida uchramaydi. Asar "Kitab g'arayib al-funun va mulax al-uyun" deb nomlanib, o'zbek tiliga "Fanning g'aroyibotlari va mo'jizalari haqidagi kitob" tariqasida tarjima qilinadi.

Qo'lyozmaning 1a-sahifasidagi asar sarlavhasi tagidagi yozuvga hamda birinchi kitobning ikkinchi bobi (6a-sahifa) va ikkinchi kitobning 15-bob (36b, 37a-sahifa)lariga asoslanib muallifning "Al-Kitab al-Muhit" nomli yana bir asari borligi haqidagi ma'lumotga egamiz.

"Kitab g'arayib al-funun va mulax al-uyun" asarining asl nusxasida hayvonlar, otlar, tuyalar va ov haqidagi boblar ham mavjud bo'lib, bu boblar nima uchundir keyin ko'chirilgan nusxalarga kiritilmagan.

Asarning 5 kitobdan iborat ekanligini Damashqning Maktabat al-Asad al-Vataniya kutubxonasida MS 16501

<sup>1</sup> البكري الاندلسي، "معجم ما استعجم من اسماء البلاد و المواقع"، عالم الكتب، بيروت، 1945 م.

<sup>2</sup> البكري الاندلسي، "المسالك و الممالك"، الدار العربية للكتاب، دمشق، 1992 م.

raqami ostida saqlanayotgan shu nomdagi asar orqali bilish mumkin. "Kitab g'arayib al-funun va mulax al-uyun" asarining bu nusxasi 5 kitobdan iborat bo'lib, qo'shimcha yana uch kitobda Bodlean kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozmaga kiritilmagan boblar ham saqlangan. Biroq, Damashq nusxasining 1- va 2-kitoblari MS. Arab. c. 90 nusxasi bilan solishtirganda to'liq emasligi seziladi. Mazkur nusxada ko'plab xarita, sxema va tasvirlar yetishmaydi. Shuningdek, ushbu qo'lyozmada 4-bob to'liqligicha, 5-bobning boshlanishi hamda 9-10 boblarning ayrim qismlari yetishmaydi. Bu nusxada mavjud xarita va tasvirlar MS. Arab. c. 90 nusxasidan farqli ravishda rangsiz tarzda tasvirlangan. Ikkinci kitob 25 bobdan iborat. Muallifning shaxsiy fikriga ko'ra mazkur ikkinchi kitobning ayrim qismlari Ptolemeyning "Geografiya" asariga asoslanadi. Asarda muallif tarixiy geografik matnlarga dunyoning ikki xil xaritasini ilova qiladi. Ularning biri to'g'ri to'rtburchak shaklida (23b-24a-sahifalar), ikkinchisi esa doira shaklida (27b-28a-sahifalar) tasvirlangan. So'ng o'sha davrda ma'lum bo'lgan dengizlar, Hind okeani, O'rta yer dengizi va Kaspiy dengizi xaritalarini keltiradi. Muallif O'rta yer dengizi sohillari tasvirlariga alohida e'tibor qaratgan (muallifning o'zi shu yerlardan bo'lsa kerak, degan taxminlar ham mavjud). Bundan tashqari, asarda O'rta yer dengizi orollarining mufassal sxema (xarita)si (30b-31a-sahifalar), Sitsiliya va Kipr orolining noyob xaritasi (32b-33a-sahifalar), shuningdek, Shimoliy Afrika, Tunis va Misrning savdo markazlari xaritalari berilgan. Muallif asarga 5 ta daryo - Nil (42a-sahifa), Frot (42b-sahifa), Dajla (43a-sahifa), Amudaryo (44a-sahifa) va Hind (43b-sahifa) daryolarining xaritalarini kiritgan.

Shu bilan birga, asarda Kaspiy dengizi, Issiq ko'l, Amudaryo oqimi havzalaridagi qadimgi markazlar – Xorazm va Movarounnahrning boshqa hududlari haqida ma'lumotlar mavjudligi diqqatga sazovordir. Asarning dunyodagi ko'llar haqidagi 17-bobida Orol dengizi haqida so'z yuritilib, uning

eni bir oylik yo'lga tengligi, suvining juda sho'rligi, o'sha davrda turk g'uzlariga qarashli yerlarda joylashganligi va dunyodagi eng katta ko'l ekanligi ta'kidlangan. Asarning daryolarning joylashuvi va ularning izohlariga bag'ishlangan 19-bobida Amudaryo xaritasi ham tasvirlangan. Xaritashunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Amudaryo xaritasining ilmiy qimmati beqiyos, zero bungacha daryoning alohida xaritasi tasvirlanmagan va bu kabi ma'lumotlar boshqa birorta geografik asarda uchramaydi. Xaritada daryo o'rta asr sharq xaritashunoslige zid bo'limgan ravishda "Nahr al-Jayhun" deb nomlanganligini ko'rish mumkin. Xaritada daryoning quyi oqimlari tasvirlangan qismining o'ng tarafida, markazdagi ko'lga yana bir daryo kelib quylishi tasvirlangan. Bu Sirdaryo bo'lib, o'rta asrlarda u Sayhun deb atalgan. Sayhunning shimol va janub tomonlarida ham bir qancha joy nomlari yozilgan. Bular Xuvora (Jand), Al-Qariya Al-Xadisa, Maro'i ash-Shosh, va Bilad al-G'arib al-Atrok, ya'ni qadimgi turklarning mamlakati deb berilgan.

### **XII asr:**

- al Idrisiyning "Nuzhat al mushtoq fi-xtiroq al-afoq" yoki "Kitab ar-Rujor" ("Rujor kitobi") asari.

"Nuzhat al-mushtoq" yoki "Nuzhat al-mushtoq fi xtirak ul-ofiq"<sup>1</sup> ("Jahon bo'y lab kezib holdan toyganning ovunchog'i") nomli asarini o'z davrining mashhur sayyohi va geograf, tarixchi olimi Al-Idrisiy yozgan. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Idris al-Idrisiydir.

Al-Idrisiy 1100 yili Marokashning Seut shahrida tug'ilgan bo'lib, Ispaniyaning Kordoba shahrida tahsil olgan, Portugaliya, Fransiya, Angliya va Kichik Osiyo bo'y lab qilingan safaridan so'ng, 1138 yili Palermo shahriga keladi va Sisiliya qiroli Rojer 11 (1130-1154 yy.) xizmatiga kirib, uning topshirig'i bilan o'zining "Nuzhat al-mushtoq" asarini yozib bitkazgan. Olim 1165 yili vafot etgan. "Nuzhat al-

---

<sup>1</sup> الإدريسي، "نزهة المشتاق في اختراق الفاق"، مكتبة الثقافة الدينية، القاهرة، 1962 م.

mushtoq” yetti iqlim mamlakatlarining, ya’ni dunyoning geografik holatidan bahs yuritadigan asar hisoblanadi. Uning ayniqsa Shimoliy Afrika, Italiya, Fransiya, Germaniya shuningdek Markaziy Osiyoga oid qismlari qimmatga ega. Kitobning matni 1592 yili Rimda nashr etilgan. Lotin tiliga tarjimasi 1619 yili Parijda bosib chiqarilgan<sup>1</sup>.

### **XIII asr:**

- Yoqut al Hamaviyning “Mu’jam al buldon” asari.

Mashhur qomusiy kitob “Mo”jam ul-buldon”<sup>2</sup> muallifi ajoyib sarguzashtlarni o’z boshidan kechirgan olim, sayyoh va xattot Yoqut Hamaviy hisoblanadi (1179 y. tug’.). U asli Kichik Osiyolik (Rum) qul bo’lgan. Otasining ismi nima ekanligini bilmagani sababli o’zini Ibn Abdulloh (Tangri qulining o’g’li) deb nomlagan. Bolalik vaqtida asirlar bilan birga Bag’dodga olib kelingan va uni Hama shahrida (Suriya) Askar ibn Ibrohim al-Hamaviy ismlik savdogar sotib olib, unga Yoqut deb nom beradi. Mazkur asarning ham Markaziy Osiyoga oid qismlari qimmatga ega.

- al-Qazviniyning “Asar al-bilad va axbar al-i’bad”<sup>3</sup> (“Mamlakatlar asorlari va Alloh bandalari haqida xabarlar”) asari

**Ikkinchи guruhni** umumiylar tipida yozilgan asarlar hamda qomusiy asarlar tashkil qiladi. Ushbu manbalarni qo’llashda ham manbaning asl matni bilan birgalikda rus, ingliz, nemis hamda turkiy tillarga qilingan tarjimalardan foydalanildi.

Quyida arab tilidagi umumiylar tipida yozilgan asarlar hamda qomusiy manbalar xronologik ketma-ketlikda izohlab o’tilgan.

### **IX asr:**

- Balazuriyning “Kitab futuh al-buldon” (“Mamlakatlar-ning zabit etilishi”) asari.

---

<sup>1</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 76-б.

<sup>2</sup> ياقوت الحموي، "معجم البلدان"، دار صادر، بيروت، 1977 م.

<sup>3</sup> القزويني، "أثار البلاد و أخبار العباد" دار صادر، بيروت، 1956 م.

“Kitab futuh al-buldon” (“Mamlakatlarning fath etilishi”) IX asrda o’tgan yirik geograf va tarixchi olimi Balazuriy (vaf. 892 y.)ning asari. Muallif qomusiy olimlardan biri hisoblan-mish Madoiniyning shogirdi bo’lgan. Uning to’la ismi Abubakr Ahmad ibn Yax’yo Jabir al-Balazuriy, asli eronlik Abbosiylardan al-Mutavakkil (847-861 y.) va al-Musta’in (862-866 y.) saroyida tarbiyachi bo’lib faoliyat olib borgan.

Balazuriy ikki yirik asar “Kitab futuh al-buldon” va “Kitob al-ansob ao-sharif” (“Sharofatli kishilarning nasablari haqida kitob”ning muallifi.

“Kitab futuh al-buldon” arab fathlari tarixi bo'yicha eng yaxshi asarlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Faqat shu asarda arablarning xalifa Usmon (644-656 y.) va uning Xurosondagi noibi Abdulloh ibn Amr davrida Movarounnahrga bir necha bor kirganliklari va Maymurg’ni (Samarqand tumanlaridan biri) fath etganliklari haqida ma'lumot bor<sup>1</sup>.

Asarda arablar ta'siriga tushib qolgan mamlakatlar, ularning diqqatga sazovor shaharlari va osori-atiqalari, xalqi, pul muomalasi, undiriladigan soliklar, shuningdek arab tilining joriy etilishi haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlarni uchratamiz mumkin.

“Kitab futuh al-buldon”ning faqatgina qisqacha tahriri yetib kelgan. Arabcha matni de Gue tomonidan 1866 yili Leydenda nashr etilgan. Uning ingliz tiliga tarjimasi (tarjimonlar Xitti va Murgotten) ham mavjud. Balazuriyning ushbu asarining to'liq shakli Yoqt va Ibn al-Asir asarlari uchun qimmatli manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

- at-Tabariyning “Tarixi ar-rusul va-l-muluk” asari.

Bu kitob muallifi yirik qomusiy olim Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (836-923 y.) hisoblanadi. U Eronning Tabariston viloyatiga qarashli Omul shahrida tug'ilgan bo'lib, umrining asosiy qismini Bag'dodda o'tkaz-gan va shu shaharda vafot etgan. Tarixchi olim xalifalikning

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 544.

ko'p shaharlarini sayohat qilib chiqqan, birmuncha vaqt Ray, Basra, Kufa, Suriya va Misrda yashagan.

Tabariy o'z davrining ma'lumotga boy kishilaridan bo'lib, o'ndan ortiq asar yozib qoldirgan. Musulmon qonunshunoslari orasida mavjud bo'lgan ixtiloflar bayon etilgan "Kitab ixtilof al-fuqaho" ("Faqihlar o'rtasidagi ixtiloflar haqida kitob"), "Qur'oni karim" oyatlari sharhiga bag'ishlab yozilgan o'ttiz (boshqa ma'lumotlarga qaraganda qirq) jilddan tashkil etuvchi "Jome' al-bayon at-ta'vil al-Qur'on" ("Qur'on" so'zlari ma'nosining keng bayoni maj-muasi") va nihoyat, "Tarixi ar-rusul va-l-muluk" ("Payg'ambarlar va podshohlar tarixi") ana shular jumlasidandir. Tarixiy ilmlar uchun eng muhimi va qimmatlisi so'nggi asar hisoblanadi<sup>1</sup>.

"Tarixi ar-rusul va-l-muluk" yoki qisqa nomi "Tarixi Tabariy" asari umumiylar tarix janrida yozilgan asardir. Lekin mukammalligi va daliliy materiallarga egaligi bilan boshqa asarlardan tamoman alohida ajralib turadi<sup>2</sup>.

Asarda dunyoning "yaratilishi"dan to 912-913 yillar-gacha Arabiston, Rum (Kichik Osiyo), Eron va Arab xalifaligi ta'siriga tushib qolgan mamlakatlarda, shuningdek Mova-rounnahr hududida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar hikoya qilingan. Voqelar yilma-yil, xronologik tarzda bayon etilgan bo'lib, bu esa asardan foydalanishda ko'p jihatdan qulaylik yaratadi. Tabariy mazkur asarini yozishda yahudiy va xristianlarning naql-rivoyatlari, Sosoniylar (224-651 y.) solnomasi "Xvaday namak" ("Podshohnoma"), al-Voqidiyning (747-823 y.) "Kitob ul-mag'oziy" ("Urushlar haqida kitob"), al-Madoiniyning "Tarixi xulafo" ("Xalifalar tarixi"), Ibn Tayfurning (819-893 y.) "Tarixi Bag'dod" ("Bag'dod tarixi") kabi kitoblardan keng foydalanganligi haqida

---

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 211.

<sup>2</sup> Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 65-б.

ma'lumotlar mavjud. Lekin u aksariyat hollarda "Hadis ilmi" prinsipiga ko'ra, ayniqsa asarning qadimiy tarixiga bag'ishlangan qismlarida boshqa manbalardan olingan dalil va ma'lumotlarni aynan keltirib o'tgan.

Kitobning qadimiy tarixdan bahs yurituvchi qismlari ham ma'lum ilmiy qiymatga ega, chunki bularda bizgacha yetib kelmagan manbalarda (rivoyatlar, "Xvaday namak", "Tarixi xulafo" va boshqalar) mavjud bo'lgan qimmatli ma'lumotlar, lavhalar saqlanib qolgan.

"Tarixi ar-rusul va-l-muluk" musulmon yurtlari, shuningdek Movarounnahrning VIII-IX asr tarixiga oid asosiy va eng qimmatli manbalardan biri bo'lib, tarix ilmining keyingi taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan. Mazkur asarning arab tilidagi ikki xil (mufassal va qisqartirilgan) tahriri mavjud bo'lgan, lekin bizgacha uning faqat qisqartirilgan shakli yetib kelgan va asar matni gollandiyalik sharqshunos M.Ya. de Gue tomonidan 1879-1901 yillari 15 jilda chop etilgan.

Tabariy asarining fors tilidagi tahriri ham bor bo'lib, u Somoni Abu Solih Mansur ibn Nuhning (961-976 y.) vaziri, atoqli ilm-fan rahnamosi al-Bal'amiy (vaf. 974 y.) tomonidan 963 yilda yozib bitkazilgan.

Bal'amiy nashri shunchaki oddiy tarjima emas, balki kitobning qayta ishlangan va ayrim holatlarda yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan variantidir.

Unda, birinchidan, qisqartirilgan tahririda uchramaydigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularni Bal'amiy Tabariy asarining to'la shaklidan olgan hisoblanadi.

Ikkinchidan, Bal'amiy asari boshqa manbalar asosida yangi ma'lumot, fakt va axborotlar bilan to'ldirilgan.

Tabariyning ushbu asari ayrim parchalar ko'plab Yevropa tillariga tarjima qilingan. Uning to'liq fransuz tiliga tarjimasi G.Zotenberg tarafidan 1867-1874 yillarda Parijda chop etilgan.

Asarning forsiy va turkiy tillariga tarjimalari ham mavjud bo'lib, ularning noyob qo'lyozma nusxalari Sankt-Petburg va

Toshkent kutubxona fondlarida saqlanmoqda. Bal’amiy tahririning matni to’liq tarzda Lakxnav, Kanpurda (1874, 1896, 1916 y.) va Tehronda (1962, 1967 y.) nashr etilgan.

“Tarixi ar-rusul va-l-muluk” kitobining qo’lyozma nusxalari MDH, Angliya, Turkiya, Eron va Hindiston kutubxonalarida mavjud. Toshkentda, O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida arab tilidan to’rtta noyob qo’lyozmalari, o’zbek va uyg’ur tillariga tarjimalari mavjud. Qisqartirilgan ruscha tarjima nashri tarjimon V.I.Belyaev 1987 yili Toshkentda “Istoriya Tabari” ya’ni “Tabariy tarixi” nomi bilan nashr etildi.

### **XI asr:**

- Beruniyning “Mas’ud qonuni”, “Geodeziya” va “Hindiston” asarlari.
- as Saolibiyning “Ajoyib ma’lumotlar” va “Yatimat ad dahr” asarlari.

“Yatimat ad-dahr” yoki “Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl ul-asr” (“Asr ahlining fozillari haqida zamonining durdonalari”) nomli tazkira asarini o’z davrining yirik olimi va shoiri Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy yozib qoldirgan. U 961 yili Nishopurda tug’ilgan bo’lib, ilm-fanning turli sohalari tarix, adabiyot, san’at, mantiq, arab tili va boshqalarni yaxshi bilgan, asosiy mashg’uloti tulki terisidan po’stin tikib sotish bo’lgan. Shu sababli as-Saolibiy degan taxallus bilan mashhur bo’lgan. Muallif Eron va Movarounnahrning tarixiy shaharlari Jurjon, Marv, G’azni, Buxoro, Shosh, Xorazmda turgan va ularning madaniy hamda ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan yaqindan tanish bo’lgan.

As-Saolibiy ellikka yaqin yaqin asar yozgan bo’lib, Movarounnahr va unga tutash hududlari xalqlarining X-XI asrdagi tarixi va madaniy hayotini o’rganishda “Yatimat ad-dahr” hamda “Kitob al-g’urar” asarlari alohida ahamiyat kasb etadi.

"Yatimat ad-dahr" (995-1000 yillari yaratilgan) Movarounnahr, xususan Marv va Buxoroning X asrdagi adabiy muhitini o'rganishda ham asosiy manbalardan biri deb e'tirof etiladi.

"Yatimat ad-dahr"ning arab tilidagi matni 1883 va 1947 yillarda Qohira va Bayrutda nashr etilgan. Uning Movarounnahrning X asrdagi adabiy muhitidan bahs yurituvchi to'rtinchi qismi o'zbek tiliga Ismatulla Abdullaev tomonidan tarjima qilgan va 1976 yili Toshkentda nashr qilingan.

- Sahmiyning "Tarixi Jurjon" asari.

### **XII asr:**

- Ibn al-Asirning "Al-komil fi-t-tarix" ("Mukammal tarix") asari.

"Al-komil fi-t-tarix"<sup>1</sup> ("Mukammal tarix") nomli yirik asar muallifi arab tarixchi olimi Izziuddin Abul-hasan Ali bin Muhammad (1160-1234 yy.) hisoblanadi. U aksariyat hollarda Ibn al-Asir nomi bilan shuhrat qozongan. Muarrix Tigr daryosi bo'yida joylashgan Jazira al-Umar shaharida katta yer egasi oilasida tavallud topgan. Umrining asosiy qismini Mosulda (Suriya) o'tkazib, o'sha yerda vafot etgan.

Ibn al-Asir o'z davrining salohiyatli kishilaridan bo'lib, bir necha tarixiy asar yozib qoldirgan. "Al-komil fi-t-tarix" va Muhammad payg'ambar (s.a.v.) sahabalari tarjimai holini o'zida mujassam etgan besh jilddan iborat "Kitob usd al-g'aba fi ma'lumot as-sahoba" ("Sahobalar haqida ma'lumot beruvchi o'rmon sherlari", 1863 yili nashr etilgan) shular jumlasidandir. Lekin, Sharqda joylashgan mamlakatlar xalqlari va elatlari, shuningdek Movarounnahr hududi xalqlari tarixini o'rganishda uning birinchi kitobi "Al-komil fi-t-tarix" katta ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Иззуддин ибн ал-Асир. «Ал-Камил фи-т-тарих» «Полный свод истории». С. 268.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 671.

“Al-komil fi-t-tarix” asari o’n ikki jilddan iborat bo’lib, unda dunyoning “yaratilishi”dan to 1231 yilgacha Sharq mamlakatlarida bo’lib o’tgan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy voqealar yilma-yil, xronologik, ya’ni davr tartibida bayon etilgan.

Kitobda ko’pgina qimmatli manbalar, xususan Tabariy hamda as-Sallomiyning bizgacha yetib kelmagan “Kitob fi axbor vuloti Xuroson hukmdorlari haqida axborot beruvchi kitob”) kabi qimmatli asarlardan keng foydalangan.

“Al-komil fi-t-tarix”ning birinchi qismi (I-IV jildlari) olamning “yaratilishi”dan to 931 yilgacha bo’lib o’tgan voqealar bayonidan iborat. Bular avval bo’lib o’tgan olimlar Balazuriy, Tabariy, Ibn Miskavayx, as-Sulamiy va boshqalarning asarlariga tayanib yozilgan. Lekin bu qismda ham ko’p hollarda asosiy manbalarda uchramaydigan muhim va qimmatli ma’lumotlar bor.

Masalan, 751 yili Talas daryosi bo’yida arab va Movarounnahr qo’shinlari bilan xitoy armiyasi o’rtasida bo’lib o’tgan jang va unda ko’p minglik xitoy qo’shinining tor-mor etilishi haqidagi ma’lumot shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, as-Sallomiy va uning noyob tarixiy asari haqidagi ma’lumotlar bizgacha Ibn al-Asir asari tufayli yetib kelgan.

Mazkur asarning VII-XII jildlari alohida ahamiyatga ega bo’lib, 924-1231 yillar orasida Sharq yurtlarida, xususan Movarounnahr hududlarida bo’lib o’tgan voqealarni o’z ichiga qamrab olgan. Asarning ushbu qismlari asosan qo’lyozma manbalar, shuningdek tarixni yaxshi bilgan kishilardan olingan axborotlar hamda muallifning kuzatishlari natijasida jamlagan boy va faktik ma’lumotlar asosida yozilgan.

“Al-komil fi-t-tarix” asarining ayniqsa, mo’g’ullar istilosiga oid XII jildi alohida diqqatga sazovor va Movarounnahr hamda Sharq mamlakatlarining XIII asrning

birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini o'rganishda asosiy manba sifatida foydalaniladi.

Kitobning to'liq shakli ikki marta (1851-1876 yillari va 1901 y.) nashr etilgan. Ayrim qismlari rus tiliga N.A.Mednikov, A.E.Krimskiy tomonidan tarjima qilingan.

Ushbu asar Xivada to'liq ravishda turkiy tiliga Muhammad Rahim (1863-1910 yy.) hokimiysi davrida Nurillo Muftiy, Muhammad Sharif oxund va boshqa bir guruh tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan. Ushbu tarjima nusxasining Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida o'n uchta noyob qo'lyozmasi saqlanmoqda<sup>1</sup>.

- Nasafiyning "al Qand fi zikr ulamo Samarqand" asari.

"Kitab al-qand fi tarixi Samarqand" ("Samarqand tarixiga oid qand kitob") nomli asar muallifi tarixchi olim, yirik tilshunos va faqih Najmuddin Abu Hifs Umar bin Muhammad bin Ahmad bin Luqmon an-Nasafiy (1068-1142) hisoblanadi. U islam fiqhshunosligi va qonunshunosligiga oid "Manzumat an-Nasafiya fi-l-xulafiyat" ("Kelishmov-chiliklar haqidagi Nasafiyning she'riy kitobi"), "Aqoid an-Nasafiy" ("(Islam) aqidalariga an-Nasafiy sharhi") shariat yo'l-yo'riqlari va "Qur'oni karim" sharhiga bag'ishlab yozilgan "Al-yavoqit fi-l-mavoqit" ("Qulay vaqtlar xususida yoqutlar"), "Zallat al-qoriy" ("Qorilarning xatolari haqida") va tasavvuf xususida "Risolai Najmiya" kabi ko'plab asarlar yaratgan.

Muallifning tarixiy fanlar uchun eng muhim "Kitab al-qand fi tarixi Samarqand" asaridir. Uning yana bir nomi "Kitab al-qand fi ma'rifati ulamai Samarqand" ("Samarqand olimlarini tanish bo'yicha qand kitobi") ham shuhrat qozongan. Mazkur kitobda Movarounnahr hududlarining islamgacha bo'lgan tarixi, uning arablar tomonidan fath

---

<sup>1</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 77-б.

etilishi, Samarqand va unga tutash hududlarning diqqatga sazovor tarixiy hududlari haqida ma'lumot keltirilgan<sup>1</sup>.

Afsuski "Kitob al-qand fi tarixi Samarqand" asarining arab tilidagi asl nusxasi bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Nasafiyning shogirdi Abul-fazl Muhammad bin Abdujalil bin Abdulmalik bin Haydar as-Samarqandiy (XII asr) ushbu asarning qisqartirilgan forscha tarjimasini yozib qoldirgan. V.V.Bartoldning fikricha<sup>2</sup> Abulfazl Muhammad as-Samarqandiy asarning forscha tahririga Abulfazl Muhammad as-Samarqandiy al-Idrisiyning (1015 yili vafot etgan) "Kitob komil al-ma'rifat ar-rijol" ("Mashhur kishilarni tanish haqida mukammal kitob") nomli asaridan ham ayrim qismlarni kiritishga muvaffaq bo'lgan.

Asarning XV asr oxiri XVI asr boshlarida tarixchi Said Ahmad ibn Mir Vali qalamiga mansub forscha tahriri ham mavjud. "Qandiyayi xurd" ("Kichik qandiya") nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur asarning qo'lyozma nusxalari Toshkent, Sankt-Peterburg va Dushanbe qo'lyozma fondlarida hamda Germaniya, Saudiya Arabiston va Hindiston kutubxona fondlarida saqlanib kelmoqda.

"Qandiyayi xurd" bir necha marotaba toshbosma shaklda Samarqand (1909 y.), Toshkent va Tehronda (1955 y.) nashr qilingan; asarning bir qismi V.L.Vyatkin (1869-1932 yy.) tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1906 yilda chop qilingan.

- as-Sam'oniyning "Kitab al-ansob" va "Mu'jam ash shuyux" asarlari.

"Kitab ul-ansob" ("Nasablar kitobi") nomli asarning muallifi mashhur biograf, tarixchi va sayyoh olim Abu Sa'd

---

<sup>1</sup> Камалиддин Ш.С. Новейшие исследования сочинения «ал-Канд» Абу Хафса ан-Насафи // Марказий Осиё тарихи: манбашунослик ва тарихнавислик изланишлари. З-илмий тўплам. Тошкент: ТДШИ, 2011. с. 109.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения. VIII-том. Работы по источниковедению. Москва, «Наука», 1973, с. 257.

Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oni (1113-1167 y.) hisoblanadi. U Marv shahrida yirik fiqhshunos, qonunshunos olim oilasida tavallud topgan, Marv, Buxoro hamda Samarqandda ta'lif olgan. 1155-1156 yillari Movarounnahr, Xuroson va Xorazm hududlari bo'y lab sayohat qiladi, bir munkha muddat Isfahon, Nishapur, Xalab, Bag'dod, Quddus hamda Damashq shaharlarida yashagan.

Abu Sa'd as-Sam'oni "Kitob al-ansob" asaridan tashqari yigirma jildlik "Marv tarixi" nomli kitobning ham muallifidir. Ammo bu asar bizgacha yetib kelmagan. Taxminlarga ko'ra, bu muhim asar Chingizzon xuruji vaqtida kuyib ketgan bo'lishi mumkin, chunki o'shanda Marvning eng katta va boy kutubxonasi bilan birga Sam'oniylar xonadoniga tegishli bo'lgan ikki yirik kutubxona ham (Yoqut Hamaviy Sam'oniylar kutubxonasini ko'rganligini aytadi) yonib ketganmikan? Bizgacha olimning faqat "Kitob al-ansob" asarigina yetib kelgan<sup>1</sup>.

"Kitab al-ansob" asari Ibn Xalliqon bergan ma'lumotlarga ko'ra sakkiz jilddan tashkil topgan. Asarning to'liq nusxasi ham yo'qolib ketgan. Faqatgina kitobning Ibn al-Asir tomonidan tahrir etilgan uch jildlik qisqartirilgan qismi saqlanib qolib, bizgacha yetib kelgan.

"Kitab al-ansob" asarining arab tilidagi matni ikki marotaba nashr etilgan bo'lib, birinchi qismi 1835 yili prof. D.S.Margoulis tomonidan nashr etilgan. Asarning Bayrut nashri ham mavjud. Bu asarda islomdan to muallifning zamonigacha musulmon yurtlarida, asosan Movarounnahr va Eron hududlarida o'tgan mashhur kishilar haqida keng ma'lumotlar berilgan.

"Kitab al-ansob" Movarounnahr hududlarining qadimiy tarixi, yirik shaharlari, qo'shni mamlakatlar, xususan Xitoy bilan bo'lgan savdo va madaniy aloqalarni o'rghanishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar tadqiqi

---

<sup>1</sup> Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент, «Фан» нашриёти, 2007, 62-б.

yuzasidan Sh.Kamoliddin nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan va asar rus tilida nashr etilgan.

Abu Sa'ad As-Sam'oniyning yana bir “Al-muntaxab min mu'jam ash-shuyux” (**المنتخب من معجم الشيوخ**) (“Allomalar jamoasidan saralari”) nomli asarida Markaziy Osiyo, xususan Toshkent vohasi xalqlari tarixi, tarixiy geografisi, madaniyati hamda bu hududda yashagan o'rta asr tarixchilari, mutafakkirlari, fiqhshunoslari, adiblari va hadisshunoslari haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Qur'on, fiqh, hadis ilmlari bilan shuhrat qozongan mingdan ziyod insonlar to'g'risidagi noyob ma'lumotlar o'z ifodasini topgan “Al-muntaxab min mu'jam ash-shuyux” asari asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmay, xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilib, bizgacha yetib kelgan. Asarning noyob nusxasi Istanbuldagi Sulton Ahmad III kutubxonasida 2953-raqam ostida saqlanadi. Asarning bu nusxasi eng qimmatli nusxalardan biri bo'lib, 647/1249-50 yilda xattot Ibodulloh Abu Bakr bin Abdulkofiy bin Usmon al-Horisiy tomonidan nasx xatida ko'chirilgan. Ushbu nusxa 299 sahifadan iborat bo'lib, har bir sahifa 21 qator yozuvdan tashkil topgan.

Tadqiqotdagi ma'lumotlar 1996 yilda mashhur manbashunos olim Muvaffaq bin Abdulloh bin Abdulqodir boshchiligidagi bir guruh arab olimlari tomonidan ar-Riyodda chop etilgan “Al-muntaxab min mu'jam ash-shuyux” asarining 4 tomdan iborat tanqidiy nashriga asoslangan.

Asarda o'rta asrlar sharq olamiga mansub 1446 nafar allomalar haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, ularning 600 dan ortig'i O'rta Osiyoga, 40 ga yaqini ash-Shosh viloyatiga mansub.

Abu Sa'ad As-Sam'oniyning “Al-muntaxab min mu'jam ash-shuyux” asari O'rta Osiyo, xususan ash-Shosh viloyating mo'g'illar bosqiniga qadar bo'lgan tarixi, madaniyati, tarixiy geografiyasi, toponimikasi va shaharlar joylashuviga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, muallif boshqa asarlarda uchramaydigan ko'plab joy

nomlarini keltiradi. As-Sam'oniq qadimiy ash-Shosh viloyati shaharlari va ular atrofidagi qishloqlar tarixiy geografiyasiga oid aniq ma'lumotlarni keltiradi. Bu shundan dalolat beradiki, muallif nafaqat ash-Shosh viloyati shaharlari, balki ular atrofidagi qishloqlar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lgan.

- al Husayniyning "Zubdat ut-tavorix" asari.

### **XIII asr:**

- Yoqut al Hamaviyning "Mu'jam al udabo" asari.

**Uchinchi guruhni** arxeologik materiallar tashkil qildi.

Toshkent vohasi tarixiy geografiyasini tadqiq etishda arxeologik materialarning yetarli miqdorda ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Tadqiqot davomida mavzu bo'yicha hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan barcha arxeologik, jumladan numizmatik va epigrafik materiallarni jalb qilishga harakat qilindi.

Toshkent vohasi tarixiy geografiyasi, toponimikasi va arxeologiyasi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalgalashirilgan bo'lib, ular orasida V.V. Bartold, M.E. Masson, H. Hasanov, S. Qoraevlarning ishlari alo hida ajralib turadi. Ayniqsa, Chochning qadimgi va ilk o'rta asrlardagi sha har hamda qishloqlarining o'rnini aniqlashda arxeolog Yu.F. Buryakovning tadqiqotlari alohida diqqatga sazovor.

Tadqiqotning asosiy manbai qilib olingan 16 qo'lyozma qatorida shu kunga qadar fanga noma'lum muallif qalamiga mansub "Kitab g'arayib al-funun va mulax al-uyun" nomli asar tadqiqot doirasiga olib kirildi. Undagi tarixiy geografik ma'lumotlar ilk bora ilmiy tahlil qilindi.

Abu Sa'd as-Sam'oniyning "Mu'jam ash-shuyux" asarlарining qo'lyozmalaridagi Toshkent tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlar birinchi marotaba tadqiq etildi va klassik arab geograflari asarlaridagi mintqa bo'yicha ma'lumotlar bilan solishtirgan holda hudud tarixiy geografiyasining yaxlit manzarasini shakllantirishga jalb etildi. Xususan, mintaqada islam ta'limotlari tarqalishiga xizmat qilgan ulamolar tarixiga oid ma'lumotlar tahlil doirasiga olib kirildi.

## **ShOSh VOHASINING IX-XIII ASRLARDAGI ARAB MANBALARIDA AKS ETGAN TARIXIY GEOGRAFISI**

### **IX-XIII asrlarda Shosh viloyati**

Qadimdan o'zining tabiiy boyliklari bilan mashhur bo'lgan, asosiy hududlarini Toshkent vohasi tashkil etuvchi qadimgi Shosh o'rta Sirdaryo havzasida joylashgan. Uch tarafdan qorli "osmon tog'lari" – Tyanshan, Chotqol va Qurama adirlari bilan o'ralgan voha Sirdaryoning irmoqlari Chirchiq va Ohangarondan suv ichuvchi hosildor yerlari va bog'lari bilan shuhrat topgan. Tog'oldi hududlaridagi tog'lar, adirlar, yaylovlar yil davomida haydama va yarim ko'chmanchi chorvachilik uchun qulay sharoit yaratgan edi. Chotqol va Qurama tog'laridagi foydali qazilmalar konlari oltin va kumush, mis va temir, qimmatbaho toshlariga boy bo'lgan Yaksart-Sirdaryo qadimdan vohalardagi o'troq xalqlar va Buyuk dashtdagi ko'chmanchi qabilalar o'rtasidagi madaniy va etnik aloqalarda vositachi vazifasini o'tab kelgan<sup>1</sup>.

Sirdaryo havzasi turli tabiiy sharoitlar bilan ajralib turuvchi, tabiiy resurslar, foydali qazilmalar va flora va faunaga boy fizik-geografik hududni o'z ichiga oladi. Tadqiqot hududi Markaziy Osiyoning boshqa hududlari singari keng cho'l zonalarining mustahkam tog' tizmalari bilan uyg'unlashib ketishi bilan xarakterlidir. Tog'larda Sirdaryo havzasi tashkil etuvchi suvlarga boy daryolar boshlanadi va qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan etnoslar yashovchi serhosil tekisliklarni sug'oradi<sup>2</sup>.

Sirdaryo O'rta Osiyodagi yirik ikki daryodan biri – qadimda Yaksart, keyinchalik Sayxun deb nomlangan. U Norin va Qoradaryo suvlарining birikuvidan paydo bo'lgan:

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Тошкент воҳасининг қадимий қарвон йўллари. Тошкент: Ўзбекистон – 1978. 5 бет.

<sup>2</sup> Крахмаль К.А., Хасанова С.М., Аметова Ф.И. Древнейшая история народов долины Сырдарьи. Ташкент: Тамаддун.- 2013. С.14

uzunligi irmoqlaridan boshlab 3019 kilometrni tashkil qiladi. Bu daryo bo'ylarida ajdodlarimiz dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan, ko'plab shahar va qishloqlar bo'lgan<sup>1</sup>.

Tog'oldi hududlarining tekisliklari juda zich daryo tarmoqlari va suv irmoqlariga ega. Sirdayorning o'ng qirg'og'i irmoqlarining aksariyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ko'pchiligi sun'iy irrigasion kanallar bo'lib, tegishli hududlarga yoyilgan.

Tog'li hududlarda tekisliklarga qaraganda 3,5 baravar ko'proq yog'ingarchilik kuzatiladi va bu yerning havo harorati pastroq. Tekisliklar yuqori darajadagi parlanish va kam yog'ingarchilik natijasida oqimga hissa qo'shishda deyarli qatnashmaydi. Sirdaryoning suv hosil bo'ladigan hududi 150.000 kv.km ni tashkil etadi. Sirdaryo Norin va Qoradaryo daryolarining qo'shilishi natijasida yuzaga keladi. Norin daryosi Markaziy Tyan-Shan hududlarida hosil bo'ladi. Qoradayoga Farg'ona tog'li hududlari va Oloy tog'liklaridan keluvchi Tora Qoraqulji daryosi qo'shiladi. Norin va Qoradaryo qo'shilgandan so'ng Sirdaryo 300 km masofaga atrofida Farg'ona vodiysidan oqib o'tadi. Bu yerda Sirdaryo Chotqol, Qurama va Turkiston tog'liklarga kelib qo'shiluvchi ko'plab irmoqlardan suv oladi. Farg'ona vodiysidagi Sirdaryo irmoqlaridan eng kattasi Sox daryosi hisoblanadi<sup>2</sup>.

Farg'ona vodiysidan chiqqandan so'ng Sirdaryo o'ng qirg'oq irmoqlaridan hisoblanmish Angren, Chirchiq, Keles, Aris daryolaridan suv oladi. Norin va Qoradaryo daryolarining qo'shilish joyidan Orol dengizigacha bo'lgan Sirdaryoning uzunligi 2140 kmni tashkil etadi. Norin daryosi bilan hisoblaganda 2260 kmni tashkil etadi. Sirdaryo havzasining barcha katta irmoqlari qor va muz erishlari orqali hosil bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Оқбўтаев К. Сирдарё вилояти. Янгийўл – 1995. З бет.

<sup>2</sup> Крахмаль К.А., Хасанова С.М., Аметова Ф.И. Древнейшая история народов долины Сырдарьи. Ташкент: Тамаддун.- 2013. С.15

Sirdaryo Farg'ona vodiysi shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon kesib o'tadi. U g'arbda Qurama va Mo'g'ul tog'larini aylanib o'tib, to'ppa-to'g'ri shimoli-g'arbga qarab oqadi. Daryo Mirzacho'l, Dalvarzin cho'llariga suv beradi va Qizilqum cho'lining sharqidan yorib o'tib, Orol dengiziga borib quyiladi. Sirdaryo quyilaverish joyida to'qayzordan iborat katta delta hosil qilgan<sup>1</sup>.

Sirdaryo vodiysi hududlaridagi cho'l zonalari ikki turga bo'linadi: shimoliy va janubiy. Shimoliy cho'lliklarga (Markaziy Osiyo turi) Ustyurt, Betpakdala, Muyunqum cho'llari, Shimoliy cho'lliklarga (O'rta yer dengizi turi) Qoraqum va Qizilqum cho'llari kiradi.

Umuman olganda o'rganilayotgan hudud ilk tarixining rivojlanish jarayoni bir necha bosqichlarga bo'linadi. Birinchi bosqich odamzot tarixining muhim bosqichi bo'lmish ovchilik va termachilikdan chorvachilik va dehqonchilikka asoslangan ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish bilan bog'liq. Bu bosqich Qadimgi Sharq mamlakatlari singari o'rganilayotgan hududda ham miloddan avvalgi IX - V mingyilliklarni o'z ichiga oladi.

Bu davrda hududlar orasida farqlar sezila boshlagan edi. Ayrim qabilalar, birinchi navbatda Sirdaryoning yiriq irmoqlari havzalari va serhosil hududlarda yashagan qabilalarning madaniyati tez rivojlandi, shaharcha va shahar tizimlariga asos bo'lgan dastlabki o'troq aholi paydo bo'la boshladi, ilk davlatchilik tuzumlari shakllandi.

Shu davrlardan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar rivojlanishining ikkinchi bosqichi boshlanadi. Angren daryosi havzasida miloddan avvalgi IX - III asrlar doirasida Burguluk dehqonchilik-chorvachilik madaniyati vujudga keldi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Долимов Н. Ўзбекистон ССР географияси. Тошкент – 1966. 122 бет

<sup>2</sup> Крахмаль К.А., Хасанова С.М., Аметова Ф.И. Древнейшая история народов долины Сырдарьи. Ташкент: Тамаддун.- 2013. С.22

O'rta Osiyoning janubiy qismi Qadimgi sharq shahar sivilizatsiyaga mansub ilk dehqonchilik tizimiga kirgan. O'rta Osiyoning shimoliy hududlaridagi qabilalar ikki yirik qadimgi sivilizatsiya markazlari orasida joylashganligi sababli bu jarayonlarda muhim rol o'ynaganlar. Ushbu hududlardan dehqonchilik bilan shug'ullangan qadimgi sharq davlatlari ayrboshlash yoki harbiy yurishlar orqali mis, qurilish toshi, turli xil qimmatbaho toshlar va ayniqsa Qadimgi Dunyoda yuqori baholangan lazurit va biryuza olishgan.

Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi etnomadaniy jarayonlarning rivojlanish tarixi unga geografik jihatdan yaqin bo'lgan hududlardagi tarixiy voqealar bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Bu hududlardagi rivojlanish darajasi ham ancha yaqin bo'lgan. Bu hududlarga birinchi navbatda Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoyni kiritish mumkin.

Hozirgi kungacha ma'lum arxeologik va antropologik ma'lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyoni bronza davrida ikki madaniy-tarixiy hududga bo'lish mumkin. Markaziy Osiyoning janubidagi, Amudaryo – Murg'ob, Surxandaryo, Qashqadaryo, Zarafshon va ularning irmoqlari havzasidagi tosh asridan boshlab rivojlanishda davom etib kelayotgan sodda sug'orish tizimiga ega bo'lgan o'troq dehqonchilik madaniyati.

Sirdaryo va uning o'ng qirg'oq irmoqlari bo'lmish Gava, Angren, Chirchiq, Keles, Aris havzalarini o'zida jamlagan Markaziy Osiyoning shimoliy tog'lik hududlari Yevroosiyo tog'lik bronza madaniyatiga mansubdir.

Ushbu madaniyat egalari ko'chma chorvachilik, dehqonchilik, tog' sanoati va metallurgiya bilan shug'ullanlanganlar. Xo'jalik faoliyati va iqtisodiyotning rivojlanish darajasi asosan iqlim sharoitlari va geografik faktorlarga bog'liq.

Tadqiq etilayotgan hududning bronza asri va ilk temir asrida metallurgiya, temirga ishlov berishga asos bo'lgan mineral resurslarga boyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu ikki hudud aholisi o'rtasidagi doimiy aloqa, shimoliy va janubiy etnomadaniyat jamoalarining bir-biriga ta'siri ularning xo'jalik va ijtimoiy rivojlanishida ham o'z aksini topdi. Bu jarayonlarga o'troq dehqonchilik jo'jaligi, hunarmandchilikning rivojlanishi, ayrboshlashning ortishi, temir qurollarning ishlab chiqarishning kuchayishi sabab bo'ldi<sup>1</sup>.

Mazkur hudud xaritasiga bir nazar tashlansa, geografik manzaralarning rang-barangligini payqash qiyin emas. Toshkent vohasini shimoli-sharq va janubi-sharqdan ulkan taqa shaklida Tyanshan tog' tizmasi o'rabi olgan. Tyanshan tog'ining tarmoqlaridan tez oqar Chirchiq va Ohangaron daryolari bosh oladi. Sirdaryoning eng yirik irmog'i hisoblangan Chirchiq daryosiga shimoli-sharqdagi Chotqol, Pskom, va Ugom suv beradi. Bu daryolar birlashganidan keyin ham daryo ancha tor tog' oraliq chuqurlaridan o'tib, yalanglikka otilib chiqadi va asosiy o'zanidan tashqari yana 50 ta kanalga bo'linib, dalalarga hayot olib keladi. Kanallarning ko'pi qadim davrda yoki o'rta asrlarda qazilgan.

Voha sharqi-janubdan Qurama tizma tog'i bilan, janubi-sharqdan uning irmog'i Qoramazor tog'i bilan o'ralgan bo'lib, uning ohaktosh tizmalari Sirdaryo bo'yigacha pasaya boradi.

Chotqol tizma tog'larining janubi-g'arbiy etaklarida vohaning ikkinchi katta daryosi – Ohangaron boshlanadi. Daryo boshlanishiga bir kilometrgacha chuqur bo'lgan tor qoya toshlar orasidan o'ynab oqadi, so'ngra shimol tomonidan keng tekisliklarni qoldirib Qurama tizmasiga yondashadi va tekislikka oqib chiqib Sirdaryoga qo'shiladi<sup>2</sup>.

Vodiyning boshqa tomonida butunlay boshqa manzarani ko'ramiz. Yassi voha janub va g'arbda Sirdaryo bilan,

---

<sup>1</sup> Крахмаль К.А., Хасанова С.М., Аметова Ф.И. Древнейшая история народов долины Сырдарьи. Ташкент: Тамаддун.- 2013. С.25

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Ист.-археол. Очерк Чача и Илака) Ташкент: Фан. – 1975. С. 9.

shimolda qadimdan kuchli ko'chmanchi qabilalar bilan yashagan keng dasht bilan o'ralsan.

Ma'lumki, Toshkent vohasining tabiiy sharoiti: mo'tadil iqlimi-yu zilol suvlari hamda rango-rang o'simlik va hayvonot dunyosi juda qadim zamonlardanoq bu o'lkada odamzodning yashashi hamda o'z ilk madaniyatini yaratish uchun juda qulay bo'lgan. Toshkent vohasi ilk ibtidoiy davrdan boshlab o'zining inson yashashi uchun qulay geografik o'rni va muhiti, tabiiy boyliklari, qulay iqlimi, suvga serobligi va boshqa odamzod uchun zarur narsalarning mo'l-ko'lligi – bu yerda qadimdan odamlar yashashiga imkoniyat yaratib bergan.

Darhaqiqat, oxirgi yuz yil davomida Toshkent vohasi va shahri territoriyasida topilgan qadimgi tosh davriga oid tosh qurollari, bronza va antik davrga mansub arxeologik yodgorliklar kishilik jamiyatining ilk davridan boshlab, barcha davrlarida odamlar yashab kelganliklarini ko'rsatadi. Jumladan Toshkent viloyatining Obirahmat, Burchmulla, Xo'jakent, Oqtosh, Ko'lbuloq, Paltov, Chorvoq suv havzasi territoriyasi, Toshkent dengizi atrofidan topilgan tosh, bronza, temir va antik davrlarga oid makonlar va qadimgi shaharlardan topilgan tosh va bronza qurollari, kulolchilik, temirchilik buyumlari, oltin, kumush va qimmatbaho toshlardan yasalgan ayollarning zeb-ziynat buyumlari, bezak va taqinchoqlari fikrimizning dalilidir<sup>1</sup>.

Toshkent viloyatining turli tumanlarida arxeolog olimlar tomonidan paleolit (qadimgi tosh) davriga mansub o'ndan ortiq nodir arxeologik yodgorliklar topilib tekshirilgan. Bular tog' daralari bo'ylab joylashgan g'or va ungurlar, jarliklar yoqasida barpo etilgan ibtidoiy odamlarning manzilgoh va makonlari, qoyatoshlarga bitilgan petrogliflar – so'qulgan suratlar va boshqalardan iborat bo'lib, ular Toshkent vohasidagina emas, balki butun O'rta Osiyoda

---

<sup>1</sup> Шораҳимов Ш. Тошкент тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1983. 2-бет.

yashagan eng qadimgi odam ajdodlari hayotini, uning yaratgan ibtidoiy madaniyatini o'rganishda nodir va qimmatbaho manba hisoblanadi. Bu yodgorliklar orasida eng qadimiysi Ohangaron shahri yaqinida, Qizilolmasoy yoqasida joylashgan Ko'lbuluoq makonidir. Bu yodgorlik bir necha yuz ming yil davomida ibtidoiy odam to'dalari yashagan boshpanalarining vayrona qoldiqlari bo'lib, u 1963-1990 yillarda paleolitshunos olim Mirvohid Qosimov tomonidan qazilib o'r ganilgan. Bu ibtidoiy makon ming yilliklar davomida hosil bo'lgan 20 metrdan ortiq qalinlikdagi madaniy qatlardan iborat bo'lib, undan qayroq va chaqmoq toshlardan yasalgan bir necha yuz mingdan ortiq tosh qurollar, gulxan izlari, turli xil hayvonlarning minerallashib ketgan suyak bo'laklari topildi. Ko'lbuluoq makonining yuqori qatlardan chiqqan ashyolar asosan o'rta tosh davriga taalluqli bo'lsa, uning ostki qatlardan kovlab olingan qo'pol tosh qurollar ilk tosh davriga mansubdir. Bu topilmalarga asoslanib yodgorlikning pastki qatlamining arxeologlar ashel davri bilan, ya'ni hozirgi kundan qariyb 300-400 ming yil muqaddam deb sanasalar, geologlar uni hozirgi kundan taxminan 500-700 ming yil avval yotqizilgan deb hisoblamoqdalar<sup>1</sup>.

VIII asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda Arab xalifaligining olib borgan to'xtovsiz harbiy yurishlari va ularga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari davrida Movarounnahrning boshqa ko'pgina o'lkalari singari Shosh viloyati ham inqirozga yuz tutdi. Qadimdan hunarmandchilik, savdo-soti q markazi bo'lib kelgan shaharlarning ko'pi vayron etilib, qolganlari ham ancha-muncha bo'shab qoldi. Konlarda ish to'xtab, sug'orish tarmoqlarining aksariyati suvsizlikdan qurib qoldi. Shoshning savdo-sotig'i, yer-suvlari va chorvasidan undirib olinadigan boj-xiroj va zakot soliqlaridan xazinaga

---

<sup>1</sup> Мұхаммаджонов А. Қанғ — қадимги Тошкент ва тошкентликлар. Тошкент: Шарқ – 2009. 10-бет.

tushadigan daromad hajmi nihoyatda qisqardi. O'lka kumush konlaridan xazinaga tushadigan naqd nuqlalar va ulardan so'qiladigan kumush tangalar barham topib, mamlakat iqtisodiga katta putur yetdi<sup>1</sup>.

Shunday bo'lsa-da, Shoshning iqtisodiy-siyosiy mavqeyi, ayniqsa kumush konlari shuhrati ko'p vaqt o'tmay uning jonlanib, o'zining avvalgi ravnaqini tiklab olishga imkon berdi. Shoshning bu ravnaqi bir asrdan oshiqroq davom etgan xalifalikning bevosita hukmronligi tugab, O'rta Osiyo-ni mahalliy sulola – somoniylar idora qila boshlagan davriga to'g'ri keladi<sup>2</sup>. Shoshda somoniylar xonadonidan bo'lgan Yahyo binni Asad va undan keyin uning avlodlari hukmronlik qildilar. Bu davrda dastavval Shoshning loyqa bosib, suvsizlikdan qurib qolgan sug'orish tarmoqlari tiklandi.

O'rta asr tarixchisi Tabariyning xabar berishicha, bu ishni amalga oshirish uchun xalifa Mu'tasim (833-842 yillarda hokimlik qilgan) xazinadan ikki million dirham mablag' ajratdi<sup>3</sup>. Natijada vayron bo'lgan Shosh shaharlarining bir qismi qayta tiklandi. Viloyatning markaziy shahri hisoblangan qadimgi Shosh (Toshkent) ham bu davrda Salor suvi sohilidagi o'zining qadimgi o'rnidan 8 kilometr shimoli-g'arbga tomon siljib, Bo'zsuv va undan bosh olgan Kalkovuz, Jarariq va Ko'kcha kanallari bilan V-VI asrlardayoq sug'orilib obod egilgan maydonda yangidan qad ko'tardi. Bu yangi joyda qayta barpo etilgan Shosh viloyatining bosh shahri o'rta asr arab geograflari asarlarida «Binkat» nomi bilan tilga olinadi. Mahmud Koshg'ariy uni "Tarkan" degan nomini ham keltiradi<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> Содиқова Н.С., Буряков Ю.Ф. Қадимги ва ҳозирги Тошкент. Тошкент: Фан – 1965. 14- бет.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент обlastining археологик ёдгорликлари. Тошкент: Фан – 1975. 5-бет.

<sup>3</sup> Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан. – 1975. С. 143.

<sup>4</sup> Содиқова Н.С., Буряков Ю.Ф. Қадимги ва ҳозирги Тошкент. Тошкент: Фан – 1965. 17- бет.

X asrda Choch somoniylar qo'lidan qoraxoniylar qo'liga o'tadi. Bu jarayon hali Somoniylar hukmronligi to'liq tanazzulga uchramasdan turib amalga oshgan edi. Koraxoniylar davri tarixi manbalarda somoniylar davriga nisbatan juda kam yoritilgan. Bu davr tarixining ko'p tomonlari kabi hatto Choch vohaning Qoraxoniylar qo'liga o'tgan sanasi ham aniq emas. Shuning uchun Choch vohasining qoraxoniylar davri tarixini yoritishda arxeologik hamda numizmatik ma'lumotlar katta ahamiyatga ega. M.N.Fedorov numizmatik ma'lumotlarga asoslanib Qoraxoniylar hukmronligi hijriy 382 (milodiy 992-993) yillarda boshlangan deb taxmin qiladi<sup>1</sup>.

XI asr yarmidan so'ng hududda o'zaro ichiki kurashlar va Saljuqiylarga qarshi kurash kuzatiladi. Bu kurashlar 1137 yilda Sirdaryo bo'yida Qoraxoniylarni mag'lubiyatga uchratib, Movarounnahni Qoraxitoylar qo'lga kiritishi bilan yakunlanadi. XII asr o'rtalaridan boshlab hudud hukmronligini Qoraxitoylar boshchiligidagi qoraxoniylar qo'lga oladilar. Bu davrda hukmronlik mustaqil davlatlarga ajralib ketadi. Shu kabi viloyatlarning biri poytaxti Binkat bo'lgan Toshkent vohasi edi.

Shosh shaharlarining nomlari va ular oralig'idagi masofalar haqida yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan sharqshunos olim V.V.Bartold Shoshning IX-XII asrlardagi poytaxti – Binkat hozirgi Toshkentning ornida bo'lgan degan fikrni birinchi bo'lib aytgan edi. Toshkent shahrining tarixiy topografiyasini o'rgangan M.E.Masson esa, Binkat Toshkentning aynan hozirgi «Eski shahar» deb atalgan qismiga to'g'ri keladi, deb hisoblaydi. Poytaxtimizning ushbu qismida keyingi yillarda qad ko'tarayotgan ulkan qurilishlar munosabati bilan keng ko'lamda olib borilgan arxeologik

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан. – 1975. С. 143.

kuzatishlar va qazish ishlari M.E.Masson fikrini to'la tasdiqlamoqda.

Yozma manbalardan keltirilgan ma'lumotlar va arxeologik tadqiqotlardan aniq bo'lishicha, Binkat shahrining o'rni Toshkentning to'rt dahasi (tumani)dan, asosan uchtasi: Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och hududlarida joylashgan bo'lib, u alohida-alohida qalin devorlar bilan o'rab olingan to'rt qism: ark (o'rda), shahriston – shaharning asosiy qismi hamda ichki va tashqi rabotlardan iborat bo'lgan. Yozma manbalarda ichki rabot – rabot aldohil, tashqi rabot esa rabot al-xorij nomlari bilan tilga olinadi. Shaharning bo'yи ham, eni ham bir farsax (6-7 kilometr) uzunlikka teng bo'lgan.

Shaharning markazi hisoblangan ark va shahriston qismlari hozirgi Toshkentning Zarqaynar va Navoiy ko'chalari, Chorsu maydoni, Chorsu bozor hamda Eski Juva maydonida joylashgan bo'lib, arkning umumiyligi sahni 1 hektar. Shahristonning maydoni esa 15 hektarga teng bo'lgan. Bu hudud shaharning hozirgi mikrorelefida do'nglik bo'lib ko'zga tashlanadi<sup>1</sup>. Bu do'nglik shubhasiz o'z davrida gullab-yashnagan Binkat shahrining vayronalaridan hosil bo'lgan madaniy qatlamlarini o'z bag'rida hozirgi kungacha saqlab kelmoqda. Bu yerdan topilgan va topilayotgan moddiy-madaniyat izlari va arxeologik topilmalar IX-XII asrlardagi Binkat shahrining qiyofasi, hunarmandchiligi, madaniyati va uning atrof viloyatlar bilan olib borgan savdosotiq munosabatlarini o'rganishda tadqiqotchilar qo'liga nodir va nihoyatda qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Ист.-археол. очерк Чача и Илака) Ташкент: Фан. – 1975. С. 15

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент обlastining arxeologik ёдгорликлари. Тошкент: Фан – 1975. 47-бет.

X asr yozma manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Binkat arkining ikki darvozasi bo'lib, ulardan biri orqali shahristonga va ikkinchisi orqali rabotga chiqilgan. Shahristonning Abul Abbas, Qasr va Gunbaz deb atalgan uchta darvozasi bo'lgan. Bu darvozalardan biri shahristonning sharqiy tomonida bo'lib taxmin qilinishicha, u hozirgi O'zbek drama teatri binosi oldida joylashgan. G'arbdan Sharqqa tomon shaharni kesib o'tgan asosiy yo'l shu yerda tugagan. Shunga asoslanib ayrim tadqiqotchilar o'sha paytlarda shahristonning sharqiy darvozasi tashqarisida joylashgan maydon Xadiroh (Xad - chegara, roh - yo'l, ko'cha) ya'ni yo'lning oxiri deb yuritilgandir, keyinchalik bu joy xalq tilida Xadra bo'lib ketgan deb, izohlaydilar. Qadimda bu maydon Registon nomi bilan mashhur bo'lgan. Aslida Xadra so'zi adirli yer ma'nosini anglatgan. Balki shahristonning sharqiy darvozasi orqali o'tgan yo'l shaharning baland qismi – adirlikdan yo'nalgandir.

Shahristonning ikkinchi darvozasi eski tovoq bozorida, uchinchi darvozasi esa, Chorsudagi qandolat (keyinchalik bu yer o'tin 6ozori)ga chiqish yerida bo'lgan. Binkat ichki rabotining Xumdon, Ohanin (temir qoplangan), Mir – (amir), Farkon (Anqor bo'yi); Karmanj, Ko'yi Saxl, Roshidijak, Ko'yi Xoqon, Ko'shki dehqon deb atalgan o'nta darvozasi bo'lgan. Tashqi rabotga qal'a devori bo'ylab o'rnatilgan Fargad (Parkat) Xashkat yoki Xushkat (Yaxshi mahalla), Sangdijak (Sangdizak), Ohanin, Bakrdijak, Sakrak, Bofaryad nomli yetti darvozalaridan kirilgan.

Shahar hokimining saroyi, qamoqxona, chaqa va tangalar so'qib chiqariladigan zarbxona arkning ichida bo'lib, jome machit uning tashqarisida joylashgan. Hunarmandlarning mahalla-ko'ylari, amirlarning qarorgohlari, yerdor mulk egalarining ko'shk va qo'rg'onlari va bozorlar Binkatning shahriston, ichki va tashqi rabot qismlarida bo'lgan. Ayniqsa bozorlarning ko'pi ichki rabotda

joylashgan. Masalan, hozirgi kungacha mashhur bo'lgan Eski Juva aslida «Isko Jo'ba» ya'ni sug'dcha yuqori, ya'ni katta bozor so'zidan olingan bo'lib, Isko Jo'ba so'zi esa, qadimda shu joyda markaziy bozor bo'lganidan dalolat beradi. Eski Juvadan shimalroqda joylashgan Sag'ven mahallasining asli nomi «Suqbon», ya'ni «suq – arabcha bozor, bon – forscha qorovuli» ma'nosini anglatgan. Chunki dashtdan haydab kelingan otar-otar qo'ylar, qora mol va yilqilarni qo'riqlab, bozorda farroshlik hamda jalloblik qilgan kishilar shu mahallada yashagan. Garchi shaharning ayrim nomlari hamda yozma manbalardagi uzuq-yuluq ma'lumotlar Binkatning' uzoq o'tmishi haqida hikoya qilsa-da, biroq uning tarixiy manzarasini bir oz bo'lsa-da tiklash Toshkent eski shahari hududida keng ko'lamda arxeologik kuzatish va toponomik tadqiqotlar olib borishni talab etar edi.

Toshkent zilzilasidan so'ng poytaxtimizda boshlangan ulkan qurilishlar munosabati bilan akademik Yahyo G'ulomov tashabbusi bilan tashkil etilgan maxsus «Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi» bu borada sinchkovlik bilan tadqiqot ishlarini olib bordi, Arxeologlarimiz eski shahar maydonida qurilayotgan har bir imorat, har bir inshoot va kommunikatsiya, poydevor va zovurlarida kuzatish va qazishlar o'tkazib, Toshkentning IX-XII asr tarixiy topografiyasiga ko'pgina oydinlik kiritdilar. Yozma manba va arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shahar devoridan tashqarida, uning janubi-g'arb tomonida joylashgan yerlar Binkatning shahar tashqarisidagi eng sersuv, o'zlashtirilib obod etilgan maydoni hisoblangan. Shaharlik-larning bog'-rog'lari, tokzorlari, ekin maydonlari ko'proq shu hududda joylashgan. U hozirgi Samarqand darvoza, Chilonzor Oqtepasi hamda Chilonzor massividagi Cho'ponota, Qatortol, Qoziravot, Do'mbiravot va Qani kabi aholi yashaydigan mavzelar joylashgan hududlarga to'g'ri keladi.

Shahardan janubga tomon ketgan katta karvon yo'li Rohikat, ya'ni Kat yo'li yoki «Shaharga olib boradigan keng

yo'l» nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu yo'l yoqasida keyinchalik tashkil topgan mahalla bizning davrimizgacha Rakat talaffuzida yuritilib kelmoqda, Rohikat Chinochkat (Chinoz) orqali Sirdaryo bo'yalariga va u yerdan Dizak (Jizzax) orqali Samarqandga tomon yo'nalgan.

Shaharning sharqiy tomonida joylashgan Fargad (Parkat) darvozasi orqali chiqqan yo'lning bir tirsagi Chirchiq daryosining o'ng sohili bo'ylab hozirgi Bo'stonliq tumaniga, ikkinchi tirsagi daryodan kesib o'tib Parkatga va uchinchi tirsagi Pskat (aslida Pastkat, ya'ni Quyi qishloq yoki quyi shahar) orqali Ohangaron va u yerdan Farg'ona vodiysiga tomon yo'nalgan. Shahar atrofida sug'orish tarmoqlari hamda karvon yo'llari bo'ylab ba'zan istehkomlik, ba'zan istehkomsiz yalang'och katta-kichik qishloqlar joylashgan. Bu qishloqlarning har biri hunarmandchilikning ma'lum bir turi bo'yicha ixtisoslashgan. Ishlab chiqargan o'z hunarmandchilik mahsulotlari bilan bu qishloqlar Shoshning ichki va tashqi savdosini jonlantiribgina qolmay, uning iqtisodiy taraqqiyotida ham muhim rol o'ynagan. Beshog'och yaqinida, Xo'jalambardor mozori biqinida joylashgan qadimgi Oqqa'rg'on, Taxtapuldag'i Kohakota, hozirgi Toshkent qandolat fabrikasi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti o'rnida bo'lgan qadimgi Chimrabit yoki Oqqa'rg'on, Shayxonta-hurda joylashgan, aslida Qar'yadeh, ya'ni «qishloq» deb atalib, so'ngra xalq tilida Qoryog'di deb yuritilib ketgan joylar Binkat shahri atrofidagi mavzelardan hisoblanadi.

Poytaxtimiz hududida olib borilgan arxeologiya tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, X-XI asrlarda Binkat va uning atrofidagi mavzelarda kulolchilik va shishapazlik ancha-muncha yuqori darajada edi. Topilgan turli-tuman sopol buyumlar orasida surunkasiga oq rangli sir berilib, ustidan qora yoki qo'ng'ir, ba'zan nimpushti yoki nimyashil bo'yoqlar bilan turli xil geometrik naqshlar tortilgan sopol idishlar: norin tovoqlar, kosa va nimkosalar, qaymoqdon va

taqsimchalar, lagan va chiroqlar hamda davot (siyohdon)lar o‘z davrining ajoyib servizi hisoblanadi. Topilgan sopol buyumlar orasida ba’zan ichi yoki hoshiyasiga arabcha kufa xati bilan yaxshi niyatli so‘zlar bitilgan, afsonaviy parranda yoki bironta jonli mavjudot tasviri chizilgan idish-tovoqlar ayniqsa diqqatga sazovordir<sup>1</sup>. Shubhasiz, bu idishlar nozik didli, kibr-havoli shahar a’yonlarining yuqori tabaqa vakillariga mansub bo’lgan xaridorlarga mo’ljallangan. Binkatning qadimgi kulollari yosh bolalarni ham esdan chiqarishmagan. Ular uchun sopoldan ot, tuya, qo’chqor, xo’roz kabi sopol haykalchalar va hushtaklar yasab, bayram kunlari ularga tortiq etganlar.

Binkatning X–XI asr hunarmandchiliga oid nodir ashayoviy topilmalar «Olmazor» mavzesida qayd etilgan qadimgi shishapazlik ustaxonasi qoldiqlaridan kovlab ochildi. Ular orasida tiniq sariq, nimyashil, zangori, to‘q pushti, jigar rangli shisha buyumlar: grafinlar, bokallar, krujkalar, flakonchalar, ko’zachalar, kimyoviy idishchalar, beshik asboblaridan tuvak va sumaklar bo’lib, ularning sirtiga relefli, botiq o’yma va qabartma naqshlar berilgan. Bu rango-rang shisha idishlarning shakllaridan tortib, ularga berilgan turli xildagi naqshlar X–XI asrlarda Binkat shishapazlari Samarqand, Buxoro va Axsikat shaharlari ustalaridan qolishmaydigan darajada hunar va mahoratga ega bo’lganlaridan dalolat beradi<sup>2</sup>.

Yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlar hamda arxeologik tadqiqotlarga ko’ra, Shosh viloyati va uning poytaxti – Binkat ayniqsa X–XI asrlarda ravnaq topdi. Bu davrda viloyat yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan. Ayni paytda Binkatdan qurol-yarog’, temir hamda

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Ист.-археол. Очерк Чача и Илака) Ташкент: Фан. – 1975. С. 18

<sup>2</sup> Содикова Н.С., Буряков Ю.Ф. Қадимги ва ҳозирги Тошкент. Тошкент: Фан – 1965. 18- бет.

mis buyum va asboblar, hatto qaychi va to'g'nog'ichlargacha va yog'ochdan yasalgan asbob va uskunalar, egar va jabduqlar, ip va ipak gazlamalar, joynamoz va choyshablar, igna va pichoqlar, ustki kiyimlar, poyafzallar, chodirlar va boshqa xil turli-guman hunarmandchilik mahsulotlari hamda uzoq mamlakatlardan keltiriladigan mollar chetga, jumladan Dashti Qipchoq hududlariga chiqarilgan.

To'qimachilik va gilamdo'zlik yetakchi o'rinda bo'lgan. Manbalarda ta'kidlanishicha Binkatda to'qilgan jun va ipli matolar, movut chakmon, ya'ni sukno yoki jun to'nlar, chodirlar, joynamoz gilamchalar, charm buyumlar, qoramol terisi qoplangan baland qoshli Choch egarlari, namatlar bilan yopilgan katta qora uy - o'tov (yurta)lar to'g'risida hastiy ma'lumotlar keltiriladi. Arab geografi Istanxriyning ta'kidlashicha, Shosh (Choch)da kiyim-kechaklar shunchalik ko'p tikiladiki, hatto ularning bir qismi o'zga yurtlarga, xususan dashtliklar eliga chiqarilgan. Ikkinchchi arab geografi Muqaddasiyning yozishicha, Binkatdan mashhur shoshiy kamon (o'q va yoy), sadoq (o'qdon) hamda sovutlar olib ketilgan. Shular bilan bir qatorda Sayxun (Sirdaryo) orqali qayiqlarda dashtlik g'o'z (og'uz)lar yurtiga turli don-dun - g'alla tashilgan. Bularidan tashqari, Kavkazorti mamlakatlari, Shimoliy va G'arbiy Yevropaga Shoshning sof kumush tangalari ham ko'p miqdorda olib ketilgan. Shoshning kumush koni va undagi zarbxona o'rtalarda asrlarda jahon bozorida «Ma'dan ash-Shosh» (Shosh koni) nomi bilan shuhrat topgan. Mazkur zarbxonada so'qilgan kumush dirhamlar, shubhasiz, Sharqiy Yevropaga tovar sifatida olib ketilgan. Shoshning kumush pullari Moskvadan tortib, Novgorod, Finlyandiya va Daniyagacha bo'lgan hududlarda topilgan. Bunday topilmalar, shaksiz, o'rtalarda Binkatning tashqi savdo aloqalarida jadal ishtirok etganidan dalolat beradi.

X asr noma'lum muallifi tomonidan yozilgan «Hudud ul-olam» geografik asarida «Choch – bu katta viloyat, xalqi

jangovar va saxiydir. U yerda kamon va o‘q-yoy yasaladi. Binkat Chochning poytaxti hisoblanadi. Bu katta shahar, ayni vaqtida podshoning qarorgohi» deb ta’riflangan. Shoshda yasalgan kamon o’sha vaqtarda butun Sharkda «Komoni Shoshiy» nomi bilan mashhur bo‘lib, u uzoqqa otilishi va nishonga aniq borib va bexato tegishi bilan Sharq mualliflarining assarlarida ta’riflangan.

Binkatning X–XI asrlardagi ravnaqi shubhasiz, avvalo shu davrda butun O’rta Osiyoda sodir bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, Arab xalifaligining siyosiy hukmronligi inqirozga uchrashi va bu o’lkada somoniylarning birmuncha markazlashgan mahalliy davlati tashkil topilishi unga katta turtki bo‘ldi. Xuddi shu vaqtarda poytaxtimiz o’zining qadimgi Choch va Shosh, ilk o’rta asrlardagi Binkat nomlari bilan bir qatorda Toshkent deb yuritila boshladи.

Manbalarda qayd etilishicha, IX–XI asrlarda Sayxun (Sirdaryo) havzasи mintaqasi Turkiston deb yuritilgan, Mazkur asrlarda Toshkent Turkistonning eng yirik shaharlaridan hisoblangan. XIII asrning bиринчи choragida u Turkistonning Isfijob (Sayram), Taroz, O’tror, Savron, Yassi (Turkiston) va Sig’noq shaharlari qatorida Xorazmshohlar davlati hukmronligi ostida bo‘lgan. So‘ngra esa Chingizzon bosqinlari oqibatida uning o‘g‘li Chig‘atoy tasarrufiga berilgan<sup>1</sup>. XIII asr oxirida shahar tiklanib, aholisi birmuncha ko‘paygan. Uning har mahallasida 50-70 xonodon istiqomat qilib, masjidlar ishlay boshlagan.

Binkatga Toshkand deb so‘nggi nom berilgan asr uning rivojlangan o’rta asrlar tarixida eng obodlashgan davri hisoblanadi.

Bu davrda qadimgi shahriston va ichki hamda tashqi rabotlarda aholi soni ortib, hunarmandchilik mahalla va guzarlari nihoyatda zichlashib ketadi. Shahar o’zining

---

<sup>1</sup> Шораҳимов Ш. Тошкент тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1983. 10-бет.

qadimgi devorlari doirasidan toshib chiqadi. Ayniqsa hozirgi Chorsu bozorining kun botish tomonidagi avvalgi Kallaxona, Kesak qo'rg'on va Sassi (ya'ni Sasli – ovozli) hovuz mahallalarigacha bo'lgan joylarda ko'proq hunarmand-larning uy-joylari, hunarxonalari bo'lib, aholi ancha-muncha zich yashagan. Bulardan tashqari shahar ichida amirlarning qarorgoqlari – saroylar, yirik yerdor va mulkdorlarning (o'sha vaqtarda bu tabaqa dehqon, ya'ni qishloq hokimi deb yuritilgan) ko'shk va qo'rg'onlari hamda bozorlari bo'lgan. Buni hatto shahar darvozalarining nomlari va bizgacha saqlanib qolgan ba'zi bir toponimlar (ko'cha va mahalla nomlari) dan bilib olishi mumkin. Masalan, shahar darvozalaridan Ko'shki dehqon – mulkdor hokim, Sangdijak – Toshqal'acha, Bakrdijak – Bakr qizlar qal'achasi, Roshidijak – vayron bo'lgan qal'aning marzasi, Ko'yi xoqon – xoqon yashaydigan xiyobon, Ko'yi Sahl – yengil ochiladigan (qulay) darvoza xiyoboni ma'nolarini anglatadi.

Manbalarda tasvirlanishicha, xom g'isht va paxsadan bino qilingan shahar imoratlari bu davrda o'zining ulug'vorligi bilan ko'zga tashlanar edi.

Shahar suvgaga nihoyatda serob bo'lib, har bir hovlidan zilol obi-ravon oqib o'tgan. Suv tarmoqlarining aksariyati shahriston hamda ichki va tashqi rabotlarni kesib o'tar edi. Ayniqsa rabotlar bog'-rog'li va sersuv edi. O'rta asr mualliflari Binkatni ko'kalamzorlikka burkangan Movaroun-nahrdagi eng bahova shaharlar qatorida ta'riflaydilar.

Chorsu mehmonxonasi, Olmazor, Labzak, Xadra va Jangoh mavzelari hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda qayd etilgan. XI–XII va XIV–XVI asr madaniy qatlamlari kovlab topilgan moddiy-madaniyat qoldiqlari, shaharning tarixiy topografiyasi va bizgacha saqlanmagan ayrim yodgorliklari tarhini o'rganishda ayniqsa qimmatli ma'lumot berdi.

Bu maydonda qayd etilgan shahar madaniy qatlamlarining davrma-davr tarqalgan chegaralariga qaraganda, XI

asrda shaharning Sharqiy chegarasi hozirgi Xadra maydonidan boshlanib, u Zarqaynar ko'chasi, Toshkent metrosining Chorsu bekatigacha borgan. Bekat o'rni Labzakning oqava va sizot suvlaridan hosil bo'lgan to'qay va botqoqlikdan iborat bo'lib, u Chorsugacha cho'zilgan. Shahar devorining tashqarisidan kovlangan xandaq yovgarchilik va qamal vaqtlarida suvga to'lg'azilib qo'yilgan. Xandaqdan sharqroqda, shahardan tashqarida katta qabriston bo'lib, uning o'rni sobiq Deroz (degrezlik) mahallasi va hozirgi 42-son maktab atroflariga to'g'ri keladi. Hozirgi Labzak, Xadra va Jangoh mavzelari hamda tarixiy Shayxontahur tomon cho'zilgan yerlar bog' va maydonlardan iborat bo'lgan.

Shaharning janubiy chegarasi Istiqlol maydonida qad ko'targan kino-konsert saroyi atrofidan o'tgan. Undan bir oz shimoli-g'arbroqsa shaharning chegarasiga yaqin joyda ilk o'rta asrlarda suvoriylardan tashkil topgan harbiy navkar-chokarlarning qal'asi – chokardiza joylashgan bo'lib, keyinchalik bu joyda qad ko'targan mahalla Chokar nomini olgan. Bu toponim bizning davrimizgacha Chaqar talaffuzida yetib kelgan.

Chaqardan bir mucha sharqroqdagi joylar O'rpopoya ya'ni «jar qovog'ining etagi» deb yuritilgan. Chunki shahardan tashqariga joylashgan bu yerlar jarlikdan iborat bo'lib, u yerda keyingi asrlarda tashkil topgan mahalla toshkentliklar o'rtasida Arpapoya nomi bilan shuhrat topgan. Hozirgi vaqtda qadimgi O'rpopoyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilish Akademiyasining binosi qad ko'tarib turibdi.

O'rpopoyadan sharqda Anhorning so'l qirg'og'ida hozirgi O'zbekiston Respublikasi Prezident devonining binosi joylashgan yerda ilk o'rta asrlarda qurilgan Qaymas, aslida. Ko'ymas istehkomi bo'lib, uning qoldiqdari Tali Qaymas, ya'ni Ko'y mastepa deb yuritilgan. 1865 yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach,

uning o'rnida «Tuproq qo'rg'on» – harbiy istehkomi qad ko'targan.

Shaharning shimoliy chegarasi esa Eski shahardagi o'rta asr me'moriy obidalardan Kaffoli Shoshiy maqbarasi va Baroqxon madrasasidan shimolroqda oqib o'tadigan Kalkovuz anhorining o'ng sohili bo'y lab ketgan.

Shaharning g'arbiy chegarasi Ko'kchagacha (aslida Kohak ya'ni kohcha, kichik qarorgoh qal'acha) yetib borgan. Arxeologik tadqiqotlardan ma'dum bo'lishicha shahardan atrof rayonlarga ketgan yo'llar bo'y lab, guzarlar, hunarmandchilik rabotlari, qishloqlar va qasabalar joylashgan.

Shahar tashqarisining shimoliy va shimolig'arbiy tomonidagi keng maydon garchi Kalkovuz va Jarariq bo'y lab bog'-rog'lar va ekin yerlari bo'lsa-da, asosan adirliklardan iborat qo'riq yerlar bo'lgan. Hozirgi kungacha shahar toponimiyasida saqlanib kelayotgan Ingichkaqo'riq nomi o'sha qadimiyl tabiiy manzaradan guvohlik beruvchi toponimlardandir. Shuningdek, hozirgi Qurvaqaobod mavzesi ham o'z zamonasida Qo'riqrabot deb yuritilgan. Chunki bu joy dastavval qo'riq yerda qad ko'targan yakka-yu yagona aholi yashaydigan turar joy bo'lgan. Dashtdan keladigan savdo karvonlari, mol haydar keluvchi bozorchilar, daydi sayyoohlaru darveshlar kech kirib, shaharga yetib borolmay qolsa, mana shu Qo'riqdagi rabotda boshipana topib, tunab qolganlar va subhidamda turib shaharga kirib borganlar.

Shunisi qiziqliki, XI asrning o'rtalarida butun O'rta Osiyoda boshlangan kumush tangligi oqibatida Sharqiy Turkistondan to Farg'onagacha bo'lgan o'lkalardagi zarbxonalar misdan chaqa pullar zarb etgan vaqtida ham, Toshkent ma'lum miqdorda kumush aralashtirilgan tangalar chiqarib turgan.

Arxeologik kuzatishlar, hamda ayrim yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, XII asrdan boshlab Toshkentning iqtisodiy va madaniy hayoti inqirozga yuz tutib, uning

shahriston va rabotlaridagi hunarmandchilik mahallalari ancha-muncha bo'shab qoladi. Bu davrda Shoshning qadimgi zarbxonasi barham topib, kumush tangalar zarb etilishi mutlaqo to'xtaydi. Shubhasiz, bu tushkunlik avvalo Shosh viloyatida, qolaversa butun Movarounnahrda bo'lib o'tgan o'zaro urushlaru harbiy yurishlar oqibatida sodir bo'lgan edi.

XII asrning 40-yillarida Toshkent Qoraxitoy to'rxonlariga, XII asr boshida Xorazm shohlar davlatiga bo'ysundiriladi. Bu davrda Sharqdan bostirib kelayotgan naymanlarni o'z davlatining ichkarisiga qo'ymaslik maqsadida hatto Muhammad Xorazmshoh Shoshning obod tumanlarining bir qismini vayron qilib tashlaydi<sup>1</sup>. Bu davrda sodir bo'lgan siyosiy parokandalik va ijtimoiy hamda iqtisodiy tanglik 1219 yilda Shosh viloyati va uning markaziy shaharlari Toshkent va Banokatlarni Chingizzon tomonidan bosib olinishi yengillashtirgan edi.

Toshkent shahri o'zining uzoq yillik o'tmishi mobaynida o'lkaning tabiiy sharoiti va uni o'zlashtirib obod etgan qadimgi aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hamda siyosiy hayot taqozosi bilan bir joydan ikkinchi joyga siljib, qadimgi ro'yi zaminini bir necha bor o'zgartirgani singari, uning nomi ham asrlar davomida bir necha bor o'zgargan. Poytaxtimizni hozirgi nomi unga berilgan ismlarning eng so'ngisi bo'lib, «Toshkent» so'zi yozma manbalarda dastavval XI asrning mashhur allomalari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariylarning asarlarida tilga olinadi.

Bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Toshkentning eng qadimgi nomi «Choch» bo'lган. Arab alifbosida «ch» harfining yo'qligi boisidan arabiylar va forsiy asarlarda u «Shosh» deb yuritilgan<sup>2</sup>. Ilk o'rta asrlarda u Choch, Shosh, Shoshkent, Madinat ash-Shosh, Binkat va Tarkan deb nomlangan.

<sup>1</sup> Шораҳимов Ш. Тошкент тарихидан лавҳалар. Тошкент, 1983. 9-бет.

<sup>2</sup> Камолиддин Ш. Чоч (Шош) топонимининг келиб чиқиши ҳақида/"Мозийдан садо" журнали. 2009. №2. 20-бет

Avvalo shuni aytib o'tish joizki, Toshkentning eng qadimgi nomi – «Choch» shaharning yoshiga nisbatan qadimiyroqdir. Chunki bu nom hali Toshkent shahri paydo bo'lmasdan bir necha asrlar muqaddam Chirchiq va Ohangaron daryolari vodiylari va bu ikki daryoning suvi bilan obod etilgan Toshkent vohasiga berilgan bo'lib, bu o'lkaning qadimgi mahalliy aholisi tomonidan u «Choch eli», ya'ni «Chochanap» deb yuritilgan. Dastavval bu atama otashparastlarning qadimiy muqaddas kitobi Avestoda tilga olinadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, bu atama miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida yuzaga kelgan bo'lib, asli Orol dengizining qadimgi Eron tilidagi «Chae-chasta» degan nomidan kelib chiqqan.

Ma'lumki, vodiy, voha yoki joy nomlari – toponimlar, odatda, ular joylashgan o'lka tabiatining ayrim xususiyatlari yoki qadimgi aholisi va ba'zan qad ko'targan aholi manzillarining soni va sifatlariga nisbatan beriladi.

Ma'lumki, bu qadimgi o'lka sharqsan «Chotqol-Kurama» va «Qorjantov» (Qorjovgantov) tizmalari, janub va g'arbdan Sirdaryo va shimoldan qadimda «Buyuk dasht» yoki «Dashti qipchoq» deb atalgan Qozog'istonning janubiy hududlari bilan o'ralib turadi. Uning bunday tabiiy sharoiti avvaldan o'lkaning iqtisodiy hayotida ayniqla, bu yerda ibridoq chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklarining vujudga kelishi va rivojlanishida katta o'rinn tutgan. Chotqol-Qurama tog'lari va tog'oldi adirliklar chorvachilik uchun keng yaylov, Chirchiq va Ohangaron daryo vodiylari dehqonchilik uchun asosiy obihayot manbai bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, bu tog'lardan kovlab olinadigan turli xil ma'danlar o'lkada qadimdan hunarmandchilik: chilangularlik, misgarlik, zargarlik va hokazolarni rivojlantirishga imkon bergen. Toshkent vohasini kun chiqish tomonidan «Saddichin»dek to'sib, uni obihayot bilan ta'minlab turgan Chotqol-Qurama tizmalari III asr Eron yozuvlaridan bu tog' «Ko'hi Choch» nomi bilan tilga olinadi.

«Choch» so‘zi qadimda mahalliy aholi tilida «tog‘» va «tosh» kabi ikki xil ma’nolarni anglatgan. Choch tog‘idan oqib tushadigan daryo (hozirgi Chirchiq daryosi) ham o’sha vaqtarda «Obi Choch» ya’ni «Choch suvi» yoki «Choch daryosi» deb atalib, Chirchiq daryosini hosil qiladigan to‘rtta tog‘ irmoqlari: Chotqol, Pskom, Ugom, va Ko‘ksuvlardan oxirgisi mahalliy aholi o’rtasida «Obi Ko‘h» nomi bilan mashhur bo‘lib, u «Tog‘ suvi», «Tog‘ daryosi» ma’nosini anglatadi.

O’rta asrlarda Chirchiq daryosi «Parak», «Obi parak», «Daryoyi Parak» nomlari bilan yuritilgan. «Par» yoki «Parak» aslida sug’diycha bo‘lib, u «yuqoridan pastga tushish», «enish», «qulash» ma’nolarini anglatadi. Masalan, yagnoblikdar tog‘dan tosh ko‘chib qulaydigan joyni «sangpar» ya’ni «tosh qulash» deb ataydilar. Shularga asoslansa «Obi Parak» so‘zmaso‘z «Tog‘dan oqib tushadigan daryo», «Tez oqar daryo yoki bir so‘z bilan aytganda, «Sharshara daryo» – «Sharsharacha» degan ma’noni anglatadi. Chirchiq daryosining bosh irmog‘i Chotqol daryosiga Obirahmat yaqinida qo’shiladigan soyning nomi «Obi paltov» bo‘lib, u yuqoridan tashlangan suv yoki «tashlama» soy ma’nosini anglatadi. Agarda keltirilgan Chirchiqning qadimgi atamalari ma’nosiga qarab fikr yuritsa, ular mazkur daryoning ko‘zga yaqqol tashlanadigan asosiy sifatiga juda monanddir.

Darhaqiqat, Chirchiq daryosi yuqori oqimining nishabi keskin katta bo‘lgani uchun u tog‘dan sharsharadek katta tezlik bilan oqib tushar va o‘zi bilan olib kelgan behisob oqizindi jinslar: xarsang, tosh, shag‘al, qum va loyqalarni asrlar davomida butun vodiy bo‘ylab yotqizib kelgan.

Bu qadimgi vodiy bo‘ylab barpo etilgan Qorasuv sug‘orish tarmog‘ining bir shoxarig‘i yaqin kunlargacha «Tosh ariq» nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu atamalar, shubhasiz, Chirchiq daryosi, uning tarmoqlari va ulardan chiqarilgan sug‘orish shoxablariga nom bergan qadimgi

ajdodlarning nihoyatda kuzatuvchan bo'lgani-dan dalolat beradi.

Demak, «Choch» atamasi Chotqol-Qurama tizma tog'-laridan bosh olgan Chirchiq daryosi suvi bilan sug'orilib obod etilgan Toshkent vohasining nomi bo'lib, «Choch» so'ngra «Shosh», «Viloyati Shosh» va «Mamlakati Choch yoki Shosh» deb yuritilgan.

Qadimgi Xitoy manbalarida (miloddan avvalgi II asr va milodning V asrlari) bu viloyat qadimda Loyueni, Yuni so'ngra Chachinap va Shi deb nomlangan. Bu atamalar (avvalgisidan tashqari) «Choch» so'zining xitoycha talaffuz etilishi natijasida hosil bo'lib, hatto oxirgi «shi» toponimi «tosh» ma'nosini anglatgan.

Miloddan avvalgi III asrda qadimgi Choch viloyatida tashkil topib, milodning V asrigacha hukm surgan davlat «Qang'», «Qanqa» yoki «Qang'xa» deb atalgan. Xitoy yozma manbalarida u «Kangyuy» yoki «Kandzyuy» nomlari bilan tilga olinadi. Qadimgi toharlar (Surxondaryo vohasining qadimgi aholisi) tilida «Qang'» so'zi ham «tosh» bilan bir qatorda «baland g'ildirakli toshdek mustahkam arava ma'nosini anglatgan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Qang' davlati nihoyatda kuchayib, unga beshta viloyat: Susey «Kesh», Fumu (Sug'd), Yuni (Choch), Gi (Buxoro), Yuegyan (Xorazm) hokimlari bo'ysungan. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu viloyatlarning nomlari Xitoy manbalaridan olingani uchun xitoychadir. Chunki qadimda va o'rta asrlarda O'rta Osiyoga yuborilgan Xitoy elchilarini o'z axborotlarida mahalliy o'lka nomlarini o'z tillariga tarjima qilib bayon etganlar. Bu davlatning poytaxti Bityan shahri bo'lib, u Iosha daryosi (Sirdaryo) bo'yida joylashgan. Bityan shahri Davan (Farg'ona vodiysi) dan 1510 li (528 km) masofada bo'lgan. Bu qadimgi poytaxtning xarobalari tepe shaklida bizning davrimizgacha saqlangan.

Demak, qadimda tog', so'ngra undan oqib tushadigan daryo keyinchalik shu daryo tufayli obod etilgan vohaga

berilgan «Choch» atamasi, nihoyat shu vohada qad ko'targan dastlabki aholi yashaydigan qishloq va shahar ismiga aylangan. Bu atamaga avval «kat», so'ngra «qand» yoki «kent» so'zлari qo'shilib yuritilgan. Bu keyingi qo'shimchalar shubhasiz aholi yashaydigan joy ekanini belgilab beruvchi so'zlardir. Qadimgi Choch yoki Shosh vohasining dasht bilan tutashgan shimoliy chegarasida qad ko'targan dastlabki aholi yashaydigan dehqonchilik qishlog'i (keyinchalik u shaharga aylangan) Chochkat deb atalib, uning bizgacha yetib kelgan tepa shaklidagi xarobasi toshkentliklar o'rtasida «Shoshtepa» nomi ostida shuhrat topgan.

Yuqorida qayd etilganidek eramiz boshlarida Choch vohasida shahar madaniyati kengayib, Qorasuv, Salor va Jo'nariq sug'orish tarmoqlari bo'ylab, yangi yerlar o'zlashtirilib obod etilishi munosabati bilan qadimgi Choch shahri yangi joyda, hozirgi Shimoliy temir yo'l vokzali yaqinida Salor suvi bo'yida yangitdan qad ko'taradi. V asrga borganda u kengayib, Shosh viloyatining markaziga aylanadi. Bu qadimgi shaharning xarobalari Mingo'rik tepasidir. Shu vaqtidan boshlab bu yangi markaz shahar ham Choch nomi bilan atala boshlaydi, Arablar bu shaharni Shosh va Madinat ash-Shosh deb ataydilar. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, Mingo'riktepada topib tekshirilgan qadimgi Chochkand shahri ayniqsa IV-VIII asrlarda gullab yashnagan. VIII asr o'rtalarida Toshkentning Arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi oqibatida boshlangan xalq qo'zg'olonlari davrida Mingo'rikdagи Shoshkand shahri vayron etilib, u bo'shab qoladi. IX asrga borganda shahar yangi joyda hozirgi Xadra maydoni va «Chorsu» mehmonxonasi joylashgan avvalgi Xadrada qaytadan qad ko'taradi. Bu yangi joyda qad ko'targan shahar IX-XI asrlarda «Binkat» deb yuritiladi. «Binkat» fors va tojik tillarida «uzoqdagi», «ko'zga ko'rindigan», «pastdagi», «quyidagi shahar» degan ma'noni anglatgan. Darhaqiqat, Binkat, Salor anhori bo'yida qad ko'targan qadimgi Shosh

shahridan 8 km shimoli-g'arbda joylashgan bo'lib, unga nisbatan quyi hisoblanar edi.

Mahmud Koshg'ariyning ma'lumoti bo'yicha, Toshkent shahri bu davrda «Tarkan» deb ham yuritilgan. Uning bu nodir ismi «Oqar suv» bo'yidagi shahar ma'nosini anglatadi, ya'ni uning Kalkavuz va Anhor suvlari bo'yida joylashganiga ishoradir.

XI asrda Toshkentning qadimgi nomlaridan Shoshkent turk tiliga tarjima qilinib, uni «Toshkand» deb, yuritila boshlagan, bu qo'shaloq nomlar: Shoshkent, Binkat, Toshkand bilan shahar bir necha asr davomida atalib kelingan. Zahiridsin Muhammad Bobur o'z esdaliklarida «...asarlarda Toshkand nomini Shosh, ba'zan Choch deb yozadilar» – deb, qayd etadi.

XVI asr mualliflaridan Fazlulloh ibn Ro'zbixonning yozishicha, Toshkent va unga qaram bo'lgan yerlar «Shosh viloyati» nomi bilan yuritilgan. XVI asr 90-yillariga mansub qozilik hujjatida esa, shaharning ko'proq Toshkand nomi bilan mashhur bo'lgani ta'kidlangan. Hujjatda: «Shoshkandda ya'ni Toshkand nomi bilan mashhur bo'lgan shaharda», – degan, so'zlar qayd egilgan.

XVII asrda yashagan qomusshunos olim Mahmud ibn Valining yozishicha, Toshkent uning davrida ham uch nom bilan yuritilgan. «Shosh – Sayxun (Sirdaryo)ning u tomoniga joylashgan shahar va u Turkiston (viloyati)ga qaraydi... Uni Choch deb ataydilar. Biroq hozirgi vaqtida u Toshkent nomi bilan mashhurdir» – deb yozadi bu haqda Mahmud ibn Vali.

Demak, XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Toshkentning Choch, Shosh va Binkat kabi qadimiy nomlari aholi o'rtasida muomaladan chiqib, uning so'ngi atamasi shuhrat topa boshladi. Xuddi shu vaqtidan boshlab u yagona Toshkand nomi bilan yuritilib ketadi. Toshkentning qadimgi nomlari ostida yashiringan uning barcha sifatlari faqat mustaqillik davrida, u yuksak san'at va madaniyat markazi, Sharqning haqiqiy mash'aliga aylangan davrda o'z ifodasini

to'la topdi. Shunday qilib, Toshkent vohasining tabiiy sifatlari asosida paydo bo'lgan qadimgi «Choch» atamasi, avval toqqa, undan daryoga va vohaga o'tib, so'ngra bu obod vohada qad ko'targan shaharga berilgan, Bu nomlarning kelib chiqqan davri va ularning ma'nosini aniqlash, shubhasiz Toshkent shahri tarixini bizgacha saqlanib qolmagan sahifalarini tiklash imkonini beradi.

O'rta asrlarda o'z ichiga Iloq temir-ruda viloyatini ham olgan Qadimiy Choch Sirdaryoning yoki antik davr manbalarida Yaksart deb nomlangan daryoning o'rta oqim vohasiga joylashgan. Uning asosiy qismi Chirchiq va Ohangaron daryolarining havzasasi hisoblansa ham, voha maydoni vaqtি-vaqtি bilan Sirdaryo bo'ylab Janubiy Qozog'iston cho'llarigacha, shimolda O'tror vohasigacha kengayib borgan.

Agar mazkur hudud xaritasiga bir nazar tashlansa, geografik manzaralarning rang-barangligini payqash qiyin emas. Uni shimoli-sharq va janubi-sharqdan ulkan taqa shaklida Tyanshan tog' tizmasi o'rab olgan. Tyanshan tog'inining tarmoqlaridan tez oqar Chirchiq va Ohangaron daryolari bosh oladi. Sirdaryoning eng yirik irmog'i hisoblangan Chirchiq daryosiga shimoli-sharqdagi Chotqol, Pskom va Ugom suvini beradi. Bu daryolar birlashganidan keyin ham daryo ancha tor tog' oraliq chuqurlaridan oqib o'tib, yalanglikka otilib chiqadi va asosiy o'zanidan tashqari yana 50 ta kanalga bo'linib, dalalarga hayot olib keladi. Kanallarning ko'pi o'rta asrlarda qazilgan.

Voha sharqi-janubdan Qurama tizma tog'i bilan, janubi-sharqdan uning irmog'i Qoramazor tog'i bilan o'ralgan bo'lib, uning ohaktosh tizmalari Sirdaryo bo'yigacha pasaya boradi.

Chotqol tizma tog'larining janubi-g'arbiy etaklarida ikkinchi katta daryosi – Ohangaron boshlanadi. Daryo boshlanishida bir kilometrgacha chuqur bo'lgan tor qoya toshlar orasidan oqadi, so'ngra shimol tomondan keng

tekisliklar qoldirib Qurama tizmasiga yondashadi va tekislikka oqib chiqib Sirdaryoga qo'shiladi.

Vodiyning boshqa tomonida butunlay boshqa manzarani ko'ramiz. Yassi voha janub va g'arbda Sirdayo bilan, shimolda qadimdan kuchli ko'chmanchi qabilalar yashagan keng dasht bilan o'rالgan. Tarixchilar yozishiga ko'ra, bo'lib o'tgan urushlar davrida bu dashtni sharqdan Soyliq tog'laridan Choch (Sirdaryo) daryosigacha devor bilan o'rab olish harakatlari ham bo'lgan. "Kampir devor" deb nom olgan va o'tmish urushlarining guvohi bo'lgan mazkur devorning qoldiqlari hozirda ham saqlanib turibdi. Lekin Chochning o'zi ham qadimgi ko'chmanchilar beshigi bo'lgan. Dashtliklar bilan tez-tez do'stlik aloqalari bo'lib turgan, xo'jalik esa harbiy aloqalarga nisbatan ko'proq savdo aloqalari rivojlanishini taqozo qilardi. Tarixchilar aytishlaricha, vohaning shimolida, Sirdaryoning ikki tomonida Choch davlatiga qarashli yaylovlar bo'lgan.

Choch ko'p davrlar Sharqiy Movarounnahrning dasht hududlarini egallagan ko'chmanchi, chorvador qabilalar hamda o'troq, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarning chegarasi bo'lib kelgan. Bu ikki daryo chegarasida doimo o'zaro og'ir munosabatlar bo'lib turgan. O'zaro munosabatlar, ochiq adovat harakatlari ko'p hollarda yaqin iqtisodiy-savdo aloqalari ko'rinishida ham bo'lgan. O'troq bo'lib qolgan ko'chmanchilar o'troq xalqlar madaniyatiga shunday ta'sir ko'rsatdilarki, birinchi navbatda, u Choch madaniyatining boshlang'ich negizini tashkil etishda o'z aksini topdi.

Chochning tarixda tutgan o'rnini aniqlash uchun biz qadimgi qo'lyozmalarni varaqlashimiz lozim. Ularda Choch vohasi "Turkistonda eng yirik viloyat" deb qayd etilgan. "Chochga o'xshash qishloqlarda aholi gavjum bo'lgan, ekin maydonlari gullab yashnagan, ko'plab masjidlar, kuchli va jasoratli xalqi mavjud bo'lgan birorta

mamlakat na Xurosonda, na Movarounnahrda topilmaydi", — deb yozadi X asr o'rtalarida yashagan arab geografi Istaxriy. Yarim asrdan so'ng "Sharqning birorta ham vodiysida bunday shaharlarga boy voha yo'q", — deb Istaxriy fikrini qo'llab-quvvatlagan edi Ibn Havqal. Haqiqatda ham, bu yerda ellikka yaqin shahar va shaharchalar bo'lgan.

Yaqin-yaqinlargacha vohadagi ko'p shaharlarning joylashgan o'rni aniq emas edi. Buning ustiga qadimgi mualliflar shaharlar sonini, poytaxtlarni, ahyon-ahyonda karvon yo'llarini qisqacha sanab o'tganliklari ajablanarli hol emas, albatta. Serqatnov karvon yo'llaridan chetda bo'lgan shaharlar haqida deyarli ma'lumotlar yo'q edi. Ularning tashkil topishi, gullab-yashnashi va yo'qolib ketishi sabablarini aniqlash uchun birinchi navbatda karvon yo'llarini, shu yo'llarga yaqin joylashgan shaharlarni topish zarur edi.

Karvon yo'llari Chochni vohadagi shaharlar bilan, Markaziy Osiyo mamlakatlarini Sharqning uzoq mamlakatlari va Xitoy bilan bog'lardi. Shaharlarning savdo yo'llari, shahar markazlari orasidagi masofalar haqida arab tilida bitilgan tavsiflar bizga asosiy manba vazifasi o'taydi. To'g'ri, ular bizning yo'l va masofa o'lchamlarimizdan tubdan farq qiladi. Lekin shunday bo'lsa ham, ularda yo'llarni belgilaydigan qoziqlar, ular orasidagi masofa va hatto daryolardan o'tish joylari ko'rsatilgan. Aksariyat arab manbalarida masofalar otning bir soatda bosgan yo'liga qarab farsax bilan o'lchangan. Shuning uchun turli mualliflarda bu ko'rsatkich har xil beriladi. Siyosiy ahvolga qarab karvon yo'llari o'zgarsa, yirik daryolarning injiqliklari tufayli o'tish joylari o'zgarib turgan.

Toshkent vohasini Sug'd bilan ikkita karvon yo'li bog'lab turgan. Birinchisi yaqin, ammo qiyin yo'l bo'lib, u hozirgi Jizzax orqali to'ppa-to'g'ri Sharqqa — ahyon-

ahyonda uchraydigan karvonsaroy va inshootlar bo'lgan jazirama Mirzacho'l orqali o'tardi. Bu yo'l Sirdaryo bo'sag'asida Chirchiq quyilishidan uncha uzoq bo'lman o'tish joyiga kelib ancha gavjum bo'lardi. Shundan keyin karvon Chirchiq bo'yab Toshkentga yo'l olgan.

Ikkinci yo'l uzoqroq bo'lsa ham, xavfsiz va serqatnov edi. U Jizzaxdan Zomin, Xovost orqali janubga burilib Ohangaron daryosining Sirdaryo bilan qo'shiladigan joyidan yuqoriroqdan chiqardi. Sirdaryodan o'tilgach, Toshkentga yetib kelish uchun Ohangaron va Chirchiq daryolari irmoqlaridan o'tib, yana shimol tomon yurish kerak edi. Shaharlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu yo'l qadimiy yo'l ekanligini ko'rsatgan. Shimoldagi o'tish joyi ko'chmanchilar qo'lida bo'lganida, Chirchiq vodiysining ko'pgina shaharlari endigina barpo qilinayotgan bir vaqtda savdo karvonlari Toshkent vohasiga aynan shu yo'ldan borganlar.

Markaziy Osiyoning janubiy hududlarining Yettisuv va Sharqiy Turkiston shaharlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarida Toshkent vohasi muhim o'rinn tutardi. Movarounnahrning gullab yashnagan muhim iqtisodiy markazlaridan biri bo'lgan Toshkent vohasi, xususan Iloq qimmatbaho konlarga boy bo'lib, ko'rib chiqilayotgan davrda Movarounnahrning turli metall va nometall qazilmalari qazib olinadigan asosiy markazlaridan hisoblanardi<sup>1</sup>.

Voha geografik jihatdan qulay joylashgan bo'lib, IX-X asrlarda voha orqali o'tuvchi asosiy karvon yo'llari tranzit va ichki ahamiyatga ega edi. Vohani Sug'd bin bog'lovchi yo'l ikki yo'nalishda bo'lgan. Jizzax va jazirama Mirzacho'l orqali o'tgan birinchi yo'l Chirchiq daryosining Sirdaryoga quyilishidan pastroqdagi kechuv bo'yida joylashgan xristianlar yashovchi Vinkerd qishlog'iga olib kelgan.

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. V — начало XIII в. – М.: Наука, 1974, с. 24.

Jizzaxdan bu kechuvgacha bo'lgan masofani karvonlar uch kunda bosib o'tishgan<sup>1</sup>. Keyin karvonlar Chirchiq daryosining chap sohilidagi Chinochkat, Shuturkat (Eski Toshkent) va Zayatkent bo'yab Binkatga yo'l olgan<sup>2</sup>. Chirchiq daryosining Sirdaryoga quyilish joyida, hozirgi Chinoz yaqinidagi Chinochkat shahri Sirdaryodagi kechuvni nazorat qilishda asosiy o'rinn tutgan bo'lib, uni "Xitoylik savdogarlar shahri" deb talqin qiluvchi qarashlar bor. Shoshning rivojlangan o'rtalarda asrlardagi poytaxti Binkat XI asrdan yangi nom bilan – Toshkent deb yuritila boshlagan. Shahriston va arkka ega bu shahar IX-XII asrlarda nafaqat vohaning ma'muriy markazi, shu bilan birga Movarounnahrning savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida ham ko'zga tashlanadi.

Sug'dni Binkat bilan bog'lovchi ikkinchi yo'l esa uzoq bo'lsa-da, xavfsiz va serqatnov bo'lgan. Manbalarda "Banokat yo'li" deb nomlangan bu yo'l Sug'ddan Jizzax, Zomin, Xovos yo'nalishida o'tgan. Xovosda yo'l janubga burilib, Ohangaron daryosining Sirdaryoga quyiladigan joyidan yuqoriqoqdagi kechuvga chiqardi. Sirdaryodan o'tilgach, Binkatga yetib kelish uchun Sirdaryoning o'ng qirg'og'i bo'yab shimol tomonga yurilib Banokatga, u yerdan esa Ohangaron daryosi chap qirg'og'i bo'yab Xarashkat va Xudaynkatga chiqilgan. Bu yerda Ohangaron kechib o'tilib, yo'l shimolga – Parak (Chirchiq) vodiysiga o'tgan va Shuturkatda Chinochkat – Binkat yo'liga qo'shilgan. Ibn Xurdodbeh ham Samarqanddan Zomin orqali Shoshga kelgan savdo yo'li haqida ma'lumot berib, oraliq masofa 42 farsax ekanligini ta'kidlaydi.

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. по древним караванным путям Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 10; Сверчков Л.М. Сырдарынская степь: пути и переправы // Трансоксиана – Мавераннахр: Сб. статей. – Ташкент: Изд. журнала SAN'AT, 2007. – С. 186.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. О втором караванном пути из Согда в Шаш // ОНУ. – Ташкент, 1972. — № 3.

Vohaning ichki yo'llari keng tarmoqli bo'lib, Shosh va Iloqning barcha yirik shaharlari orqali o'tgan. Ular ichida Sirdaryo bo'yidagi Banokat shahrini Shosh poytaxti Binkat bilan hamda ularni Iloq poytaxti Tunkat shahri bilan bog'lovchi yo'llar asosiy yo'nalishlardan hisoblangardi. Banokat shahri IX-XII asrlarda Shosh viloyatidan Ustrushona va Sug'dga ketuvchi muhim yo'llar bo'yida, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida, Iloq (Ohangaron) daryosining Sirdaryoga quyilish joyidan 1 farsax quyiyoqda joylashgan yirik iqtisodiy-madaniy markazi edi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda Toshkent vohasidagi uchta yirik shahar – Shosh poytaxti Binkat, Iloq poytaxti Tunkat va ular oralig'ida joylashgan Nukat (Ulkan To'ytep) orqali vohaning asosiy ichki yo'llari o'tgan. Binkat va Tunkat oralig'idagi masofa 10 farsax bo'lib, ularni bog'lovchi yo'lda yana 6 ta shahar va ko'plab qishloqlar bo'lgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda Shosh vohasi shaharlari Xo'jand va u orqali Farg'ona vodiysi bilan bog'langan edi. Shosh poytaxti Toshkentni Ustrushonaning yirik shahri hisoblangan Xujand bilan bog'lovchi yo'l Nukat (To'ytep) va Biskat (Pskent) shaharlari orqali o'tardi. Vohaning Farg'ona vodiysi bilan aloqalarida Shavkat (Uvaytепа) va Arbilax (Abrlig') shaharlaridan Qamchiq va Rezakli tog' dovonlari orqali o'tuvchi yo'l katta o'rinn tutgan<sup>1</sup>.

### **Janubiy karvon yo'lidagi shaharlar geografiyasi va topografiyasi**

Tarixiy yozma manbalardagi ma'lumotlar hamda arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, Choch vohasidagi asosiy va qadimgi karvon yo'li bu janubiy karvon yo'li hisoblangan. VIII asrdan to XIV-XV asrlarga

---

<sup>1</sup> Массон М.Е. Ахенгеран. Археолого-топографический очерк. – Ташкент, 1953. – С. 32-40.

qadar janubiy karvon yo'li bo'ylab Choch hududidagi birinchi va yirik shahar markazi Banokat shahri bo'lgan.

**Banokat.** Choch vohasining janubiy karvon yo'lida o'nlab yirik shahar, qasr va aholi turar joylari cho'zilib ketgan. Shulardan eng birinchisi daryo bo'yidagi shahar – qal'a Banokatdir. Bu nom mahalliy aholiga ham ma'lum emas. Lekin Sirdaryoning tik burilib ketgan joyidan o'tadigan yeridan 15-20 km pastroqqa tushilsa, "Sharqiya" deb atalgan katta shahar xarobasiga duch kelish mumkin. Ibn Xavqalning ma'lumot berishicha, Iloq daryosining suvi Choch daryosiga Banokat shahrining qarshisida quyilgan.

Ko'hna shaharning nomi bugungi kunda ham uning tarixini bildiradi. 1392 yili Amir Temur Sharqqa qilgan yurishlaridan birida bu joyning kechib o'tish uchun qulayligini hisobga olib, Sirdaryo qirg'og'ida mustahkam qal'a barpo etishga farmon beradi va o'g'li Shohruh sharafiga Shohruhiya shahri deb ataydi. Zaxiriddin Muhammad Bobur ham bu shaharni muhim harbiy-strategik hudud deb hisoblagan.

Arab geograflarining ko'rsatishi bo'yicha Shohruhiya o'ta qadimgi shahar xarobalarida yotib, Sharq manbalarida Banokat nomi bilan ma'lum bo'lgan. Sharq geograflarining yozishicha, bu yerdan Chirchiq vodiysiga, undan so'ng Toshkentga yo'l ketgan.

Bu shahar xarobalaridan ajoyib sirlangan idishlar, Shosh davlatining qadimgi tangalari topildi. Tangalar misdan ishlangan doiracha bo'lib, uning bir tomonida Tillaqosh podshoning yon tomonidan ko'rinishi, ikkinchi tomonda podshoning tamg'asi tasvirlangan. Shuningdek, bu yerdan ilk o'rta asrlar binolarining hashamatli devorlari ochildi. Bunday binolar qurish IX-XI asrlarda juda rivoj topgan edi. Uylar pishiq g'ishtdan ishlanib, hovlilarida suv quvurlari va hovuzlari bo'lgan. IX-X asrlarda mazkur shahar savdo va madaniy markaz

hisoblanib, Hindiston va Yettisoy, Xuroson va Bahdodg'a qatnaydigan savdogarlar ana shu shahardan o'tardi. O'z navbatida, bu yerdan Sharq bozorlariga to'qilgan gazlamalar, idishlar, metall buyumlar va quro-aslahalar olib ketilgan.

Arab geograflari Banokatni "gullayotgan shahar" deb ataganlar. Aholining jangovarlik ruhi esa "aholisi isyon ko'taruvchi va erksevar bo'lganligi" uchun Somoniylar hukmdori tomonidan qal'a devorlaridan mahrum etilganlar.

X asrda shahar atrofida devor bo'limgan. Devor keyinroq, aniqrog'i Amir Temur davrida, ya'ni Shohruhiya qal'asi barpo etilayotgan davrda qurilgan.

Bu shahar Oxangaron daryosining Sirdaryoga quyilgan yeridan 30 km uzoqlikda joylashgan. Bu ma'lumot arab manbalarida ham uchraydi. Jumladan, Ibn Havqalning xabar berishicha, Iloq daryosi Choch daryosiga Banokat shahri ro'parasida quyiladi. Shahar qoldiqlari Shoxruhiya shahar qoldiqlari bilan bir hisoblanadi.

Shahar ikki yirik qismga bo'lingan - shahriston va rabot. Shahriston ko'plab madaniy qatlamlar bilan rabotdan 15-17 m yuqorida joylashgan. Daryo tarafdan bu 25-30 metrga yetadi. Shahriston sharq tomondan burchaklar bilan ajralib turadi. Janub va g'arb tomondan shahristonni yuvib turuvchi Sirdaryo diagonal bo'yicha uning deyarli yarmini yo'q qilib yuborgan.

Shahristoning g'arbiy qismidan devor tarafida daryodan to shahar markaziga qadar tortilgan markaziy suv quvurlari topilgan. Bu yirik qurilma butunlay pishiq g'ishtdan barpo etilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, shahriston ikki tomondan Sirdaryo bilan o'ralgan, uchinchi shimoli-g'arbiy tarafdan uni sharqiyyoy ajratib turadi. Shimoli-sharq tarafdan esa quruq xandaq o'rabi turadi.

Shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy tarafdan shahristonga keng rabotlar ulanib ketgan. Shimoli-sharqiy rabot alohida o'rab olingan devorlar va minoralarga ega. Rabot ichidan Sirdaryoga quyiluvchi chuqur ariq Baxorsoy oqib o'tadi.

Sharqiy rabot hududidan shishachilar mahsulotlari-ning izlari topilgan. G'arbiy shahardan esa kulolchilik ustaxonasi topilgan. Manbalarda tilga olinishicha Movarounnahr mollari ichidan Banokat matolari alohida o'rin tutgan. Muqaddasiyning ma'lumotiga ko'ra asosiy bozor rabotda joylashgan bo'lgan. Bozor yaqinida esa, jome masjid joylashgan. Muqaddasiyning yana bir ma'lumotiga ko'ra Banokat mudofaa devorlariga ega bo'lмаган. Arxeologik qazishmalar ham buni isbotlaydi.

XIII asrga qadar Banokat Choch vohasining yirik shahar markazlaridan biri bo'lgan. XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Banokatda mahalliy qoraxoniylar sulolasiga tegishli mis tanglari zARBXONASI mavjud bo'lgan.

Ibn Xavqal qalamiga mansub "Kitab surat al-ard" asarining J.Kramers tanqidiy matnida: Fanokat (فناكت)<sup>1</sup>, matnning boshqa yerida esa uning nomi Banokat (بناكت) shaklida keltirilgan. Bu shahar ash-Shosh daryosining bo'yida, unga Iloq daryosining qo'yilish yeri qarshisida joylashgan<sup>2</sup>. M. De Guye tanqidiy matnida<sup>3</sup> va boshqa manbalarda uning nomi Banokat (بناكت), Binokat (بناكت),

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Haukal, Abu-l-Kasim an-Nasibi. Opus geographicum / Ed. J.H.Kramers, BGA, pars 2. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 507.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Haukal, Abu-l-Kasim an-Nasibi. Opus geographicum / Ed. J.H.Kramers, BGA, pars 2. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 509, 522.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 383 ص؛ Ibn Haukal, Abu-l-Kasim an-Nasibi. Opus geographicum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 2. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1873, p. 385, 388, 392.

yoki Banokit (бناқт) shaklida qayd etilgan<sup>1</sup>. Bu shahar Xashart (хшрт) daryosi bo'yida joylashgan<sup>2</sup>. Usrushanadan keluvchi yo'l ash-Shosh daryosi ustida qurilgan ko'prikan o'tib, Banokat shahridan o'tgan, keyin Turk daryosi tomon davom etgan<sup>3</sup>. Kattaligi bo'yicha Ushturkatga o'xshash shahar, uning aholisi isyonkor bo'lgan. Uning qal'asi yo'q, jome masjidi bozorda joylashgan<sup>4</sup>. Uning nomi so'g'dcha pyn - "ochmoq", pn -

<sup>1</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. – قاهره، 1961. ص – 185؛

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnorum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 329, 337; al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 48, 264;

ابو الريحان البيرونى، "القانون المسعودى"، مج (3)، بيروت، 1954 م. 169 ص؛  
Беруни, Абу Рейхан. Канон Mac'уда (книга I-V) / Вступительная статья, перевод и примечания П.Г.Булгакова и Б.А.Розенфельда при участии М.М.Рожанской (перевод и примечания) и А.Ахмедова (примечания) // Избранные произведения в 7 томах. Т. 5. Ч. 1. Ташкент: Фан, 1973, с. 471.

<sup>2</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار التقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930. с. 246; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p.118.

<sup>3</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>4</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 227.

“uzun”, va kat – “qishloq” so‘zlaridan yasalgan bo‘lishi mumkin<sup>1</sup>. Bu shahar mo‘g‘ullar bosqini vaqtida vayron etilgan, Temuriylar davrida esa qayta tiklanib, Shohruhiya (شاھروھيہ) deb atalgan. Uning xarobalari Sirdaryo bo‘yida Ohangaron daryosining unga quyilish yeridan yuqoriroqda joylashgan bo‘lib, Sharqiya deb ataladi<sup>2</sup>.

**Xarashkat.** Bu shahar Banokatning sharqidan 9 km joylashgan ulkan shahar xarobasidir. Bu shaharning yana bir nomi Qanqa shakli bilan mashhur. Arab geograflarining qayd qilishicha Banokatdan chiqqan karvon bir farsax yo‘l bosganidan so‘ng Xarashkat shahriga kirib kelgan.

Shahar Banokatdan bir farsax uzoqliqda joylashgan. IX-X asr manbalariga ko‘ra Xarashkat karvon yo‘li bo‘ylab ikkinchi shahar markazi sanalgan. Bu shahar Qanqa shahar xarobalari o‘rnida joylashgan bo‘lib, Toshkent viloyati hududida, Sirdaryodan sharqqa 8 km uzoqlikda bo‘lgan. Xarashkatga eltuvchi yo‘l yirik-yirik himoyalangan va himoyalanmagan qishloqlar orqali o‘tgan bo‘lib, bu Iloq daryosining quyi oqimida aholi zichligidan darak bergen.

Qanqa shahri Toshkent vohasi uchun o‘ziga xos shahar madaniyati yodgorligi hisoblanadi. Shahar hududi 150 ga ni o‘z ichiga olib, xandaqlar bilan o‘rab olingan bir necha mustaqil hududlardan iborat. Shaharning shimoli-g‘arbiy chegarasidan Ohangaron daryosining qadimiy o‘zanlaridan biri oqib o‘tgan. Shahar markazida

---

<sup>1</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 96.

<sup>2</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953. с. 33; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 14-30.

mustahkam qasr joylashgan. Qasrning shimoliy burchagida saroy ko'rinishidagi, 30 m maydonga ega qurilmalar joy olgan. Ularning paxsa devorlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

Birinchi shahriston maydoni 6,5 ga bo'lib, qolgan hududlardan xandaq bilan ajratilgan. Ikkinci shahriston ham devor va xandaq bilan o'ralgan bo'lib, 50 ga maydonga teng va zich uy-joylardan iborat. Janubi-sharqiy va g'arbiy hududlarda ko'chalar va maydonlarning izlari mavjud. Uchinchi shahristonning devorlari qolgan 150 ga maydonni o'rabi turadi. U ikkinchi shahristonni shimoli-sharqiy tarafdan tashqari uch tarafdan o'rabi turadi.

Shahriston devorlarida kamda beshta darvoza bo'lgan. Shaharning shimoli-sharqiy chegarasi Qorasu daryosining o'zani hisoblangan. Shahar hududi atrofidagi rabotlar bilan hisoblaganda 200 ga ni tashkil etgan. Bu bu shaharni Toshkent vohasining eng yirik shaharlaridan bo'lganligini, madaniy qatlamlarning chuqurligi uning qadimiyligini ko'rsatadi.

Shaharning gullab-yashnagan davri IX-X asrlarga to'g'ri keladi. Xarashkatdagi hayot izlarining so'nggisi XII asr va XIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrga oid topilmalar juda oz miqdorda va yaxshi saqlanmagan.

Xarashkat (خرشت) — ash-Shosh daryosi bo'yidagi Banokatdan 1 farsax, Binkatdan 9 farsax masofada joylashgan. X asrda ash-Shosh viloyatida kattaligi bo'yicha Binkatdan keyin ikkinchi shahar bo'lgan<sup>1</sup>. Boshqa manbalarda uning nomi Xarashkat (خرشت)<sup>2</sup>, "Hudud al-

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛ Ibn Hawqal Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 510, 522.

<sup>2</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. – قاهرة، 1961. ص 185؛

olam”da esa Xarsankat (حرسنك) shaklida ham keltirilgan. Bu yerda mashhur “chochiy” kamonlar ishlab chiqarilgan<sup>1</sup>. Bu shaharning nomi so‘g’dcha xrs – “tortmoq” va kat – “qishloq” so‘zlaridan yasalgan<sup>2</sup>. Bu shaharning xarobalari Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanida Chirchiq daryosining Sirdaryoga quyilish yeridan 8 km sharq tomonda joylashgan bo‘lib, Qanqa deb ataladi. Shahar uch qismdan iborat bo‘lib, 150 ga yaqin maydonni egallagan. Arablar bosqiniga qadar bu shahar butun Choch vohasining poytaxti bo‘lgan<sup>3</sup>. Bu shahar miloddan avvalgi IV-III asrlarda vujudga kelgan bo‘lib, oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, makedoniyalik Iskandar Tanais daryosi bo‘yida skiflarga qarshi qurdirgan Aleksandiryia Esxata nomli mudofaa qal’asi Xo‘jandda emas, balki shu yerda joylashgan bo‘lishi mumkin. O‘rta asr fors izohli lug‘atlarida Turkistonda Gang (گانگ) nomli butxona qayd

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnorum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967. P. 329; ас-Самъоний, Абу Саъд ’Абд ул-Карим ибн Мухаммад. Ал-Ансоб / ’Абд ар-Раҳмон ал-Муъаллимий нашри. 5-жилд. Байрут: Мухаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 83 б.

<sup>1</sup> "حدود العالم من المشرق إلى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132;

Худуд ал-’Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930. С. 246; Hudud al-’Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>2</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. Спб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 101.

<sup>3</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953. С. 110-112; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 31-39.

etilgan<sup>1</sup>. Ehtimol Qanqa xarobalarida topilgan ibodatxona xarobalari unga tegishli bo'lgandir.

**Xudaynkat.** Arab sayyoohlari Xarashkatdan bir farsax masofada yana bir shahar markazi – Xudaynkatni qayd etadilar. Lekin bu shahar haqidagi ma'lumotlar juda oz. Manbalarda faqatgina Chinochkat va Shuturkatga olib boruvchi yo'l Xudaynkat orqali o'tishi eslab o'tilgan.

Manbalarda ko'rsatilgan hududdagi shahar turidagi yodgorlikka oqqa'rg'on shahri qoldiqlari to'g'ri keladi. Bu shahar hozirgi shu nomdagi qishloq o'rnila bo'lib, Xarashkatdan 8 km sharqda, Ohangaron daryosining chap qirg'og'ida joylashgan.

Shahar ko'rinishi to'g'ri-to'rtburchak shaklida bo'lib g'arbdan sharqqa 700 m, shimoldan janubga 400-450 metr uzunlikda bo'lgan. Shahristonning g'arbiy qismidan juda baland doirasimon qasr qad ko'targan. Sharqiy tomondan qasrni shahriston bilan chuqur xandaq ajratib turgan. Shahar madaniy qatlami 15 metrga teng. Madaniy qatlamning yuqori qismlaridan bino va qurilmalar g'ishtdan barpo etilgan. Bu inshootlar asosan XI-XII asrlarga tegishli.

Yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsa-tadiki, shahar III-IV asrlarda paydo bo'lgan. VI-VII asrlarda bu yerda himoya inshootlari va qasr barpo etilgan. IX-X asrlarga kelib shahar kengayib, 30 ga ga yaqin hududni egallagan. Eng gullagan davrida ham Xudaynkat uncha katta bo'limgan shaharlar turiga kirgan. Bu shaharda hunarmandchilik yaxshi rivoj topmagan.

Xudaynkatdan karvon yo'li Chirchiq daryosi vodiysiga olib borgan. Xudaynkatdan eltuvchi yo'l manbalarda qayd etilganidek Shuturkat va Chinochkatga olib borgan. Shuturkat Xudaynkatdan 3 farsax uzoqlikda joylashgan.

---

<sup>1</sup> Баевский С.И. Географические названия в ранних персидских толковых словарях (XI – XV вв.) // ЧНВ, вып. 22, книга 2. М., 1980, с. 85.

Darhaqiqat bu ikki shahar yodgorliklari orasidagi masofa 17 kmni tashkil etadi.

**Xudaynkat** (خذنکت) – bu shaharcha ash-Shosh daryosi bo'yidagi Banokatdan 2 farsax, Binkatdan 8 farsax masofada Xarashkat va Usturkat orasida joylashgan<sup>1</sup>. Bu shaharchaning nomi turkiy va so'g'diy xudain / xwt'ynh – "xotun", "beka" va kat – "qishloq", "shahar" so'zlaridan yasalgan<sup>2</sup>. Bu shaharchaning xarobalari hozirgi Oqqa'rg'on qishlog'i yonida Ohangaron daryosining chap qirg'og'i yaqinida joylashgan<sup>3</sup>.

**Daxkat** (دخت) – ash-Shosh daryosi va Iloq daryosi orasida, Xosh va Tukkat orasida joylashgan<sup>4</sup>. Boshqa manbalarda bu shaharchaning nomi Zaxkat (ذخت)<sup>5</sup>, Adaxkat (ادخت)<sup>6</sup>shakllarida keltirilgan. Bu yerda

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 383؛ Ibn Hawqal Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522, 523.

<sup>2</sup>Lurje P.B. The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // SI, t. 32, fascicule 2, 2003, p. 198; Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 101, 207.

<sup>3</sup>Буряков Ю.Ф. Археологические материалы к истории Намудлыка // ИМКУ, вып. 9. Ташкент, 1972, с. 44; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 39-42.

<sup>4</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 383؛ Ibn Hawqal Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>5</sup> ас-Самъоний، أبو سعيد عبد الله كاريم بن محمد. Ал-Ансаб / 'Абд ар-Рахмон ал-Муъаллими нашри. 6-жилд. Байрут: Мухаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 11-бет.

<sup>6</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

marginush (داریي موش), ya'ni mishyak ishlab chiqarilgan<sup>1</sup>. as-Sam'oniy ma'lumotiga ko'ra, Zaxkat (ذخت) Sayhun daryosining orqasida va ash-Shosh viloyatidan tepadagi ar-Rudbor (الرذبار) nomli nohiyaning markazi bo'lib, bu yerda yana Tuvidij (تودیج) nomli qishloq ham bo'lgan. Katta daryolarning bo'yida joylashgan yerlar ar-Rudbor deb atalgan<sup>2</sup>. Uning nomi sug'dcha dx (qadimgi eronchada daha) – "er" so'zidan yoki dah qabilasi nomidan yasalgan<sup>3</sup>. Bu shaharcha hozirgi Angrendan 8 km shimoli-g'arbda Ohangaron tog'laridagi Dukentsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan<sup>4</sup>. Talas vodiysida ham Adaxkat (اذخت) nomli shaharcha bo'lgan<sup>5</sup>.

---

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 49, 265.

<sup>1</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ ، الدار التقافية للنشر، 1999 م. ص 132.

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930. С. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>2</sup> ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Муҳаммад. Ал-Ансоб / 'Абд ар-Раҳмон ал-Муъаллими нашри. З-жилд. Байрут: Муҳаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 102-бет.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 95, 231.

<sup>4</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 39; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 153-157.

<sup>5</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 2. 411 ص;

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 274.

**Arbilax** (اربلخ) – bu shaharcha Iloq va ash-Shosh daryolari orasida, Tunkatdan g‘arbda 5 farsax masofada joylashgan<sup>1</sup>. Uning nomi turkiy -laq (-lay, -lag, -lakh) affiksi yordamida yasalgan<sup>2</sup>. “Hudud al-olam”da Farg‘ona va Iloq chegarasida joylashgan Abarlig’ (ابرلخ) nomli shaharcha qayd etilgan<sup>3</sup>. Uning xarobalari Ohangaron daryosining chap qirg‘og‘ida, Aqchasoy arig‘ining boshidagi Obliq qishlog‘ining sharqiy chekkasida joylashgan. Bu shahar 80 ga maydonni egallagan, lekin uning ichida bo‘sh yerlar ham bo‘lgan. Bu yerkarda shaharga savdo qilish uchun kelgan ko‘chmanchi qabilalarning o‘tovlari joylashgan bo‘lishi ehtimol<sup>4</sup>.

**Sobliq** – Shosh vohasidagi tog‘ nomi. Ibn Havqal asarida Shosh vohasining shimoli-sharqida joylashgan Sobliq tog‘lari tilga olingan<sup>5</sup>. Ushbu nom Istaxriyning «Masolik al-mamalik» asarida Soflig‘ tarzida qayd etiladi<sup>6</sup>. V. V. Bartold ana shu yerda hozir ham Soyliq qishlog‘i borligini hisobga olib,

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 383 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l’arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>2</sup> Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 70, 83.

<sup>3</sup> "حدود العالم من المشرق إلى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-‘Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-‘Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>4</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 12, 40; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 125-127.

<sup>5</sup> BGA, II, 388

<sup>6</sup> Материалы по истории киргизов и Киргизии. С. 29

Sobliqni Soyliq shaklida o'qish lozim, deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Bizningcha, ushbu nom dastlab manbalarda uchraganidek, Sobliq shaklida bo'lib, so'ngra Sofliq, keyinchalik esa Soyliq shaklini olgan; *Sobliq~Sofliq~Soyliq*. Darvoqe, qadimgi turkchada *b~v~y* almashuvi hodisasi bo'lgan. Masalan, qadimgi turkcha *eb~ev~uy* «uy», *sub~suv~suy* «suv», *teba~teva~tuya* «tuya» kabi. Bundan tashqari, Ma hmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida Yettisuvdag'i turkiy qabilalardan tuxsi va chigillarning shaharlaridan biri Soblig' shaklida uchraydi<sup>2</sup>. Bu esa Shosh vohasidagi Sobliq (var. Soflig') va Yettisuvdag'i Soblig' toponimlarining adash nom bo'lganligini ko'rsatadi.

**Qalas** (Keles) – Sirdaryoning o'ng irmog'i, dasht nomi. Istanriy, Ibn Havqal va «Hudud al-olam» asarlarida Shoshning shimoliy chegarasida Qalas dashti tilga olingan<sup>3</sup>. Qozoq toponimisti Ye. Qo'ychubaev fikricha, turkiycha *kele-«til»*, -s «suv» so'zining qisqargan varianti (Keles-«til suv») yoki «tilga o'xhash daryo»<sup>4</sup>. Bizningcha, Kalas nomining paydo bo'lishi qadimgi turkiy gidronimlar Talas, Irtis, Aris nomlariga o'xhash. Ya'ni, Kalas «Kala+su», Talas «Tala+su», Aris «Ari+su» kabi.

**Chatqal** – Chirchiq daryosining eng yirik irmog'i va tog'. Istanriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida j.d.g'l (Jadg'al) daryosi va viloyati tilga olingan<sup>5</sup>. Shayx Sulaymon Buxoriyning chig'atoycha-usmonli turkcha lug'atida chatqol «notekis yer, dara» deb izohlangan. Shunga yaqinroq hozirgi zamon qirg'iz

---

<sup>1</sup> Бартольд В. В. Сочинение. т. I, М., 1963, с. 229; Қораев С. Географик номлар маъноси, 113- 6.

<sup>2</sup> Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатиттурк., З-жилд, 187-6.

<sup>3</sup> BGA, I, 336; BGA, II, 388

<sup>4</sup> Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана, с. 132; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номлариинг қисқача изоҳли луғати. Т., 1977, 80-б.; Қораев С. Географик номлар маъноси, 65-66 б.

<sup>5</sup> BGA, I, 346; BGA, II, 388, 392, 395, 396; BGA, III, 48, 262

tilida chatqal — «ikki tog’ orasidagi botiq, dara»<sup>1</sup>. Demak, Chatqol toponimini «dara, tog’ orasidagi soylik» deyish mumkin. Bu so’z o’z navbatida ikki komponentdan iboratdir: *chat* – ikki daryo bir-biriga qo’shiladigan joydagi oraliq; *qal* (*qol*) esa – qandaydir qadimiy so’z, ehtimol «soy, jilg‘a» ma’nosidagi *qol* (*qo'l*) so’zining fonetik o’zgarishidir<sup>2</sup>. Chatqol toponimining turkiy ekanligini Mongoliyaning g’arbiy hududlarida turkiy Chatqaltog’ nomi uchrashi<sup>3</sup> ham tasdiqlaydi.

**Nahri Turk** — arab geograflaridan Istanxriy, Ibn Havqal asarlarida Chirchiq daryosining nomi<sup>4</sup>. Muqaddasiy asari va «Hudud al-olam» (9b, 24b-varaq)da Parak shaklida uchraydi<sup>5</sup>. Shundan kelib chiqib V. V. Bartold arab geograflari asarlarini nashrga tayyorlagan De Gue bu daryo nomini noto’g’ri o’qigan va to’g’risi Turk emas, balki Parak bo’lishi kerak, deb yozgan<sup>6</sup>. S. Qoraev, bu fikrga qo’shilmay, Chirchiq daryosi Firdavsiy «Shohnoma»sida ham T. r. k shaklida yozilganligi va Istanxriy asarida yanada aniqroq shaklda Nahri Turkiston yozilgan deb ta’kidlaydi<sup>7</sup>. Uning fikricha, Chirchiq daryosi qadimda va so’nggi davrgacha Parak va Turk deb yuritilgan.

**Olmaliq** – qishloq. VIII asr birinchi choragiga taalluqli Mug’ tog’i sug’diy hujjatlaridan B1 raqamli hujjatda ’δmδwk (Almalyk) shaklida uchraydi<sup>8</sup>. O. I. Smirnova uni turkiy «almaliq» (olmali) so’zi bilan aloqali hisoblaydi<sup>9</sup>.

---

<sup>1</sup> Юдахин . Киргизско-Русский словарь. М., 1965, С. 851

<sup>2</sup> Қораев С. Географик номлар., 142-143 б.

<sup>3</sup> Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. Т., 1985, 111-б.

<sup>4</sup> BGA, I, 344-345; BGA, II, 383, 404-405; Буряков Ю. К истории раннесредневекового Чача, с. 16

<sup>5</sup> BGA, III, 52, 423, 454

<sup>6</sup> Бартольд В. В. Сочинения т. 1, М., 1963, с. 220, пр. 1

<sup>7</sup> BGA, I, 344; Қораев С. Географик номлар., 97 б.

<sup>8</sup> Согдийские документы с горы Муг. Чтение. Перевод. Комментарий. Вып. 3. Хозяйственные документы. Чтение, перевод и комментарии М.Н. Боголюбова и О.И. Смирновой. М., 1963, с. 44, 45, 101

<sup>9</sup> Согдийские документы с горы Муг. Вып. 3., с. 101

## Shimoliy karvon yo'lidagi shaharlar tarixiy geografiyası

Chirchiq daryosining chap qirg'og'iga borib, janubiy karvon yo'li shimoliy karvon yo'liga qo'shilgan. Ilk manbalarni kuzatadigan bo'lsak, bu yo'l Chinochkat va yoki Shuturkatga olib chiqqan.

**Najokat.** Yozma manbalarda Sirdaryo bo'yida joylashgan Unjakat yoki Najokat komi qayd qilingan. Arab mualiflari, jumladan X asr geografi Istaxriy bu haqda quyidagi larni yozadi: Unjakat – Shosh (Sirdaryo) bo'yida joylashgan. Uning atrofida Parak (Chirchiq) suvi to'planadi. Ibn Xavqalning ma'lumotiga ko'ra Turk daryosi Najokat shahri yaqinida Choch daryosiga quyilgan. Shahar shu bilan diqqatga sazovorki, unda faqat karvon yo'llari bilan kelgan mollarni Sirdaryo va Chirchiqdan "Shosh va Parak daryolaridan o'tkazib qo'yuvchi qayiqchilar" yashagan.

Shaharni o'rganish u juda ilgari, ya'ni IX asrlarda barpo etilganligini ko'rsatadi. Shaharning eng gullagan davri X-XII asrlarga to'g'ri kelgan. Ma'lum bo'lishicha, bu yer Sirdaryodan o'tish uchun eng qulay joy hisoblangan. Sirdaryo va Chirchiqdan mol olib o'tadigan kemachilar ham shu yerda istiqomat qilishgan. Shahar qal'asi har ikki qirg'oqni muhofaza qilib turardi. Bu yerda jazirama cho'ldan yurib kelgan karvon azim Choch daryosidan kechib o'tishdan oldin hordiq chiqarish uchun dam olgan. Unjakat nomi faqat X-XII asrlar tarixiy manbalaridagina emas balki XV asrning xo'jalik vaqf hujjatlarida ham qayd etilgan. Jumladan, XV asr diniy arbobi Hoja Ahror Valiy yerlarini ro'yhatga qayd qilish vaqtida uning Toshkentdagи mulklari qatorida Sirdaryo va Chirchiq shahobchalari oralig'idagi "Mulki Ujokati Labi-ob" ham tilga olinadi. Darhaqiqat bizgacha yetib kelgan Uljakat nomi oldingi nomni bir oz buzib talaffuz qilinganidir.

Shimoliy karvon yo'lidagi eng birinchi yirik shahar deb tarixchilar Chinochkatni belgilaydilar. Biroq, Sirdaryo

bo'yida, unga Chirchiq daryosi quyiladigan yerda yana bir shahar - Najokat yoki Unjakat shahri ham bo'lgan. Istaxriy ma'lumot berishicha, bu shaharcha "Turk daryosi suvlari yig'iladigan Choch daryosi vodiysida joylashgan. Shahar Banokatdan 3 farsax uzoqlikda." Ibn Xavqal ma'lumotiga ko'ra, "Turk daryosi Choch daryosiga Najokat shahri yaqinida quyiladi."

Najokat shaharchasi kvadrat shaklida bo'lib, 430X550 metr hududni egallaydi. Shaharchaning shimoli-sharqiy qismida 55X55 metrga teng qasr mavjud bo'lgan. Qasr shaharning qolgan hududidan xandaq bilan ajratib, o'rab olingan. Uning janubi-g'arbiy tarafida shahriston joylashgan. Shahriston 230X270 metr hududni egallagan. Yana bir xandaq shahristonni keyingi himoyalangan hududdan ajratib turgan.

Najokat (نجاکت) - bu shaharcha Turk (Barak) daryosining ash-Shosh daryosi bilan qo'shilish yerida, Banokatdan uch farsax masofada joylashgan<sup>1</sup>. "Hudud al-olam"ga ko'ra (uning nomidagi birinchi va ikkinchi harflar nuqtasiz keltirilgan — دھاكت) bu yerda mashhur "chochiy" kamonlar ishlab chiqarilgan<sup>2</sup>. XV asrga oid bir hujjatda uning nomi Ujokat Labiob mulki shaklida qayd etilgan<sup>3</sup>. Bu shaharchaning xarobalari Chirchiq daryosining Sirdaryoga quylish yeridan 1,2 km sharqda, hozirgi Qolgan Chirchiq qishlog'idan 3,5 km janubdagi Gul

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 383؛  
Ibn Hawqal Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 509, 523.

<sup>2</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار التقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>3</sup> Кутбаев З.А. Интересный документ по аграрной истории Средней Азии // ОНУ, 1968, № 12, с. 36.

qishlog‘i yonida joylashgan<sup>1</sup>. XX asr boshlarida bu qishloq Uljakat deb atalgan<sup>2</sup>.

**Chinochkat** – X asrda bu shahar g‘arbdan Chochga boradigan ikki yo‘l – janubiy va shimoliy yo‘l qo‘sila-digan joy bo‘lgan. Shahar vodiyning cho‘l bilan chegerasi-da turgan. Arab geograflari, chunonchi, Istanriy va Ibn Xavqal Chinochkatning asosiy xalq ommasi “kigiz uylarda”, ya’ni o’tovlarda istiqomat qiladilar, deb qayd qilib o’tganlar. Istanriyning ma’lumot berishicha Chinochkat (Jinojkat) Turk daryosining bo‘yicha joylashgan bo‘lib, Choch daryosidan 2 farsax uzoqlikda bo‘lgan.

O’rta asr Chinochkati – ko‘hna shahar, dehqonchilik va chorvachilik madaniyati yaqindan aloqada bo‘lgan shaharning yorqin namunasi. Agar Chirchiq irmog‘idan vodiyning yuqorisi bo‘ylab yursak, Chinoz shahrining sharqiy chekkasida shaharning yirik xarobalari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Ko‘hna shahardan uning markaziy, ya’ni ark va shimoliy hamda sharqiy tomonining mudofaa devorlari qolgan xolos. Shaharning saqlangan qismidan XI-XII asrlarda barpo etilgan uylar, uylarda ajoyib sirlangan idishlar, metalldan ishlangan mehnat quroli hamda turli buyum qoldiqlari topildi. Shaharning mudofaa devorlari o‘rtasida yo‘lak bo‘lib, mudofaa vaqtida undagi yo‘ldan himoyachilar dushmanga ko‘rinmasdan harakat qilishlari mumkin edi. Shahar taxminan bir yarim ming yil oldin barpo etilgan. Qal’a oldida qadimiylar jarliklar va Chirchiq shoxobchasining qoldiqlari ochilgan. Qal’a mahalliy muhit

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 43-47.

<sup>2</sup> Вяткин В.Л. К исторической географии Тошкентского района // Туркестанские ведомости. Ташкент, 1900, № 101; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. Т. 1. М., 1963, с. 227.

bilan juda monand bo'lganligi uning mudofaa qobiliyatini oshiradi. Qal'a devorlari turklarning eftalitlarga qarshi olib borgan urushlariga ham, Arab xalifaligining fatxiga ham bardosh bergan. Deyarli 25 ga yerni egallagan qal'a tarqoq ilk feodal davri uchun juda ham katta hisoblanadi. Lekin O'rta Osiyoda Somoniylar hukmdorligi vaqtida IX-X asrlarda markazlashgan davlatning shaharlari savdo va hunarmandchilik markazi sifatida gullab yashnagan bir vaqtida qal'a yangi Chinochkat uchun torlik qila boshladi. Mudofaa devorlari hunarmandlar mahallalarining siquviga bardosh bera olmadi. Bosqinchilar qo'lidan kelmagan ishni tinch hayot amalga oshiradi. Qal'aning mudofaa devorlari yangi uylar tagida qolib ketdi. Qal'a deyarlik uch marotaba kengaydi.

Sharq tarixshunos olimlari Chinochkat Binokatda bo'lganidek "aholisining beqarorlik ruhda bo'lganligi uchun" ham shahar devorlariga ega bo'lmanligi haqida ma'lumot berishgan. Arxeolog olimlarga ko'plab boshqa ko'hna shaharlarga nisbatan Chinochkatni o'rganish mushkulroq hisoblangan. Chunki, u bugungi kunda ham hayottdir. Bu esa o'z navbatida uning qadimgi chegaralarini aniqlash ishlarini qiyinlashtiradi. Bu yerdan X-XI asrning sirlangan sopol idishlari bilan birga sof kumushdan ishlangan bir juft bilaguzuk hamda tangalar topildi. Mazkur tangalar, asosan, ming yil oldin, ya'ni X asrning birinchi yarmida zarb qilingan ekan. Ular orasida Eron shaharlarida zarb qilingan tangalar ham uchraydi. Lekin tangalarning ko'pi O'rta Osiyo shaharlarida zarb qilingan.

Chochning shimoliy va janubiy karvon yo'llarini birlashtiruvchi Chinochkat orqali ipak va zardo'zlik matolari, nozik shisha idishlar hamda qimmatbaho buyumlar ortilgan karvonlar ham o'tardi. Ehtimol, shu yerda egar, yoy va o'q, metalldan ishlangan mahsulotlar, yungdan to'qilgan matolar va gilamlar, sopol va metall idishlar ortgan maxsus karvon tuzilgan bo'lsa kerak.

Choch mollari yuqori bahoda yurgan. Lekin Choch konlaridan olingan sof kumushdan tayyorlangan og'ir dirhamlar ulardan ham yuqori baholangan.

Chochning yirik tog' konida tangani zarb qilingan joy va sanasini, hukmdor ismini ko'rsatadigan maxsus davlat zarbxonasi bo'lgan. Hozirda bu tangani Shvetsiya va Norvegiyada, Novgorod va G'arbiy Yevropaning shaharlarda, hatto Shimoliy Islandiyada ham uchraydi.

Chinochkatdan topilgan tangalarning asosiy qismi X asrning ikkinchi yarmida Somoniylar hukmdori Nux bin Nasr va uning o'g'li Mansur bin Nux davrida zerb qilingan.

**Jinonjkat** (جينانجكت) –Vinkarddan Binkatga olib boruvchi yo'lda, ash-Shosh daryosidan 2 farsax masofada joylashgan<sup>1</sup>. Uning qal'asi (حصن) yo'q, binolari yog'och va xom g'ishtdan qurilgan<sup>2</sup>. So'g'd tilidagi manbalarda bu shaharning nomi cyn'ncknd shaklida qayd etilgan bo'lib, "Xitoyliklar shahri" ma'nosini bildiradi<sup>3</sup>. X asrda Tug'uzg'uz mamlakatidagi Turfan (Xocho) shahri ham shunday atalgan<sup>4</sup>. Bu shaharchaning nomi esa hozirgacha

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 383؛ Ibn Hawqal Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>2</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Maqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 227.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 41, 90, 97.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 17; Hudud al-'Alam, The regions of the World

Chinoz shaklida saqlanib qolgan, uning xarobalari esa Chinoz qishlog'ida joylashgan<sup>1</sup>. Shahar uch qismidan iborat bo'lgan va taxminan 50 ga maydonni egallagan. Lekin uning ichida bo'sh yerlar ham bo'lgan. Bu yerlarda shaharga kelgan ko'chmanchi qabilalarning o'toqlari joylashgan bo'lishi ehtimol<sup>2</sup>.

**Shuturkat.** Chochga eltuvchi yo'lda Chinochkatdan keyin Shuturkat shahri nomi tilga olinadi. O'rta asrlarda, xususan Somoniylar davrida bu yirik shahar bo'lib, Chochda kattaligi jihatidan Binkat va Xarashkat poytaxtlaridan keyin turgan. Ibn Xavqalning ma'lumotiga ko'ra bu shahar Chirchiq bo'yida, Xudaynkatdan 3 farsax uzoqlikda joylashgan. Muqaddasiyning ma'lumot berishi-cha, Shuturkat yaxshi mudofaalangan, yirik hamda chiroyli yopiq tim-bozorlariga ega katta shahar bo'lgan.

Uning xarobalari Chirchiqning o'ng qirg'og'ida Eski Toshkent degan joyda ochib o'rganilgan. Bugungi kunda Chirchiq daryosi shaharni deyarli butunlay yuvib ketgan.

Shuturkat yoki Suturkat (شُتُوركَت) – boshqa manbalarda bu shaharchaning nomi Usturkat (استورکش) shaklida keltirilgan, u Binkatdan 3 farsax, Banokatdan esa 5 farsax<sup>3</sup> yoki 4 farsax masofada Turk (Chirchiq) daryosi

---

/ A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 94.

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. Т. 1. М., 1963, с. 227.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 47-51.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 383  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

bo'yida joylashgan<sup>1</sup>. Kattaligi bo'yicha u Binkat va Xarashkatdan keyin turgan<sup>2</sup>. Uning maydoni Binkat bilan deyarli teng bo'lib, qal'asi (حصن) ham bo'lgan. Unda oqar suv va chiroylit timlar bo'lgan<sup>3</sup>. Boshqa manbalarda uning nomi Ushturkat (اشتوركت)<sup>4</sup>, Shuturkat (شتوركت) va Shuturkat (شاكللاردا ham uchraydi. Unda mashhur "chochiy" kamonlar ishlab chiqarilgan<sup>6</sup>. Uning nomi sug'dcha stwr - "tuya" va kat - "shahar", "qishloq" so'zlaridan yasalgan<sup>7</sup>. Bu shaharchaning xarobalari

<sup>1</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 383 ص؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 510.

<sup>3</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>4</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 49, 264, 276.

<sup>5</sup>Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>6</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار التقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>7</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 100.

Toshkent shahridan janubda Paxta temir yo'l bekati yaqinida Chirchiq daryosining o'ng qirg'og'ida Kirshovul qishlog'i qarshisida joylashgan bo'lib, Eski Toshkent deb ataladi<sup>1</sup>.

**Danfag'onkat.** Binkatga eltuvchi yo'ldagi keyingi shahar Danfag'onkat shahridir. U Shuturkatdan sharq tarafga 2 farsax uzoqlikda joylashgan.

Danfag'onkat shahrining joylashgan yeri hozirgi kunda Niyozboshi yaqinidagi Yo'g'ontepa shaharchasida, Yangiyo'l temir yo'l stansiyasidan 4 km sharqroqda qayd etilgan. Yo'g'ontepa shaharchasi Chirchiq bo'yida joylashgan bo'lib, diametri 150 metrqa teng qasrga ega bo'lgan. Unga janubi-g'arb tarafdan 420X400 metr hududni egallovchi qal'a qo'shilib ketgan. Qal'a janubi-g'arb tarafdan shimoli-sharq tarafga cho'zilib borgan. Qal'a devorlarining balandiligi 6 metrqa teng bo'lgan. Devorlarda uch tarafdan – shimoliy, g'arbiy va sharqiy darvozalarning izlari mavjud.

Danfag'onkat (دنغانكت) – Xarashkatdan 6 farsax, Binkatdan 3 farsax masofada joylashgan shaharcha<sup>2</sup>. "Hudud al-olam"da uning nomi D.n.m.'on kat () shaklida qayd etilgan (ikkinchi harfning nuqtasi qo'yilmagan). X asrda bu shaharcha Sug'd va Samarqand, shuningdek, Farg'ona va Iloq mollarining to'planadigan yeri bo'lgan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. Т. 1. М., 1963, с. 220; Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 73; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 51-52.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>3</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Uning nomi sug'dcha din fayn kat – "iyomon ibodatxonasi shahri"<sup>1</sup> yoki dn fy'n knoh – "xudolar shahri" so'zlaridan yasalgan bo'lishi mumkin<sup>2</sup>. Agar bu shaharchaning nomi Danmug'onkat (دنغانکت) bo'lsa, bu nom "mug'lar shahri" ma'nosini anglatadi. Bu shaharcha hozirgi Yangiyo'l shahridan 4 km sharqda, Niyozboshi qishlog'i yonida joylashgan bo'lib, Yo'g'ontepa deb ataladi<sup>3</sup>.

**Zaltikat.** Shimoliy karvon yo'lidagi keyingi shahar nomi Zaltikat nomi bilan qayd etiladi va bu shahar Danfag'onkatdan 1 farsax uzoqlikda joylashgan. Arab geograflarining qayd etishicha bu shahar Shuturkatdan 3 farsax, Binkatdan 2 farsax uzoqlikda bo'lgan.

Binkatdan xuddi shu uzoqlikda (ya'ni 2 farsax uzoqlikda) yana bir shahar Banunkat shahri qayd etiladi. V.V.Bartold fikricha bu nom shu shaharning ikkinchi nomi, yoki bir xil uzoqlikdagi ikki yonma-yon shaharlardir. Bu fikrlarning ikkinchi haqiqatga yaqinroq hisoblanadi. Chunki bu hududda bir-biriga yaqin bo'lgan ikki shaharning qoldiqlari mavjud. Zaltikat shahrining hozirgi kundagi o'rni Zangiota shaharchasi (Moytepa) hisoblanadi.

**Banunkat.** Bu shaharcha haqidagi ma'lumot juda kam saqlangan. Mazkur hududda o'rganilgan yodgorliklardan Banunkat qoldiqlariga to'g'ri keluvchisi faqatgina Toshkentning janubi-g'arb tomoni Nog'ayqo'rg'on qishlog'idagi Qo'g'aytpea shaharchasidir. Shaharcha Zangiotadan 2 km uzoqlikda joylashgan. Lekin karvon yo'li

---

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>1</sup> Смирнова О.И. Первые монеты Уструшаны // ЭВ, вып. 20. Л., 1971, С. 102.

<sup>2</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 96.

<sup>3</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975. С. 52-55.

Binkatning Samarqand darvozasiga bundan shimalroqdan o'tgan bo'lishi ham mumkin.

**Binkat.** Vohaning o'rta asrlardagi poytaxti – Binkatga yo'l Yugantepadan Zoltikat va Banunkat shaharlari orqali o'tardi. XI asrdan e'tiboran Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan Binkat yangi turkcha nomi Toshkent deb atala boshladi. Shahar qadimgi joylashgan o'rni Hamza, Chorsu, Qalandarxona, Gulbazor ko'chalari o'rtasidagi 15 ga yaqin maydonni egallaydi. 1969 yilda M.Massaon tomonidan qayd qilingan. Madaniy qatlam materiallari XI-XIX asrlarni o'z ichiga oladi.

Shosh shaharlarining nomlari va ular oralig'idagi masofalar haqida yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan sharqshunos olim V.V.Bartold Shoshning IX–XII asrlardagi poytaxti – Binkat hozirgi Toshkentning ornida bo'lgan degan fikrni birinchi bo'lib aytgan edi. Toshkent shahrining tarixiy topografiyasini o'rgangan M.E.Masson esa, Binkat Toshkentning aynan hozirgi «Eski shahar» deb atalgan qismiga to'g'ri keladi, deb hisoblaydi. Poytaxtimizning ushbu qismida keyingi yillarda qad ko'tarayotgan ulkan qurilishlar munosabati bilan keng ko'lamda olib borilgan arxeologik kuzatishlar va qazish ishlari M.E.Masson fikrini to'la tasdiqlamoqda.

Yozma manbalardan keltirilgan ma'lumotlar va arxeologik tadqiqotlardan aniq bo'lishicha, Binkat shahrining o'rni Toshkentning to'rt dahasi (tumani)dan, asosan uchtasi: Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och hududlarida joylashgan bo'lib, u alohida-alohida qalin devorlar bilan o'rabi olingan to'rt qism: ark (o'rda), shahriston – shaharning asosiy qismi hamda ichki va tashqi rabotlardan iborat bo'lgan. Yozma manbalarda ichki rabot – rabot aldohil, tashqi rabot esa rabot al-xorij nomlari bilan tilga olinadi. Shaharning bo'yisi ham, eni ham bir farsax (6-7 kilometr) uzunlikka teng bo'lgan.

Shaharning markazi hisoblangan ark va shahriston qismlari hozirgi Toshkentning Zarqaynar va Navoiy ko'chalari, Chorsu maydoni, Chorsu bozor hamda Eski Juva maydonida joylashgan bo'lib, arkning umumiy sahni 1 hektar. Shahristonning maydoni esa 15 hektarga teng bo'lган. Bu hudud shaharning hozirgi mikrorelefida do'nglik bo'lib ko'zga tashlanadi<sup>1</sup>. Bu do'nglik shubhasiz o'z davrida gullab-yashnagan Binkat shahrining vayronalaridan hosil bo'lган madaniy qatlamlarini o'z bag'rida hozirgi kungacha saqlab kelmoqda. Bu yerdan topilgan va topilayotgan moddiy-madaniyat izlari va arxeologik topilmalar IX-XII asrlardagi Binkat shahrining qiyofasi, hunarmandchiligi, madaniyati va uning atrof viloyatlar bilan olib borgan savdo-sotiq munosabatlarini o'rganishda tadqiqotchilar qo'liga nodir va nihoyatda qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda<sup>2</sup>.

X asr yozma manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Binkat arkining ikki darvozasi bo'lib, ulardan biri orqali shahristonga va ikkinchisi orqali rabotga chiqilgan. Shahristonning Abul Abbos, Qasr va Gunbaz deb atalgan uchta darvozasi bo'lган. Bu darvozalardan biri shahristonning sharqiy tomonida bo'lib taxmin qilinishicha, u hozirgi O'zbek drama teatri binosi oldida joylashgan. G'arbdan Sharqqa tomon shaharni kesib o'tgan asosiy yo'l shu yerda tugagan. Shunga asoslanib ayrim tadqiqotchilar o'sha paytlarda shahristonning sharqiy darvozasi tashqarisida joylashgan maydon Xadiroh (Xad - chegara, roh - yo'l, ko'cha) ya'ni yo'lning oxiri deb yuritilgandir, keyinchalik bu joy xalq tilida Xadra bo'lib ketgan deb, izohlaydilar. Qadimda bu

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Ист.-археол. очерк Чача и Илака) Ташкент: Фан. – 1975, с. 15

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф., Қосимов М.Р., Ростовцев О.М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. Тошкент: Фан – 1975, 47-бет.

maydon Registon nomi bilan mashhur bo'lgan. Aslida Xadra so'zi adirli yer ma'nosini anglatgan. Balki shahristonning sharqiy darvozasi orqali o'tgan yo'l shaharning baland qismi – adirlikdan yo'nalgandir.

Shahristonning ikkinchi darvozasi eski tovoq bozorida, uchinchi darvozasi esa, Chorsudagi qandolat bozoriga chiqish yerida bo'lgan. Binkat ichki rabotining Xumdon, Ohanin (temir qoplangan), Mir – (amir), Farkon (Anhor bo'yи); Karmanj, Ko'yi Saxl, Roshidijak, Ko'yi Xoqon, Ko'shki dehqon deb atalgan o'nta darvozasi bo'lgan. Tashqi rabotga qal'a devori bo'ylab o'rnatilgan Fargad (Parkat) Xashkat yoki Xushkat (Yaxshi mahalla), Sangdijak (Sangdizak), Ohanin, Bakrdijak, Sakrak, Bofaryad nomli yetti darvozalaridan kirilgan.

Shahar hokimining saroyi, qamoqxona, chaqa va tangalar so'qib chiqariladigan zarbxona arkning ichida bo'lib, jome machit uning tashqarisida joylashgan. Hunarmandlarning mahalla-ko'ylari, amirlarning qarorgohlari, yerdor mulk egalarining ko'shk va qo'rg'onlari va bozorlar Binkatning shahriston, ichki va tashqi rabot qismlarida bo'lgan. Ayniqsa bozorlarning ko'pi ichki rabotda joylashgan.

Binkat (بنكت) – Choch viloyatining islom davridagi poytaxti, X asrda katta, rivojlangan va gullab-yashnagan shahar bo'lgan. Uning nomi Bikat (بيكت) shaklida ham qayd etilgan<sup>1</sup>. Uning nomi so'g'dcha pyn – "ochmoq", pn – "uzun" va kat – "qishloq", "shahar" so'zlaridan yasalgan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132.

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930. С. 246; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>2</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 96

Abu Rayhon Beruniyning ma'lumotiga ko'ra, Binkat shahri turkchada Toshkand (تاشکند), yunonchada esa "tosh qal'a" deb atalgan<sup>1</sup>. Maxmud Koshg'ariyga ko'ra, ash-Shosh viloyatining bosh shahri Toshkandning nomi turkchada "tosh shahar" ma'nosini bildiradi<sup>2</sup>. Islomdan oldin Binkat shahri Shimoliy vokzal yonida, Salor arig'ining bo'yida joylashgan Mingo'rik xarobalari o'rnida va uning atroflarida bo'lgan. Bu yerda joylashgan shaharda hayot milodiy I asrdan boshlab VIII asrning o'rtalariga qadar davom etgan. Shahar qal'a va shahristondan iborat bo'lgan va taxminan 30 ga maydonni egallagan. Hozir uning faqat kichik bir qismi saqlanib qolgan. Bu yerda VI – VIII asrlarga mansub hashamatli hukmdor saroyi qazib topilgan<sup>3</sup>. Shahar arablarning fath urushlari davomida vayron etilgan. IX asrda yangi shahar Mingo'rikdan 4,5 km shimoli-g'arbda qayta qurilib, Toshkentning eski shahar qismida, ya'ni Zarqaynar va Navoiy ko'chalari, Chorsu maydoni va bozori, Eski Jo'va o'rnidagi 16 ga maydonda

---

<sup>1</sup>Бируни, Абу Рейхан. Индия / Перевод с арабского А.Б.Халидова и Ю.Н.Завадского. Коментарии В.Г.Эрмана и А.Б.Халидова // Избранные произведения. Т. 2. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1963, с. 271;

3. ابو الريحان البيرونى، "القانون المسعودى"، مج (3)، بيروت، 1954 م. 169 ص؛

Беруни, Абу Рейхан. Канон Mac'uda (книга I-V) / Вступительная статья, перевод и примечания П.Г.Булгакова и Б.А.Розенфельда при участии М.М.Рожанской (перевод и примечания) и А.Ахмедова (примечания) // Избранные произведения в 7 томах. Т. 5. Ч. 1. Ташкент: Фан, 1973, с. 471; Беруни, Абу Рейхан. Канон Mac'uda (книга VI-XI) / Перевод и примечания Б.А.Розенфельда и А.Ахмедова // Избранные произведения. Т. 5. Ч. 2. Ташкент: Фан, 1976, с. 576.

<sup>2</sup> Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. З жилдлик. Тошкент: Фан, 1960-1963, 164, 414 бетлар.

<sup>3</sup> Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983, с. 78-90, 153-163.

joylashgan<sup>1</sup>. Arxeolog olimlarning fikriga ko'ra, Turk hokonligi davrida, ya'ni VI – VIII asrlarda, Mingo'rik xarobalari o'rnidagi shahar butun Choch vohasining poytaxtiga aylangan edi<sup>2</sup>. Bu fikr o'z vaqtida sharqshunos olim O.G.Bolshakov va V.A.Bulatova tomonidan tanqid qilingan edi. Bizning fikrimizcha ham, bunday xulosa chiqarish uchun asoslar yetarli emas. Birinchidan, Qanqa xarobalari bu davrda 150 ga maydonni egallagan bo'lib, vohadagi eng yirik shahar bo'lган<sup>3</sup>, Mingo'rik xarobalari o'rnidagi shahar esa – 30-35 ga. Ikkinchidan, bu davrda Choch vohasida zarb etilgan barcha tangalarning deyarli 90 % qismi Qanqa xarobalaridan topilgan. Migo'rik xarobalarida esa tangalar juda kam miqdorda topilgan. Undan tashqari ko'p sonli mavjud tangalardagi yozuvlarda Binkat nomi uchramaydi, demak bu shaharda tangalar umuman zerb etilmagan. Demak, VI – VIII asrlarda Choch vohasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi vohaning qadimgi poytaxt shahri Qanqa xarobalari o'rnidida qolgan. Mingo'rik xarobalari o'rnidagi Binkat esa voha chegarasidagi mudofaa qal'asi bo'lib, faqat harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lган. Ehtimol, bu shaharcha turk xoqonlarining Choch vohasidagi noiblari –

---

<sup>1</sup> Массон М.Е. К истории добычи асбеста в Средней Азии // Известия АН УзССР. 1954, № 2, с. 110-111; Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Ростовцов О.М. Археологические памятники Ташкентского области. Ташкент: Фан, 1973, с. 44.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 65-66; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982, с. 130-132; Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983, с. 181-186.

<sup>3</sup> Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982, с. 127.

tudunlarning qarorgohi bo'lgan, Minghrikda ochilgan hashamatli saroy esa ularga tegishli bo'lgan.

Binkat qal'asi shahristonning shimoliy qismida, Eski shaharda sobiq "Spartak" stadionidan shimoldagi Registon va Jangob ariqlari, Zarqaynar ko'chasidan Eski Jo'va va Abdulla Qodiriy istirohat bog'ining shimoliy darvozasigacha bo'lgan hududda alohida devor bilan o'rالgan bo'lgan. Taxminan 1 ga maydonni egallagan<sup>1</sup>.

Binkat madinasi yoki shahristoni uchburchak shaklda bo'lib, Chorsu bozori va maydoni, Ko'kaldosh madrasasi, Abdulla Qodiriy nomidagi istirohat bog'i, Hadra maydoni, Taxtapul, Navoiy va Labzak ko'chalarini o'z ichiga oluvchi devor bilan o'rالgan 15 ga maydonni egallagan<sup>2</sup>.

Binkatning ichki rabadi g'arb tomonda ko'kcha dahasi, Kallaxona mahallasi, Beruniy ko'chasi, Xiyobontepa, Chig'atoy qabristoni va Kaykovus arig'i atroflarini o'z ichiga olgan<sup>3</sup>.

Binkat tashqi rabodi shimol tomonda Sebzor dahasi va Hazrati Imom majmuasi, Beshyog'och dahasining bir qismi, hozirgi Xalqlar do'stligi maydoni, Olmazor mavzesi,

---

<sup>1</sup> Массон М.Е. Прошлое Ташкента (Археолого-топографический и историко-архитектурный очерк) // Известия АН УзССР, 1954, № 2, с. 110; Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983, с. 153.

<sup>2</sup> Массон М.Е. Прошлое Ташкента (Археолого-топографический и историко-архитектурный очерк) // Известия АН УзССР, 1954, № 2, с. 110; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 68. Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983, с. 153-156.

<sup>3</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 68. Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983, с. 157-159.

Kamolon qabristoni, Beshyog'och va Samarqand darvoza ko'chalarini o'z ichiga olgan<sup>1</sup>.

Binkat Kuhandizining ikkita darvozasi bo'lган: biri rabot tomonga, ikkinchisi madina tomonga qaragan. Madinaning devorida uchta darvoza bo'lган. Ulardan biri – Bob Abu-l-Abbos, ikkinchisi – Bob Kasir, uchinchisi – Bob al-Junbad deb atalgan. Birinchi rabodda o'nta darvoza bo'lib, ularning biri Bob Rabot Hamdayn, ikkinchisi – Bob al-Hadid, uchinchisi – Bob al-Amir, to'rtinchisi – Bob al-Farxon, beshinchisi – Bob Surkada, oltinchisi – Bob Karmonj, yettinchisi – Bob Sikkat Sahl, sakkizinchisi – Bob Roshdijoq, to'qqizinchisi – Bob Sikkat Xoqon, o'ninchisi – Bob qasr ad-Dixqon deb atalgan.

Tashqi rabadda yettita darvoza bo'lган. Ular quyidagilar: Bob Farg'ad, Bob Xoshkat, Bob Sakandijoq, Bob al-Hadid, Bob Bokardijoq, Bob Sakrak va Bob Darb-i Faryod.

Bob Abu-l-Abbos (باب ابى العباس) — Abu-l-Abbos darvozasi, bu darvozani Abu-l-Abbos Yahyo ibn Asad ibn Somon-xudot qurdirgan bo'lsa kerak. Chunki u 209/819 yilda xalifa al-Ma'mun ko'rsatmasiga binoan ash-Shosh va Ushrusana amiri etib tayinlangan edi<sup>2</sup> va shu yerda 241/855/56 yilda vafot etgan edi<sup>3</sup>. Uning 227-241/841-855 yillarda "madinat ash-Shosh", ya'ni Binkatda erb

---

<sup>1</sup> Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983, с. 159-162.

<sup>2</sup> Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-тарих. Польный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. Ташкент: Узбекистан, 2006, с. 66.

<sup>3</sup> ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Мухаммад. Ал-Ансоб / 'Абд ар-Раҳмон ал-Муъаллимий нашри. 8-жилд. Байрут: Муҳаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 13-б.

etgan mis tangalari ma'lum<sup>1</sup>. Yahyo ibn Asad umrining oxirigacha jami 37 yil Binkatda yashagan va bu yerda qurilish ishlari olib borganligi tabiiydir.

Bob Kasir (باب كثير) – Ibn Havqal asarining M. De Guye tanqidiy matnida va al-Muqaddasiy matnida bu darvozaning nomi Bob Kesh (باب كش) shaklida keltirilgan<sup>2</sup>. Bu darvozaning nomi Bob Kesh bo'lishi mumkin emas, chunki Binkatdan Keshga borish uchun Usrushana shaharlari va Samarqanddan o'tish kerak bo'lgan. Bir vaqtlar (V-VI asrlarda) Kesh shahri butun Sug'dning markazi bo'lganligi sababli bu darvoza Kesh deb atalgan bo'lishi ham mumkin<sup>3</sup>. Lekin bizningcha, uning nomi Kasir ismli shaxs bilan bog'liq bo'lgan. Kasir – qadimiy arab ismlaridan bo'lib, asosan O'rta Osiyoda fath urushlarini olib borgan arablarda uchraydi. Qutayba ibn Muslimning ham Kasir ismli o'g'li bo'lgan<sup>4</sup>. 96/714-15 yilda Koshg'arga yuborilgan arab lashkarboshisining ismi ham Kasir bo'lgan<sup>5</sup>.

Bob al-Junbad (باب الجنبد) – Ibn Havqal asarining M. De Guye tanqidiy matnida va al-Muqaddasiy matnida bu darvozaning nomi Bob al-Junayd (باب الجنيد) shaklida

---

<sup>1</sup> Добровольский И.Г., Кочнев Б.Д. Монеты с именем Саманидп Йахий ибн Асада // ИМКУ, вып. 17. Ташкент, 1982, с. 190-198.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 383 ص؛ Ibn Haukal, Abu-l-Kasim an-Nasibi. Opus geographicum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 2. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1873, p. 387; al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 224.

<sup>4</sup> at-Tabari, Abu Djafar Mohammed ibn Djarir, Annales / Ed. M.J. de Goeje, II-serie, Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1964, p. 1296.

<sup>5</sup> at-Tabari, Abu Djafar Mohammed ibn Djarir, Annales / Ed. M.J. de Goeje, II-serie, Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1964, p. 1276.

keltirilgan<sup>1</sup>. Bu darvozaning nomi forscha gumbad (گمبذ) so'zining arabcha shakli<sup>2</sup> yoki al-Junayd ismli shaxs bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 111-116/729-734 yillarda al-Junayd ibn Abdurahmon al-Murriy Xuroson amiri bo'lgan.

Bob Rabot Hamdayn (باب رباط حمدين) – ya'ni Hamdayn raboti tomonga qaragan darvoza. Uning nomi Darb Ribot Ahmad (درب رباط احمد) shaklida ham keltirilgan<sup>3</sup>.

Ichki Bob al-Hadid (باب الحديد الداخل) – ya'ni ichki Temir darvoza. Uning nomi Darb al-Hadid (درب الحديد) shaklida ham keltirilgan<sup>4</sup>.

Bob al-Amir (باب الامير) – ya'ni Amir darvozasi. Uning nomi Darb al-Amir (درب الامير) shaklida ham keltirilgan<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 383؛  
Ibn Haukal, Abu-l-Kasim an-Nasibi. Opus geographicum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 2. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1873, p. 387;  
المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>2</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 224.

<sup>3</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 410 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>4</sup> al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>5</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

Bu darvozaning nomi ham amir Yahyo ibn Asad ismi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bob al-Farxon (باب الفرخان) – uning nomi Darb Farxon (درب فرخان) shaklida ham keltirilgan<sup>1</sup>. Balki bu darvoza nomini Farkor (فرخار) shaklida o'qish kerakdir. U holda u sug'dcha brx'r – "buddaviy ibodatxona" so'zidan yasalgan bo'ladi<sup>2</sup>.

Bob Surkada (باب سورکده) – uning nomi Darb Surkada (درب سورکده) shaklida ham keltirilgan<sup>3</sup>. Bu nom arabcha sur (سور) – "shahar devori" va forscha kada (کده) – "uy" so'zlaridan yasalgan bo'lishi mumkin<sup>4</sup>.

Bob Karmonj (باب کرمابج) — al-Muqaddasiy bu darvozaning nomini Darb Karmobaj (درب کرمابج) shaklida qayd etgan<sup>5</sup>. Uning nomi o'rta fors garmabag – "hammom" yoki shu ma'noni bildiruvchi yangi fors garmoba (گرمابه) so'zi bilan bog'liq bo'lishi mumkin<sup>6</sup>.

---

<sup>1</sup> al-Maqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>2</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 224.

<sup>3</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 410 ص؟

al-Maqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>4</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 224.

<sup>5</sup> al-Maqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>6</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 180, 224.

Bob Sikkat Sahl (باب سکة سهل) – ya’ni Sahl ko‘chasi darvozasi. Arab tilida sahl (سهل) – “tekislik”, “yalanglik” demakdir. Undan tashqari Sahl (سهل) qadimiy arab ismlaridan bo‘lib, asosan VII-VIII asrlarda O‘rta Osiyoga kelgan arablarda keng tarqalgan. Bu darvozaning nomi odam ismi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Bob Roshdijoq (باب راشدیجاق) – bu darvozaning nomi turkiy jaq – “tomon”, “yoq” (Lure 2004: 224) yoki kichraytirish ma’nosini bildiruvchi -ciq (-cuq, -caq) yoki -jiq (-juq, -jaq) affiksi yordamida yasalgan<sup>1</sup>. Bu affiks hozirgi joy nomlari tarkibida ham kshp uchraydi<sup>2</sup>.

Bob Sikkat Xoqon (باب سکة خاقان) – ya’ni Xoqon ko‘chasi darvozasi. al-Muqaddasiy bu darvozaning nomini Darb Sikkat Xoqon (درب سکة خاقان) shaklida qayd etgan<sup>3</sup>. al-Istaxriy asarining o‘rta asrlarda qilingan forscha tarjimasida bu darvoza Dar-i Kuy-i Xoqon deb atalgan<sup>4</sup>. Bu darvozaning nomi shundan dalolat beradiki, bir vaqtlar uning yonida joylashgan mahallada turk xoqoniga tegishli imoratlar, ehtimol uning qasri joylashgan.

Bob Qasr ad-Dihqon (باب قصر الدهقان) – ya’ni dehqon qasri darvozasi. al-Muqaddasiy bu darvozaning nomini

<sup>1</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 650-651; Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 71.

<sup>2</sup> Савина В.И. Типы тюркских топонимов в Иране // Топонимика Востока. Исследования и материалы. М.: Наука, 1969. С. 168-169.

<sup>3</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 412 ص؛

al-Maqaddasi, Abu ’Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Keszri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>4</sup> Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 34.

Darb Qasr ad-Dihqon (درب قصر الدهقان) shaklida qayd etgan<sup>1</sup>.

Bob Farg'ad (باب فرغاد) — al-Muqaddasiy bu darvozaning nomini Darb Farag'kad (درب فرغکد) shaklida qayd etgan<sup>2</sup>. Uning nomi sug'dcha faryad – "daraxtlar orti" ma'nosini bildirishi mumkin<sup>3</sup>.

Bob Xoshkat (باب خاشکت) — al-Muqaddasiy bu darvozaning nomini Darb Xoskat (درب خاسکت) shaklida qayd etgan<sup>4</sup>. Bu darvozaning nomi Banokat (Shohruhiya) yaqinida Sirdaryo bo'yida joylashgan Xosh (خاش) yoki Xoshkat (خاشکت) shaharchasining nomi bilan bog'liq bo'lgan.

Bob Sakandijoq (باب سکنديجاق) — al-Muqaddasiy bu darvozaning nomini Darb Sandijo (درب سندجا) shaklida qayd etgan<sup>5</sup>. Bu darvozaning nomi ham kichraytirish

---

<sup>1</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>2</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>3</sup> Lurje P.B. The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // SI, t. 32, fscicule 2, 2003, p. 255.

<sup>4</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 412 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

<sup>5</sup> al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

ma'nosini bildiruvchi -ciq (-cuq, -caq) yoki -jiq (-juq, -jaq) affiksi yordamida yasalgan.

Bob al-Hadid (باب الحديد) – ya'ni Temir darvoza.

Bob Bokardijoq — (باب باكرديجاق) al-Muqaddasiy bu darvozaning nomini Darb Barkardjo (درب برکردا) shaklida qayd etgan<sup>1</sup>. Bu darvozaning nomi ham kichraytirish ma'nosini bildiruvchi -ciq (-cuq, -caq) yoki -jiq (-juq, -jaq) affiksi yordamida yasalgan.

Bob Sakrak (باب سكرك) – bu darvozaning nomi arabcha sakr (سکر) – “to'g'on” so'zining kichraytirish shakli bo'lishi mumkin.

Bob Darb-i Faryad (باب درب فرياد) – forscha “Faryodlar darvozasi”<sup>2</sup>.

ash-Shosh devori (حائط الشاش) yoki Abdulloh ibn Humayd devori<sup>3</sup> sharqda Soyliq (Sobliq) tog'laridan g'arbda Sirdaryogacha cho'zilgan. XIX asr oxirida bu devorning g'arbiy qismining Bo'zsuv arig'idan Yallama qishlog'igacha cho'zilgan bir nechta qoldiqlari qayd etilgan edi<sup>4</sup>. 1958-1962 yillarda yuborilgan maxsus

¹ المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 412 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 276.

² Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 225.

³ ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 383 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

⁴ Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 73; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы

arxeologik ekspedisiya bu devorning saqlanib qolgan qoldiqlarini o'rganib chiqib, Ibn Xavqal ma'lumotlarining to'g'riligini tasdiqladi. Kampirduvol deb ataluvchi bu devor Chirchiq daryosining har ikki qirg'oq tomonidan qadimgi sug'orilgan obod yerkarni o'rab turgan. Devorning umumiyligi uzunligi taxminan 37 km ni tashkil etgan. Devor xarobalarining eni 12-16 m, balandligi esa 1-2 m ni tashkil etadi<sup>1</sup>. Lekin Yu.F.Buryakov fikriga ko'ra, bu devor ancha shimolroqda, hozirgi Janubiy Qozog'iston hududidagi dashtlarda joylashgan<sup>2</sup>. Shunga o'xshash mudofaa devori Buxoro vohasida ham qurilgan bo'lib, Kanpirak devor deb atalgan. U devor 161/782-83 yilda Xuroson amiri Abu-l-Abbos al-Fazl ibn Sulaymon tomonidan qurdirligani edi<sup>3</sup>.

**Nujkat.** O'rta asr geograflarining ta'kidlashicha Nujkat shahri Chirchiq daryosining bo'yida, Binkatdan Farg'ona va Iloqqa ketish yo'lida joylashgan. Shahar Binkatdan janubda bir farsax masofada bo'lgan. Mazkur shahar qoldiqlari Xonabod shahri yodgorliklari bilan bog'lanadi. Xonabod shaharchasi joylashgan yer hozirgi kunda Toshkent shahrining janubida, katta halqa yo'liga yaqin yerda, Chirchiq daryosidan 500 metr uzoqlikda qayd etilgan. Shaharcha 30 ga dan ortiqroq hududni egallab, kvadrat shakldagi 570X530 metr maydonda joylashgan. Shahriston devorlari juda yomon ahvolda saqlangan. Shahristonning sharqiy burchagida to'rtburchak shakldagi qasr joylashgan.

---

развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982, с. 141-142.

<sup>1</sup> Мұхамедов Ҳ. Қадимги мудофаа деворлари. Тошкент, 1961, 41-45-б.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент: Фан, 1982, с. 142.

<sup>3</sup> Наршахий, Абу Бакр Мұхаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / Форс-тожик тилидан таржима А.Расуловники, масъул мұхаррир А.Үринбоев. Тошкент: Фан, 1966. 36-б.

**Nujkat yoki Nujakat** (نوجكت) – Binkatdan 1 farsax masofada, Tunkat yo'lida joylashgan<sup>1</sup>. "Hudud al-olam"ga ko'ra, Parak va Xashart daryolarida ishlaydigan qayiqchilar shu shahardan kelganlar<sup>2</sup>. Usrushanada ham shu nomli shahar bo'lgan. Sirdaryoning quyi oqimidagi al-Qariya al-Hadisa (القرية الحديثة), Deh-i Nav (ديه نو) yoki Yangikent (ینکى گەنت) nomli shahar Deh-i Nujikat (ديه نوجيكت) deb ham atalgan<sup>3</sup>. Isfijob darvozalaridan biri Bob Nujkat deb atalgan<sup>4</sup>. Sug'd tilidagi hujjatlarda bu shahar nwckat shaklida qayd etilgan bo'lib, uning nomi so'g'dcha nw(c) – "yangi" va kat – "shahar" so'zlaridan yasalgan<sup>5</sup>. Bu shahar hozirgi Toshkent shahridan janubda, Chirchiq daryosidan 0,5 km masofada joylashgan Xonobod xarobalari o'rnida bo'lgan deb taxmin qilingan<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 383 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>2</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>3</sup> al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 263.

<sup>4</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 383 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 510.

<sup>5</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 51, 62, 91, 99.

<sup>6</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 41-42; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса

## Tog'li hududlardagi shaharlar va ularning Karvon yo'li bilan munosabati

**Jabg'ukat** – Turk va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lidan sharq tomonda, Binkatdan 2 farsax masofada joylashgan<sup>1</sup>. Bu shaharcha o'rnida dastlab Chochning lashkargohi bo'lgan. Qudoma ibn Ja'far ma'lumotiga ko'ra, ash-Shoshdan 2 farsax masofada mudofaa devori ichida harbiy qarorgoh (معسکر) joylashgan<sup>2</sup>, Ibn Xurdodbeh esa uning o'rnida Kubol (كبال) qishlog'ini qayd etgan<sup>3</sup>. Shu bilan birga ularning asarlarida Jabg'ukat qayd etilmagan. Demak, Jabg'ukatning ikkinchi nomi Kubol bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Jabg'ukat nomi turkiy jabyu – "yabg'u" unvoni va sug'dcha kat – "shahar", "qishloq" so'zidan yasalgan<sup>4</sup>. Islomdan oldingi Chochning turkiy hukmdorlari zarb etgan mis tangalardagi sug'diy yozuvlarda cpyw – "yabg'u" va cpyw y'y'n – "yabg'u-qag'an" unvonlari qayd etilgan<sup>5</sup>. Ma'lumki, bu yuksak unvon VII-VIII asrlarda O'rta Osiyoda hukm surgan

---

(Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 69-72.

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>2</sup> قدامة بن جعفر، "الخراج و صناعة الكتابة"، دار الرشيد للنشر، بغداد، 1981 م. ص 272؛  
Kodama ibn Djafar, Accedunt excerptae Kitab al-Kharadj / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 204.

<sup>3</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>4</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 222; Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 97.

<sup>5</sup> Babayar G. Kokturk kaganligi sikkeleri katalogu. The Catalogue of the Coins of Turkic Qaghanate. Ankara: TIKA, 2007, № 4-9, 13-20, 22-26, 30-37.

G'arbiy Turk xoqonligining oliy hukmdorlariga taalluqli bo'lgan<sup>1</sup>. Bunday unvonli tangalar ham faqat Choch vohasida muomalada bo'lgan. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqadiki, turk xoqonlarining qarorgohi ma'lum vaqt Choch vohasida bo'lgan va Jabg'ukat deb atalgan<sup>2</sup>. Shunisi diqqatga sazovorki, Jabg'ukat ham Xotunkat ham Binkatdan 2 farsax masofada birg'biriga yaqin yerda joylashgan<sup>3</sup> (Ibn Xaukal 523). Ilgari Jabg'ukat Bo'zsuv qishlog'i yonidagi Niyozbektepa xarobalari o'rnida bo'lgan deb taxmin qilingan edi<sup>4</sup>. Keyinchalik Jabg'ukat xarobalari Toshkent shahridan sharq tomonda Do'rmon qishlog'idan 4 km janubda, Chirchiq daryosidan 2 km masofada joylashgan To'qaytepa deb topilgan edi<sup>5</sup>. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, Jabg'ukat Chirchiq daryosi yaqinidagi Xonobod xarobalari o'rnida joylashgan. Bu yerda katta qo'shin sig'ishi mumkin bo'lgan harbiy istehkomning qoldiqlari topilgan. Bu esa manbalarning Choch harbiy qarorgohi yoki lashkargohi haqidagi

---

<sup>1</sup> Chavannes E. Kocuments sur les Tou-Kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции, вып. 6. СПб., 1903, с. 219.

<sup>2</sup> Исхаков М., Камолиддин Ш., Бабаяров Г. Заметки по истории нумизматики раннесредневекового Чача (III-VIII вв.) // AEMA, edited by Th.T.Allsen, P.B.Golden, R.K.Kovalev and A.P.Martinez, 15 (2006/2007), Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008, p. 246.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. Т. 1. М., 1963, с. 230.

<sup>5</sup> Баишев И., Массон В. Археологические разведки в районе Ташкента // Труды САГУ, вып. 3. Археология Средней Азии. Ташкент, 1956, с. 134; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 73-74.

ma'lumotiga mos keladi<sup>1</sup>. Ilgari bu yerda Nujkat shahri joylashgan deb taxmin qilingan edi<sup>2</sup>.

**Xotunkat** (خاتونك) – bu Binkatdan 2 farsax masofada al-Qalos dashtidagi mudofaa devori tarafda joylashgan shahar<sup>3</sup>. Bu shahar Sug'd va Samarqand, shuningdek, Farg'ona va Iloq mollarining to'planish yeri bo'lgan<sup>4</sup>. Uning nomi ayollarning yuksak turkiy unvoni bo'lgan qatun / xatun – "xotun", "beka", "malika" va sug'dcha kat – "shahar", "qishloq" so'zlaridan yasalgan<sup>5</sup>. Xitoy manbalarida bu shaharning nomi Katun shaklida keltirilgan<sup>6</sup>. Bu so'z yordamida yasalgan tarixiy joy nomlari ayniqsa turkiy xalqlar qadimdan yashab kelgan yerlarda ko'plab uchraydi<sup>7</sup>. Islomdan oldingi Chochning turkiy

---

<sup>1</sup> Филанович М.И. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Фан, 1983, с. 190-191.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 69-72.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118

<sup>5</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 436, 637; Смирнова О.И. Первые монеты Уструшаны // ЭВ, вып. 20. Л., 1971, с. 65; Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 101, 192, 206.

<sup>6</sup> Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. 3-том. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1950-1953, с. 288.

<sup>7</sup> Камолиддин Ш.С. О роли женщин в тюркском обществе // Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун. Тошкент, 2005, с. 22-23.

hukmdorlari zarb etgan mis tangalarda yonma-yon holatda turgan jabg'uqag'an va xotun suratlari tasvirlangan<sup>1</sup>. Ehtimol, Xotunkat shahri dastlab, ya'ni VII-VIII asrlarda, Chochning turkiy hukmdori jabg'uqag'anning xotiniga qarashli mulk bo'lgandir. Shuning uchun bu aholi maskani keyinchalik shu nom bilan atalgan. Uning xarobalari Toshkent shahridan shimoli-sharqda, To'qaytepa xarobalaridan shimolda joylashgan bo'lib, Oqota deb ataladi. Xullas, bu ikki xarobalar, ya'ni Oqota va To'qaytepaning biri Jabg'ukat, ikkinchi Xotunkat ekanligi aniq<sup>2</sup>.

**Barkush** (برکوش) – "Hudud al-olam"da uning nomi Tarkus (ترکوس) shaklida keltirilgan<sup>3</sup>. Bu shaharcha Xotunkatdan 3 farsax va Binkatdan esa 5 farsax masofada al-Qalos dashtidagi mudofaa devori tarafida joylashgan<sup>4</sup>. Bu shahar nomining kelib chiqishi ma'lum emas. Uning xarobalari Toshkentdan 42 km masofada Chirchiq daryosining o'ng qirg'og'ida, Zax arig'inining boshlanish yerida Pargos qishlog'ida joylashgan bo'lib, Pargostepa deb ataladi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Babayar G. Kokturk kaganligi sikkeleri katalogu. The Catalogue of the Coins of Turkic Qaghanate. Ankara: TIKA, 2007, № 4-6, 30-34, 45-55.

<sup>2</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 74-75.

<sup>3</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص: 132

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>4</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص: 382  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>5</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, 75-79.

**Xarkonkat** (جركانكت) - manbalarda bu shaharcha Xotunkatdan 7 farsax, Barkushdan 4 farsax sharq tomonda joylashgan deb ko'rsatilgan<sup>1</sup>. Boshqa manbalarda uning nomi Xarjonkat (خرجانكت)<sup>2</sup>, Xujokat (خجاكت)<sup>3</sup>, va Xarxakat (حرحكت) shaklida qayd etilgan. Bu yerda mashhur "chochiy" kamonlar ishlab chiqarilgan<sup>4</sup>. Uning nomi qadimgi yunon xarac – "istehkom", "qo'nalg'a" so'zidan yasalgan<sup>5</sup>. Bu shaharchaning xarobalari Xojikent shahri yonida Chirchiq daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Xojikent-Bozorboshi deb ataladi<sup>6</sup>.

---

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>2</sup> Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 332, 345.

<sup>3</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 410 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 49, 265.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>5</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 101, 171-172.

<sup>6</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 79-82.

**Ardlonkat yoki Ardalonkat** (اردلانكت - Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lining g'arbiy tomonida joylashgan<sup>1</sup>. Aholisi, ekinzorlari va oqar suvlari ko'p shaharcha. Kalashjik va Ustbayg'u yonida joylashgan<sup>2</sup>. Farg'ona vodiysida ham shu nomli shahar bo'lgan<sup>3</sup>. Uning nomining birinchi qismi Arslon turkiy atoqli ot<sup>4</sup> yoki sug'dcha 'rd'r - "viloyat" va kat - "shahar", "qishloq" so'zlaridan yasalgan<sup>5</sup>. Bu shaharcha Burchmulla qishlog'i yonida, Chotqol va Ko'ksuv daryolarining oralig'ida

<sup>1</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. – قاهرة، 1961. ص – 185؛

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnorum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 345;

ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>2</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار التقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>3</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. – قاهرة، 1961. ص – 185؛

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnorum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 346.

<sup>4</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 55; Lurje P.B. The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // SI, t. 32, fascicule 2, 2003, p. 193.

<sup>5</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 70, 95, 105, 201.

baland qirg'oqda joylashgan xarobalar<sup>1</sup> yoki Oqsuvning Chotqol daryosiga quyilish yeridagi Kulbosgan xarobalari o'rnida joylashgan deb taxmin qilingan edi<sup>2</sup>. Lekin bu ikkala xaroba Farg'onaga qarashli Ardlonkatga tegishli bo'lishi ham mumkin. Chunki ash-Shosh viloyatidagi Ardlonkat butunlay boshqa tomonda, Iloq vodiysida joylashgan. Demak, uning xarobalari Ohangaron vodiy-sidan izlash kerak.

Yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlar hamda arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, Shosh viloyati va uning poytaxti – Binkat ayniqsa X–XI asrlarda ravnaq topdi. Bu davrda viloyat yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan. Ayni paytda Binkatdan qurol-yarog', temir hamda mis buyum va asboblar, hatto qaychi va to'g'nog'ichlargacha va yog'ochdan yasalgan asbob va uskunalar, egar va jabduqlar, ip va ipak gazlamalar, joynamoz va choyshablar, igna va pichoqlar, ustki kiyimlar, poyabzallar, chodirlar va boshqa xil turli-guman hunarmandchilik mahsulotlari hamda uzoq mamlakatlardan keltiriladigan mollar chetga, jumladan Dashti Qipchoq hududlariga chiqarilgan.

IX–XIII asr boshlarida yaratilgan arab tilli yozma yodgorliklarda bizgacha yetib kelgan Toshkent vohasi tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlar tahlili ularning ilmiy tasnifini yaratish va dastlabki yaxlit manbashunoslik tahlilini amalgaloshirish va bu sohada tadqiqotlar istiqbolini belgilash imkonini berdi. Bizning umumiylar manbashunoslik materiallarimiz asosida tarixiy onomastika, jumladan tarixiy toponimiya, xo'jalik-iqtisodiy munosabatlar, etno-madaniy jarayonlar, o'rjanilayotgan mintaqada islom dini va islomiy madaniyat

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 82-84.

<sup>2</sup>Кабиров А.К. Археологические памятники Чаткала // Труды Киргизской археолого-этнографической экспедиции, вып. 2. М.; Л., 1959, с. 52.

tarqalishi va barqarorlashuvi kabi qator masalalar bo'yicha tadqiqotlar uchun yo'nalishlar belgilanishi mumkin bo'ldi.

Ishimizda belgilangan xronologik chegara doirasida manbalar bergan tarixiy geografik ma'lumotlarni mintaqada olib borilgan va bugun ham davom etayotgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish: voha tarixiy-madaniy hududlari bo'ylab manbalarda tilga olingan aholi manzillari va boshqa turdag'i geografik obyektlarning tarixiy genezisini kuzatish; manbalar qayd etgan geografik ma'lumotlarni tanqidiy qiyosiy o'rganish; geografik obyektlarning tarixiy taqdiri va saqlanib qolganlarining keyingi hayoti dinamikasini to'liq tasavvur qilish; tarixiy jarayonlar uzlucksizligi va uzviyligini tushunish; geografik obyektlarning tarixiy topografiyasini manbalar asosida aniqlash; bir qator manzil nomlarini konkret arxeologik obyektlar bilan identifikatsiya qilish imkonini berdi.

## **ILOQ VODIYSINING IX-XIII ASRLARDAGI ARAB MANBALARIDA AKS ETGAN TARIXIY GEOGRAFIYaSI**

Toshkent vohasining janubi-sharqiy chekkasida Chotqol va Qurama tizma tog'lari qad ko'targan. Yuqorilikda tog'lar iskanjasida bo'lgan Ohangaron daryosi tog'-oldi pasttekisligiga oqib chiqqanidan keyin dehqonchilik uchun qulay sug'oriladigan vohani tashkil qiladi. O'rta asrlarda bu hudud Iloq mulki bo'lib, Choch tarkibiga viloyat sifatida kirgan. O'sha vaqtarda daryo "Iloq daryosi" nomi bilan atalgan. Ammo XIII asrda bu yerga kelgan mo'g'ullar hunarmandlar – temir-chilarning ko'plab ustaxonalarini ko'rib, daryoni "Daryoi Ohangaron" – "temirchilar daryosi" deb ataganlar. Daryoning bunday atalishi bejiz emas edi, albatta. Sharqning qadimiy tarixchilarining Iloq haqidagi ma'lumotlarida bu multk Movarounnahrning eng yirik tog'li viloyati sifatida aytib o'tiladi.

### **Chirchiq va Iloq daryolari haqidagi ma'lumotlar**

Chirchiq daryosi manbalarda Nahr Turk (نهر ترك) yana boshqa manbalarda Nahr Barak (نهر براك) shaklida keltirilgan<sup>1</sup>. V.V.Bartold fikricha, daryoning asl nomi Parak (Farak) bo'lgan, uning "Turk" shakli esa manbalarda xato berilgan<sup>2</sup>. Lekin Ibn Xavqal asarining M. de Guye tanqidiy matnida va boshqa manbalarda bu daryoning nomi Nahr Turk (نهر ترك), ya'ni "Turk daryosi" shaklida keltirilgan<sup>3</sup>. Bu daryo

---

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 309.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан // Сочинения в 9 томах. Т. 8. М. 1973, с. 264

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛

nomining aynan shu shaklida o'qilishi yana shundan ayon bo'ladiki, at-Tabariyning asarida bu daryoning nomi Nahr al-Atrok (نهر الاتراك), ya'ni "Turklar daryosi" shaklida<sup>1</sup>, al-Istaxriy asarining forscha matnining ayrim nusxalarida esa Rud-i Turkiston (رود تركستان) shaklida qayd etilgan. Mug'tog'idan topilgan sug'diy hujjatlarda bu daryoning nomi c'yrcyk yoki c(')orcyk shaklida qayd etilgan<sup>2</sup>. "Manas" dostonida bu daryoning nomi Chayirchiq<sup>3</sup>, "Boburnoma"da esa Chir (چير) shaklida qayd etilgan<sup>4</sup>. Chirchiq nomi sug'd

---

Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 388; Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 344, 345; Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27, 178;

قدامة بن جعفر، "الخراج و صناعة الكتابة"، دار الرشيد للنشر، بغداد، 1981 م. 272 ص؛  
Kodama ibn Djafar, Accedunt excerptae Kitab al-Kharadj / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 204; al-Masudi, Kitab at-tanbih wa-l-ishraf / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 8, Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 65, 67.

<sup>1</sup> at-Tabari, Abu Djafar Mohammed ibn Djarir, Annales / Ed. M.J. de Goeje, III-serie, Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1964, p. 1988, 2001, 2004.

<sup>2</sup> Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. 2. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А.Лившица. М.: Изд-во вост. Лит-ры, 1962, с. 79, 87; Grenet F. Les "Huns" dans les documents Sogdiens du mont Mugh // Etudes Irano-Aryennes offertes a Gilbert Lazard, Paris, 1989, p. 180-181.

<sup>3</sup> Кораев С. Топонимика – жой номлари ҳақида фан. Тошкент: Фан, 1980, 24-25 б.

<sup>4</sup> Бабур-наме. Записки Бабура / Перевод М.Салье. Отв. ред. А.Азимджанова. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958 (1992), с. 86, 13б, 17а, 22б.

tilida "quyi" ma'nosini bildiradi<sup>1</sup>. Lekin bu nom turkiy chadir / chayir – "yaylov" so'zi<sup>2</sup> yoki chag'iriq / chag'irat etnonimi<sup>3</sup> bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Uning ikkinchi qismi esa kichraytirish ma'nosini bildiruvchi turkiy -ciq (-cuq, -caq) affiksidan iborat<sup>4</sup>.

Nahr Iloq (نهر ايلاق) – hozir bu daryo Ohangaron deb ataladi. Bu nom fors tilida Ohangaron (اھنگران) – "temirchilar" ma'nosini bildiradi. XII asr arab geografi al-Idrisiy xaritasiga ko'ra, Iloq vodiyisidan oqib ash-Shosh daryosiga quyiluvchi daryo Birki deb atalgan<sup>5</sup>. Bu daryo nomining kelib chiqishi Taroz yaqinidagi Birki (برکی) yoki Mirki (مرکی) qishlog'inining nomi<sup>6</sup> singari turkiy bo'lishi mumkin<sup>7</sup>.

XII asr arab geografi al-Idrisiy xaritasiga ko'ra, Iloq tog'lari ham Birki deb atalgan<sup>8</sup>. Hozir bu tog'lar Qoramozor tog'lari deb ataladi.

<sup>1</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 63.

<sup>2</sup> Мурзаев Э.М. Избранная тюркская географическая лексика // Ономастика Востока. М., 1980, с. 85.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. Т. 1. М., 1963, с. 208

<sup>4</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 650-651.

<sup>5</sup> Караев О. Извлечения сведений из географии ал-Идриси. «Китаб нузхат ал-муштак фи-хтирак ал-афак» // Арабо-персидские источники о тюркских народах. Фрунзе: Илим, 1973, с. 57

<sup>6</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 29;

<sup>7</sup> المقسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م، 411 ص؛ al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Keschri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 263, 275.

<sup>8</sup> Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 34.

<sup>9</sup> Караев О. Извлечения сведений из географии ал-Идриси. «Китаб нузхат ал-муштак фи-хтирак ал-афак» // Арабо-персидские источники о тюркских народах. Фрунзе: Илим, 1973, с. 57.

Iloqning oltin va kumush konlari (معادن الذهب و الفضة) X asrda Panjirdan keyin Movarounnahrdagi eng yirik va boy konlar hisoblangan. Kumush konlarining qoldiqlari Qurama — Qoramozor tog'laridagi hozirgi Konsoy, Takali, Oltintopgan, Qoratoshqutan, Koni-Mansur, Kanjol, Oqtoshkon, Choqadam-buloq, Qoratepa-Miskon, olmaliq, Sovuqbuloq, Pangaz, Gudas, Lashkarak-Tizko'l da bo'lgan. Oltin konlari esa Janubiy Chotqol tog'laridagi Kochbuloq, Tog'berdi, Qizilolma, Qaynar, Baliqchi, Aqjan, Sartabutkon, Katiranga nomli yerdarda joylashgan<sup>1</sup>.

**Farankat** (فرنك) – uning nomi Farankad shaklida ham keltirilgan<sup>2</sup>. Bu shaharcha Binkatdan 4 farsax, Jabg'ukatdan esa 2 farsax masofada<sup>3</sup>, Bag'uykat va Abardkat yonida joylashgan<sup>4</sup>. Uning nomi sug'dcha frn – "shuhrat" va

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. О местонахождении «серебряного рудника Шаша» // ОНУ, 1965, № 2, с. 28-30; Буряков Ю.Ф. Горнорудное дело и металлургия средневекового Илака (V — начало XIII вв.). М.: Наука, 1974, с. 109-112; Буряков Ю.Ф. Добыча золота и серебра в Средней Азии в средневековье // ИМКУ, вып. 30. Самарканд, 1999, с. 264-273; Буряков Ю.Ф. Роль металлуогии цветных и благородных металлов в формировании древней цивилизации и государственности среднеазиатского междуречья // ЎзМУ хабарлари (Вестник НУУз, Actd NUUz). Ташкент, 2003, № 2, с. 53-56.

<sup>2</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقاسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 412 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 48, 264.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

kat – “shahar”, “qishloq” so‘zlaridan yasalgan<sup>1</sup>. Samarqand viloyatida ham Farnkat (فرنك) <sup>2</sup>, Farankad (فرنك) yoki Afrankad (افرنک) nomli qishloq bo‘lgan<sup>3</sup>. Rivoyatga ko‘ra, bu qishloqni Samarqand ishxidi G’urak (710-738 yillarda hukm surkan) o‘zining Afarun ismli akasi uchun qurdirgan<sup>4</sup>. Bu shaharcha hozirgi Parkent shahri o‘rnida joylashgan bo‘lib, uning xarobalari Ishqo‘rg‘on deb ataladi<sup>5</sup>.

**Bag‘unkat** (بغنكت) – Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo‘lidan sharq tomonda, Binkatdan 5 farsax, Abardkatdan 2 farsax masofada joylashgan<sup>6</sup>. Boshqa manbalarda bu

---

Hudud al-’Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>1</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 44, 97.

<sup>2</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار التقافية للنشر، 1999 م. ص 132.

Hudud al-’Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 113.

<sup>3</sup> ан-Насафий, Абу Ҳафс Ӯмар ибн Муҳаммад. Ал-Қанд фи зикр ’уламо’ Самарқанд / Муҳаммад Назар ал-Форйобий нашри. Ар-Рийод: Мактабат ал-Каусар, 1412/1991, 514-бет; ас-Самъоний, Абу Саъд ’Абд ул-Қарим ибн Муҳаммад. Ал-Ансоб / ’Абд ар-Раҳмон ал-Муъаллими нашри. 9-жилд. Байрут: Муҳаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 284-б.

<sup>4</sup> Кандия Малая / Пер. с персидского, предисловие и примечания В.Л.Вяткина // СКСО, вып. 8. Самарканд, 1906, с. 241

<sup>5</sup> Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения в 9 томах. Т. 1. М., 1963, с. 232; Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 38; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 99-104.

<sup>6</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 381  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l’arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

shaharchaning nomi Bishkat (بشكى<sup>1</sup>) (al Mokaddasi: 48, 264) va Bag'uykat (بغويكت) shakllarida keltirilgan<sup>2</sup>. Bu shahar nomining bиринчи qismi sug'dcha by - "xudo" yoki byn - "ibodatxona"<sup>3</sup> yoki turkiy baquy - "jamoa boshlig'i" so'zlaridan iborat bo'lishi mumkin<sup>4</sup>. Ibn Xurdodbeh ma'lumotiga ko'ra, Usrushanadan ash-Shosh tomonga yurganda Turk daryosi bo'yidagi Shutukatdan o'tib, 3 farsaxdan keyin Binkatga 2 farsax yetmasdan yo'l Banunkat (بنكى<sup>5</sup>) nomli qishloqdan o'tgan<sup>6</sup>. Bu nomning al-Muqaddasiy keltirgan Bishkat (بشكى<sup>7</sup>) shakli sug'dcha p(y)s - "tashqi", "tashqari", "orqa" so'zidan yasalgan. Hozirgi Beshkant joy nomi ham shu o'zakdan yasalgan bo'lishi mumkin<sup>6</sup>. "Boburnoma"da Toshkent viloyatida Bishkent shahri qayd etilgan<sup>7</sup>.

**Kazok yoki Kadok (كذاك)** – Bu shaharcha Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lidan sharq tomonda, Binkatdan

<sup>1</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 48, 264.

<sup>2</sup> حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجھول كتبه عام 372 هـ ، الدار التقافية للنشر ، 1999 م. 132 ص؛

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 95, 207.

<sup>4</sup> Lurje P.B. The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // SI, t. 32, fascicule 2, 2003, p. 193.

<sup>5</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>6</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 96.

<sup>7</sup> Бабур-наме. Записки Бабура / Перевод М.Салье. Отв. ред. А.Азимджанова. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958 (1992), с. 113-114.

sharqda, Abardkat va G'adronak orasida joylashgan<sup>1</sup>. Uning nomi Kadok (қдак) shaklida ham qayd etilgan bo'lib<sup>2</sup>, sug'dcha kt - "uy" yoki knd - "shahar" so'zidan yasalgan<sup>3</sup>. "Hudud al-olam"da uning nomi K.rol (крал) shaklida qayd etilgan. Bu kichik shaharchada dehqonchilik rivojlangan bo'lib, unda otlar ham yetishtirilgan<sup>4</sup>. Ibn Xurdodbeh ash-Shoshdan 2 farsax masofada joylashgan Kubol (қб) qishlog'ini qayd etgan<sup>5</sup>. Qudoma ibn Ja'far esa uning o'rnida devor ichida harbiy qarorgoh (музк) joylashganligini qayd etgan<sup>6</sup>. Shu bilan birga

---

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 384 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>2</sup> ابو اسحق ابراهیم بن محمد الفارسی الاصطخری. کتاب مسالک الممالک. تحقیق محمد جابر عبد العال الحینی. – قاهره، 1961. ص – 185؛

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 330, 345;

المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 48, 264.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 58, 104.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372ھ، الدار التقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 246; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>5</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>6</sup> قدامة بن جعفر، "الخراج و صناعة الكتابة"، دار الرشيد للنشر، بغداد، 1981 م. 273 ص؛

ularning asarlarida Jabg'ukat qayd etilmagan. Demak, Kubol (Kadok)ning ikkinchi nomi Jabg'ukat bo'lgan deb taxkim qilish mumkin. Karvon yo'li as-Sin chegarasidagi Barsxan (برسخان) shahriga 3 farsax yetmasdan yana bir Kubol (كبال) nomli qishloq bo'lib<sup>1</sup>, u Suyab (سویاب) shahriga qarashli bo'lgan<sup>2</sup>. Turkiston yo'lida Katok (كتاك) nomli qishloq, Samarqand viloyatida Kadak (كداك) yoki Kadan (كدان) nomli qishloq<sup>3</sup>, Kesh viloyatida esa Kandak (كندك) nomli qishloq bo'lgan<sup>4</sup>.

**G'adronak** (غدرانڭ) – Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lidan sharq tomonda Kadok va Kabarna yonida joylashgan<sup>5</sup>. al-Muqaddasiy asarida bu nom Namadvonak

Kodama ibn Djafar, Accedunt excerptae Kitab al-Kharadj / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 204.

<sup>1</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 29.

<sup>2</sup> قدامة بن جعفر، "الخراج و صناعة الكتابة"، دار الرشيد للنشر، بغداد، 1981 م. 273 ص؛ Kodama ibn Djafar, Accedunt excerptae Kitab al-Kharadj / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-Batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 205.

<sup>3</sup> ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Мұхаммад. Ал-Ансоб / 'Абд ар-Рахмон ал-Муъаллимиң нашри. 10-жилд. Байрут: Мұхаммад Амин Дамаж, 1980-1981. 365, 366-б.

<sup>4</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. – قاهرة، 1961. ص – 185؛

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 337, 338;

ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 400;

المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛ al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 342.

<sup>5</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛

(نمداңк)<sup>1</sup>, "Hudud al-olam"da bu shaharing nomi B.g'uronk (بغورانك) shaklida keltirilgan. Bu kichik shaharchada dehqonchilik rivojlangan bo'lib, unda otlar ham yetishtirilgan<sup>2</sup>. Bu nom qadimiy eronchada grda – "uy" yoki forscha yard – "yozgi uy" so'zlaridan yasalgan bo'lishi mumkin<sup>3</sup>.

**G'azak** (غزك) – ayrim manbalarda bu shaharcha G'azaq (غزق) ham deyiladi. U turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lidan sharq tomonda joylashgan<sup>4</sup>. "Hudud al-olam"ga ko'rra, bu kichik shaharchada dehqonchilik rivojlangan bo'lib, unda otlar ham yetishtirilgan<sup>5</sup>. Farg'ona va Marv viloyatlarida G'azaq (غزق) nomli qishloq<sup>6</sup>, Usrushanada esa shu nomli shahar bo'lgan. Bu nomlarni qadimgi yunon manbalaridagi Gacaka

---

Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522

<sup>1</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 48, 264.

<sup>2</sup> حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 71.

<sup>4</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛

Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>5</sup> Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>6</sup> ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Мухаммад. Ал-Ансоб / 'Абд ар-Раҳмон ал-Муъаллимий нашри. 9-жилд. Байрут: Мухаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 141-бет.

shahrining nomi bilan solish tirish mumkin<sup>1</sup>. Ehtimol, bu nom tarkibida g'uz (غز) etnonimi ishtirok bo'lishi ham mumkin.

**Varduk** – (وردوك) Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lidan sharq tomonda Jabuzan yonida joylashgan<sup>2</sup>. Bu shaharchaning nomi Varduk (وردك)<sup>3</sup> va Vardul (ورذول) shakllarida ham qayd etilgan. Bu kichik shaharchada dehqonchilik rivojlangan bo'lib, unda otlar ham yetishtirilgan<sup>4</sup>. Uning nomining kelib chiqishi o'rta fors warduk (وردوك) – "usti shoxlar va samon bilan yopilgan yozgi uy" yoki qadimgi eroniy warta – "tosh" so'zлari bilan bog'liq<sup>5</sup>. Boshqa fikrga ko'ra, bu shahar nomining kelib chiqishi turkiy tillar bilan bog'liq bo'lib, u qadimgi turkiy tildagi var – "kovlamoq", "jarlik" so'zidan yasalgan bo'lishi mumkin. Bu shahar Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Pskom daryosining chap qirg'og'ida Shohjuvor qishlog'i yonida joylashgan Shohjuvortepa xarobalari o'rnida bo'lgan bo'lishi mumkin<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 57.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>3</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 264.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار التقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>5</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 23, 60.

<sup>6</sup> Богомолов Г.И. К вопросу об отождествлении городища Шахджувар // Археология и история Центральной Азии. Самарыанд, 2004, с. 56-57.

**Jabuzan** (جبون) – Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lidan sharq tomonda joylashgan<sup>1</sup>. Bu shahar nomining kelib chiqishi turkiy tillar bilan bog'liq bo'lib, uning tarkibida buz – "muz" so'zi bor<sup>2</sup>.

**Kabarna** (كَبْرَنَه) – Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lidan sharq tomonda G'adronak va G'azak yonida joylashgan<sup>3</sup>. "Hudud al-olam"da bu shaharning nomi K.briya (كُبْرِيَّه) shaklida keltirilgan. Bu kichik shaharchada dehqon-chilik rivojlangan bo'lib, unda otlar ham yetishtirilgan<sup>4</sup>. Islomdan oldingi Choch tangalarida uning nomi sug'diy harflarda kprnw xwb – "Kabarna hukmdori" shaklida o'qilgan edi<sup>5</sup>. Lekin oxirgi vaqtda qo'lga kiritilgan yangi topilmalar bu sug'diy yozuvlarning mazkur o'qilishini tasdiqlamaydi<sup>6</sup>. Uning nomining kelib chiqishi sug'd, arab yoki fors tillari bilan

---

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>2</sup> Богомолов Г.И. К вопросу об отождествлении городища Шахджувар // Археология и история Центральной Азии. Самарыанд, 2004, с. 56.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار التقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>5</sup> Ртвеладзе Э.В. Нумизматические материалы к истории раннесредневекового Чача // ОНУ, 1982, № 8, с. 35.

<sup>6</sup> Исхаков М., Камолиддин Ш., Бабаяров Г. Заметки по истории нумизматики раннесредневекового Чача (III-VIII вв.) // AEMA, edited by Th.T.Allsen, P.B.Golden, R.K.Kovalev and A.P.Martinez, 15 (2006/2007), Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008, p. 228-229.

bog'liq emas, chunki -a (-na) qo'shimchasi bu tillarda ishlatilmaydi<sup>1</sup>. Demak, bu nom boshqa bir tildagi so'zlardan yasalgan. Bu nomni Kaspiy dengizidagi Suburna (سبرنه) joy nomi bilan solishtirish mumkin<sup>2</sup>. Bu nom esa turkiy tilda "suv burni" ma'nosini anglatadi<sup>3</sup>. Bu shaharchaning xarobalari Toshkentdan 25 km sharqda, Yangibozor shahridan 6 km masofada Kavardon qishlog'ining shimoliy chekkasida joylashgan. Rivoyatga ko'ra, qadimda bu yerda mavjud bo'lган shaharning nomi Kabarbanda bo'lган<sup>4</sup>.

**Ustbayg'u** (استبیغوا) – Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo'lining g'arbiy tomonida joylashgan<sup>5</sup>. Bu shaharning nomi Ashbing'u (أشبینغوا) va S.t.b.g'.vo shakllarida ham qayd etilgan. X asrda u aholisi, ekinzorlari va oqar suvlari ko'p shaharcha bo'lган. Ardlonkat va Kalashjik

---

<sup>1</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 57.

<sup>2</sup> Ибн ал-Асир, Абу-л-Хасан 'Али ибн Мухаммад аш-Шайбоний ал-Жазарий. Ал-Комил фи-т-та'рих. 11-жилд. Миср: Булоқ, 1883 – 1885, 169-б.

<sup>3</sup> Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 83, 90.

<sup>4</sup> Массон М.Е. Прошлое Ташкента (Археолого-топографический и историко-архитектурный очерк) // Известия АН УзССР, 1954, № 2, с. 86-99.

<sup>5</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>6</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. – قاهرة، 1961. ص – 185؛

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 329.

yonida joylashgan<sup>1</sup>. Bu shaharning nomi turkiy ust – “ust” va bayyu / yabyu – “yabg‘u” so‘zlaridan yasalgan<sup>2</sup>. Ibn Havqal bu shaharni Barak va Iloq daryolari orasida Iloq yo‘lining g‘arb tomonida joylashgan shaharlar ichida birinchi bo‘lib keltirgan<sup>3</sup>. Demak, u Chirchiq va Ohangaron daryolari orasida joylashgan.

**Kalashjik** (كلشجك) – Turk daryosi va Iloq daryosi orasida, Iloq yo‘lining g‘arbiy tomonida joylashgan<sup>4</sup>. Aholisi, ekinzorlari va oqar suvleri ko‘p shaharcha. Ardlonkat va Ustbayg‘u yonida joylashgan<sup>5</sup>. Bu shaharchaning nomi kichraytirish ma’nosida ishlataladigan turkiy -ciq (-cuq, -caq, -jiq, -juq, -jaq) affiksi yordamida yasalgan<sup>6</sup>. Bu nomning

<sup>1</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص: 132.

Худуд ал-’Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-’Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>2</sup> Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 82.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص: 384  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l’arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>4</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص: 384  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l’arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>5</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص: 132.

Худуд ал-’Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-’Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>6</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 650-651;  
Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 82.

birinchi qismida, ehtimol Kalapotari (kalapodara) nomli buddaviy iblisning ismi yotgandir<sup>1</sup>.

### **Iloq vohasi hamda Binkat va Tunkat oralig‘idagi shaharlar geografiyasи**

**Nujkat.** O‘rta asr geograflarining ta’kidlashicha Nujkat shahri Chirchiq daryosining bo‘yida, Binkatdan Farg‘ona va Iloqqa ketish yo‘lida joylashgan. Shahar Binkatdan janubda bir farsax masofada bo‘lgan. Mazkur shahar qoldiqlari Xonabod shahri yodgorliklari bilan bog‘lanadi. Xonabod shaharchasi joylashgan yer hozirgi kunda Toshkent shahrining janubida, katta halqa yo‘liga yaqin yerda, Chirchiq daryosidan 500 metr uzoqlikda qayd etilgan. Shaharcha 30 ga dan ortiqroq hududni egallab, kvadrat shakldagi 570X530 metr maydonda joylashgan. Shahriston devorlari juda yomon ahvolda saqlangan. Shahristonning sharqiy burchagida to‘rtbur-chak shakldagi qasr joylashgan. Buryakov – asosiylar. 69, 72-betlar.)

Nujkat yoki Nujakat (نوجكت) – Binkatdan 1 farsax masofada, Tunkat yo‘lida joylashgan<sup>2</sup>. “Hudud al-olam”ga ko‘ra, Parak va Xashart daryolarida ishlaydigan qayiq-chilar shu shahardan kelganlar<sup>3</sup>. Usrushanada ham shu nomli shahar bo‘lgan. Sirdaryoning quyi oqimidagi al-Qariya al-Hadisa (القرية الحديثة), Deh-i Nav (ديه نو) yoki Yangikent (ینکی کنت) nomli shahar Deh-i Nujikat (ديه نوجكت) –

<sup>1</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 289

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l’arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>3</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Hudud al-‘Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

(نوجикт) deb ham atalgan<sup>1</sup>. Isfijob darvozalaridan biri Bob Nujkat deb atalgan<sup>2</sup>. Sug'd tilidagi hujjatlarda bu shahar nwckat shaklida qayd etilgan bo'lib, uning nomi so'g'dcha nw(c) – "yangi" va kat – "shahar" so'zlaridan yasalgan<sup>3</sup>. Bu shahar hozirgi Toshkent shahridan janubda, Chirchiq daryosidan 0,5 km masofada joylashgan Xonobod xarobalari o'rnida bo'lgan deb taxmin qilingan<sup>4</sup>.

**Boloyon** (بالإبان) – Bu shaharcha Binkatdan 3 farsax va Tunkatdan 5 farsax masofada joylashgan<sup>5</sup>. "Hudud al-olam"da uning nomi Yolopon (يالابان) shaklida keltirilgan. Undan Parak daryosining qirg'og'igacha 1 farsang bo'lgan. Bu yerda dirhamlar zARBXONASI (سراي درم زدن) joylashgan<sup>6</sup>. Ibn

---

<sup>1</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 263.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 510.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 51, 62, 91, 99.

<sup>4</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 41-42; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 69-72.

<sup>5</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>6</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Xurdodbeh ma'lumotiga ko'ra, ash-Shoshdan Iloq va Balankanakdagi kumush konlargacha masofa 7 farsaxni tashkil etgan<sup>1</sup>. Lekin al-Muqaddasiy ma'lumotiga ko'ra, Binkatdan kumush konlarigacha bo'lgan masofa 1 marhal bo'lgan<sup>2</sup>. Bu shaharchaning xarobalari To'ytepadan shimoli-g'arbda Qorasuv arig'ining o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, Kulqoratepa deb ataladi<sup>3</sup>.

**Nukat** (نوكت) – Binkatdan 4 farsax, Tunkatdan 4 farsax masofada joylashgan<sup>4</sup>. Uning nomi sug'dcha nw – "yangi" va kat – "shahar", "qishloq" so'zlaridan yasalgan<sup>5</sup>. "Hudud al-olam"ga ko'ra, Nukat Iloqning bosh shahri (قصبة) bo'lgan, uning shahristoni, kuhandizi va rabadi bor edi<sup>6</sup>. Bu ma'lumot

---

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>1</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>2</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقاسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 412 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 342.

<sup>3</sup>Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 43; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 105-106.

<sup>4</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛

Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>5</sup>Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 99.

<sup>6</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

aslida Tunkat shahriga taalluqli bo'lsa kerak. XV asr hujjatlarida Shosh viloyatida Naukat (نوکت) nomli qishloq qayd etilgan<sup>1</sup>. Bu qishloq Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida, Chirchiq daryosining quyilish yeridan yuqoriroqdagi Unjikat qishlog'idan shimolda joylashgan<sup>2</sup>. Uning xarobalari hozirgi To'yepa shahrining shimoli-g'arbiy chekkasida joylashgan bo'lib, Ulkan To'yepa deb ataladi. Bu yerda mavjud bo'lgan shahar uch qismdan iborat bo'lib, 150 ga maydonni egallagan<sup>3</sup>. Balki shuning uchun ham bu ulkan shahar "Hudud al-olam"da "Iloqning bosh shahri" deb atalgandir.

**Bonjxosh** (بانجخاش) – Iloq yo'lida, Binkatdan 6 farsax, Tunkatdan 2 farsax masofada joylashgan<sup>4</sup>. Uning nomi Bonxosh (بانخاش) shaklida ham uchraydi<sup>5</sup>. "Hudud al-olam"da Bonjbos (بانجباس) va Farg'ona bilan Iloq chegarasida joylash-

---

Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>1</sup> Самарканские документы XV – XVI вв. О владениях Ходжи Ахрара в Средней Азии и Афганистане / Факсимиле, критический текст, перевод, введение, примечания и указатели О.Д.Чехович. М.: Наука, 1974, с. 268, 269.

<sup>2</sup> Вяткин В.Л. К исторической географии Тошкентского района // Туркестанские ведомости. Ташкент, 1900, № 101.

<sup>3</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 45-54; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 106-109.

<sup>4</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>5</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 49, 265.

gan Al.x.n.jos (الحنجاس) shaharchalari qayd etilgan<sup>1</sup>. Bu shaharchaning xarobalari To'yteradan janubi-sharqdagи Anxor qishlog'ining janubi-g'arbiy chekkasida joylashgan bo'lib, Jumishqazitepa deb ataladi<sup>2</sup>.

**Sakokat** - Iloq yo'lida, Binkatdan 7 farsax, Tunkatdan 1 farsax masofada joylashgan<sup>3</sup>. Boshqa manba-larda uning nomi Shovakat (شاوكت)<sup>4</sup> va Sh.kokab (شاكاب) shakllarida qayd etilgan<sup>5</sup>. Mug' tog'idan topilgan sug'd

<sup>1</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117, 118.

<sup>2</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 56-57; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 109.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 522.

<sup>4</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 49, 265, 342; ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Мухаммад. Ал-Ансوب / 'Абд ар-Рахмон ал-Муъалимиий нашри. 8-жилд. Байрут: Мухаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 275-б.

<sup>5</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

hujjatlarida bu shahar s'wkth shaklida qayd etilgan<sup>1</sup>. Ustrushanada ham Shovakat (شاوكت) nomli qishloq bo'lgan<sup>2</sup>. Sakokat nomi sug'dcha saka – "yuqori" va kat – "shahar", "qishloq" so'zlaridan<sup>3</sup>, Shovakat nomi esa sug'dcha s'w — "qora" va kat – "shahar", "qishloq" so'zlaridan yasalgan<sup>4</sup>. Sakokat nomining birinchi qismi turkiy saqo (سقا) – "tog' etagi" so'zidan yamalgan bo'lishi ham mumkin<sup>5</sup>. Uning xarobalari To'yteradan janubi-sharqda, Ohangaron daryosining o'ng qirg'og'idagi Uvait qishlog'i yonida joylashgan bo'lib, Uvaittepa deeb ataladi<sup>6</sup>.

**Tunkat** — Iloq viloyatining bosh shahri, Binkatdan Tunkatgacha masofa 8 farsaxni tashkil etgan<sup>7</sup>. Bu

<sup>1</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 92.

<sup>2</sup> ابو اسحق ابراهيم بن محمد الفارسي الاصطخري. كتاب مسالك الممالك. تحقيق محمد جابر عبد العال الحيني. — قاهره، 1961. ص - 185؛

Schech Ebu Ishak el Farsi el Isztachri. Das Buch der Länder. Rauhes Haus. Hamburg. 1845. 132-134 s.; al-Istakhri, Abu Ishak al-Farisi, Viae regnorum / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 1. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 335.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 45, 99.

<sup>4</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 55, 100.

<sup>5</sup> Кошфарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. З-жилд. Тошкент: Фан, 1960-1963, 246-б.

<sup>6</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 58-59; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 109.

<sup>7</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص: 382  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et

shahar Binkatning yarmidan ham kichikroq bo'lib, unda kuhandiz, madina va uning atrofida Iloq daryosi bo'yida joylashgan rabad bo'lgan. Hukumat saroyi kuhandizda, jome' masjidi va qamoqxona kuhandiz yonida, bozorlari esa madinada ham, rabadda ham joylashgan. Madinada va rabadda oqar suv bo'lgan<sup>1</sup>. Boshqa manbalarda uning nomi Tun kat (تون کت) va Tunkati-i Buxornon shaklida qayd etilgan. Bu shahar Iloq, Jadg'al va Choch orasida joylashgan yerlarning bosh shahri (قصبة) bo'lib, savdogarlarning to'planish joyi bo'lgan<sup>3</sup>. Boshqa manbalarda esa Iloqning bosh shahri (قصبة) deb Nukat (نوكت) ko'rsatilgan<sup>4</sup>. Iloq turklar chegarasida joylashgan, uning bosh shahri

introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisoneuve, 2001, p. 522.

<sup>1</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. 382 ص؛ Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisoneuve, 2001, p. 509.

<sup>2</sup> ابو الريحان البيروني، "القانون المسعودى"، مج (3)، بيروت، 1954 م. 169 ص؛ Беруни, Абу Рейхан. Канон Mac'уда (книга I-V) / Вступительная статья, перевод и примечания П.Г.Булгакова и Б.А.Розенфельда при участии М.М.Рожанской (перевод и примечания) и А.Ахмедова (примечания) // Избранные произведения в 7 томах. Т. 5. Ч. 1. Ташкент: Фан, 1973, с. 471.

<sup>3</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 118.

<sup>4</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ، الدار الثقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

Binkatdan 10 farsax masofada joylashgan. Uning chegarasidagi Navbaxt (نوبخت) orqali Farg'onaga o'tilgan. U juda chiroyli va toza shahar bo'lgan, uning sug'oriladigan ekinzorlari eniga 2 farsax masofaga yetgan<sup>1</sup>. Shahar qoyali tog' ustida joylashgan bo'lib, yaxshi mudafaalangan, uning dehqoni esa kuchli edi<sup>2</sup>. Uning nomi qadimgi eroniy tavan - "qodir bo'lmoq" so'zidan yasalgan bo'lishi mumkin<sup>3</sup>. Lekin uning nomi qadimgi turkiy tun - "birinchi", "to'ng'ich" so'zidan yasalgan desa haqiqatga yaqinroq keladi<sup>4</sup>. Chunki Maxmud Koshg'ariy ma'lumotiga ko'ra, Toshkand (تاشكند) shahri ba'zan Tunkand (تونكند) deb ham atalgan<sup>5</sup>. Tunkat ham Iloqning bosh shahri bo'lganligi sababli shu nom bilan atalgan bo'lishi mumkin. Islomdan oldin Choch hukmdorlari erb etgan mis tangalarning biridagi sug'diy yozuvda Twnwknd - Tunkat nomi o'qilgan edi<sup>6</sup>. Lekin keyinchalik bu tangadagi yozuvning bunday o'qilishi noto'g'ri deb topildi<sup>7</sup>, bu tangalarning yaxshi saqlangan yangi topilmalari esa bu tuzatishni to'la

<sup>1</sup> ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Муҳаммад. Ал-Ансоб / 'Абд ар-Раҳмон ал-Муъаллимий нашри. 1-жилд. Байрут: Муҳаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 406-6.

<sup>2</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 277.

<sup>3</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 100.

<sup>4</sup> Древнетбрский словарь. Л.: Наука ЛО, 1969, с. 586.

<sup>5</sup> Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девони луготит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталибов. З-жилд. Тошкент: Фан, 1960-1963, 164-б.

<sup>6</sup> Ртвеладзе Э.В. Монеты Тунуканда (Тунката) и других владений // НЦА, вып. 6. Ташкент, 2002, с. 46 – 50.

<sup>7</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 92-93.

tasdiqladi<sup>1</sup>. Bu shahar hozirgi Olmaliqdan 15 km shimoli-sharqda Ohangaron daryosining chap qirg'og'ida Urgaz soyining unga quyilish yeridagi Sarjaylaq qishlog'i yonida joylashgan bo'lib, uning xarobalari imloq deb ataladi<sup>2</sup>.

### **Qurama tog'laridagi kumush konlariga olib boruvchi yo'llarda joylashgan shaharlar tarixiy geografiyasi**

**Arbilax** (أربلخ) - bu shaharcha Iloq va ash-Shosh daryolari orasida, Tunkatdan g'arbda 5 farsax masofada joylashgan<sup>3</sup>. Uning nomi turkiy -laq (-lay, -lag, -lakh) affiksi yordamida yasalgan<sup>4</sup>. "Hudud al-olam"da Farg'ona va Iloq chegarasida joylashgan Abarlig' (ابرليغ) nomli shaharcha qayd etilgan<sup>5</sup>. Uning xarobalari Ohangaron daryosining chap qirg'og'ida, Aqchasoy arig'inining boshidagi Obliq qishlog'ining sharqiy chekkasida

---

<sup>1</sup> Исхаков М., Камолиддин Ш., Бабаяров Г. Заметки по истории нумизматики раннесредневекового Чача (III-VIII вв.) // АЕМА, edited by Th.T.Allsen, P.B.Golden, R.K.Kovalev and A.P.Martinez, 15 (2006/2007), Wiesbaden: Harrassowitz Verlag, 2008, p. 234-235.

<sup>2</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 70-71, 85-92; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 110-112.

<sup>3</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>4</sup> Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 70, 83.

<sup>5</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار التقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

joylashgan. Bu shahar 80 ga maydonni egallagan, lekin uning ichida bo'sh yerlar ham bo'lgan. Bu yerkarda shaharga savdo qilish uchun kelgan ko'chmanchi qabilalarning o'tovlari joylashgan bo'lishi ehtimol<sup>1</sup>.

**Namudlig'** (نمودلخ) – bu shaharcha ham Iloq va ash-Shosh daryolari orasida, Tunkatdan g'arbda 5 farsax masofada joylashgan<sup>2</sup>. "Hudud al-olam"da Farg'ona va Iloq chegarasida joylashgan Yahudlig' (يهودلخ) nomli shaharcha qayd etilgan<sup>3</sup>. Bu ikkala nom egalik ma'nosini bildiruvchi turkiy -liy (-liq, -lig, -lik, -luy, -luq, -lug) affiksi yordamida yasalgan<sup>4</sup>. Ularning birinchi qismi namud (نمود) va yahud (يهود) so'zlaridan iborat. Qadimgi turkiy tilda namud so'zi uchramaydi. Demak, bu ikkala nomli yahud deb o'qish kerak. Balki bu shaharchada yahudiylar jamoasi istiqomat qilgan bo'lishi mumkin. Bu shaharchaning xarobalari Angren shahrining shimoli-sharqiy chekkasida, Abarlig'dan 16 km masofada joylashgan. Bu shaharcha yirik metallurgiya markazi bo'lib, bu yerda ma'danlarni eritish uchun ishlatalig'an

<sup>1</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 12, 40; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 125-127.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>3</sup> "حدود العالم من المشرق إلى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>4</sup> Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. Ташкент: Шарқ, 2006, с. 69-70, 83.

maxsus tandirlar va temirchilik ustaxonalarining qoldiqlari topilgan<sup>1</sup>.

**Күксим** (كھسیم) — ash-Shosh daryosi va Iloq daryosi orasida, Tukkat yonida joylashgan<sup>2</sup>. "Hudud al-olam"ga ko'ra, Kuh-i Sim (كھسیم) kumush koni mavjud bo'lgan tog' yonbag'rida joylashgan<sup>3</sup>. Ibn Xurdodbeh ma'lumotiga ko'ra, ash-Shoshdan Iloq va Balankanakdagi kumush konlarigacha masofa 7 farsaxni tashkil etgan<sup>4</sup>. Lekin al-Muqaddasiy ma'lumotiga ko'ra, Binkatdan kumush konlarigacha (معدن الفضة) bo'lgan masofa 1 marhala bo'lgan<sup>5</sup>. Bu shaharchaning xarobalari Ohangaron daryosining yuqori oqimi havzasidagi Nishboshsoy

---

<sup>1</sup> Буряков Ю.Ф. Археологические материалы к истории Намудлыка // ИМКУ, вып. 9. Ташкент, 1972, с. 98; Буряков Ю.Ф. Горнорудное дело и металлургия средневекового Илака (V — начало XIII вв.). М.: Наука, 1974, с. 41-42; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 127-153.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص 382؛  
Ibn Hawqal, Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>3</sup> "حدود العالم من المشرق إلى المغرب" مؤلف مجهول كتبه عام 372 هـ الدار الثقافية للنشر، 1999 م. ص 132؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930, с. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

<sup>4</sup> Ibn Khordadbeh, Abu-l-Kasim 'Obaydallah ibn 'Abdallah, Kitab al-Masalik wa-l-mamalik / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 6. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 27.

<sup>5</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 342.

boshida Qurama tog'lari yonbag'rida joylashgan bo'lib, Qo'rg'ontepa deb ataladi. VI-VIII asrlarda bu yerda muxinon nomli qal'a bo'lgan, IX-X asrlarda esa u kattalashib, shaharchaga aylangan<sup>1</sup>.

**Daxkat** (ذخت) – ash-Shosh daryosi va Iloq daryosi orasida, Xosh va Tukkat orasida joylashgan<sup>2</sup>. Boshqa manbalarda bu shaharchaning nomi Zaxkat (ذخت)<sup>3</sup>, Adaxkat (ادخت)<sup>4</sup> shakllarida keltirilgan. Bu yerda margimush (داربي موش), ya'ni mishyak ishlab chiqarilgan<sup>5</sup>. as-Sam'oniy ma'lumotiga ko'ra, Zaxkat (ذخت) Sayhun daryosining orqasida va ash-Shosh viloyatidan tepadagi ar-Rudbor (الرذبار) nomli nohiyaning markazi bo'lib, bu yerda yana Tuvidij (توديج) nomli qishloq ham bo'lgan. Katta daryolarning bo'yida joylashgan yerlar ar-Rudbor deb

<sup>1</sup>Буряков Ю.Ф. О местонахождении «серебряного рудника Шаша» // ОНУ, 1965, № 2, с. 28-30; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 115-124.

<sup>2</sup> ابن حوقل، "كتاب صورة الأرض"، منشورات دار مكتبة الحياة، بيروت، 1992 م. ص؛ Ibn Hawqal Muhammad ibn Ali al-Nasibi, Abu-l-Qasim. La Configuration de la Terre (Kitab surat al-ard) / Trad. De l'arabe et introd. J.H.Kramers, G.Wiet, preface de Andre Miquel, t. I-II. Paris: Maisonneuve, 2001, p. 523.

<sup>3</sup> ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Мухаммад. Ал-Ансоб / 'Абд ар-Рахмон ал-Муъаллимиш нашри. 6-жилд. Байрут: Мухаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 11-бет.

<sup>4</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقاسيم فى معروفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 411 ص؛

al-Maqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Keschri ptio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 49, 265.

<sup>5</sup> "حدود العالم من المشرق الى المغرب" مؤلف مجھول کتبه عام 372 هـ الدار التقافية للنشر، 1999 م. 132 ص؛

Худуд ал-'Алем. Рукопись Туманского. С введением и указателем В.Бартольда. Л., 1930. С. 24; Hudud al-'Alam, The regions of the World / A Persian geography / Translated and explained by V.Minorsky. London, 1970, p. 117.

atalgan<sup>1</sup>. Uning nomi sug'dcha dx (qadimgi eronchada daha) – "er" so'zidan yoki dah qabilasi nomidan yasalgan<sup>2</sup>. Bu shaharcha hozirgi Angrendan 8 km shimoli-g'arbda Ohangaron tog'laridagi Dukentsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan<sup>3</sup>. Talas vodiysida ham Adaxkat (اذخت) nomli shaharcha bo'lgan<sup>4</sup>.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Toshkent vohasining janubi-sharqiy chekkasida Chotqol va Qurama tizma tog'lari qad ko'targan. Yuqorilikda tog'lar iskanjasida bo'lgan Ohangaron daryosi tog'-oldi pasttekisligiga oqib chiqqanidan keyin dehqonchilik uchun qulay sug'oriladigan vohani tashkil qiladi. O'rta asrlarda bu hudud Iloq mulki bo'lib, Choch tarkibiga viloyat sifatida kirgan. O'sha vaqtlarda daryo "Iloq daryosi" nomi bilan atalgan. Sharqning qadimiy tarixchilarining Iloq haqidagi ma'lumotlarida bu mulk Movaroun-nahrning eng yirik tog'li viloyati sifatida aytib o'tiladi.

Tarixiy Toshkent viloyati qamrab olgan geografik mintaqalarda, xususan, Chirchiq va Ohangaron vodiylari hamda ular orasidagi Iloq o'liasi dehqonchilik hududlari, Sirdaryoning o'rta oqimi havzasini, Shosh vohasining Janubiy va Shimoli sharqiy karvon yo'llaridagi shaharlar, Farg'ona

<sup>1</sup> ас-Самъоний, Абу Саъд 'Абд ул-Карим ибн Муҳаммад. Ал-Ансоб / 'Абд ар-Раҳмон ал-Муъаллими нашри. З-жилд. Байрут: Муҳаммад Амин Дамаж, 1980-1981, 102-бет.

<sup>2</sup> Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Диссертация.... к. филол. Н. СПб.: ЛО ИВ РАН, 2004, с. 95, 231.

<sup>3</sup> Массон М.Е. К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1953, с. 39; Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). Ташкент: Фан, 1975, с. 153-157.

<sup>4</sup> المقدسى البشارى، "أحسن التقسيم فى معرفة الأقاليم"، مكتبة مدبولى، القاهرة، 1991 م. 410 ص؛

al-Moqaddasi, Abu 'Abdallah Mohammad ibn Ahmad Shamsaddin, Kescritio Imperii mosle mici / Ed. M.J. de Goeje, BGA, pars 3. Lugduni-batavorum: E.J.Brill, 1967, p. 274.

